

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“FILOLOGIYA” FAKULTETI (Adabiyotshunoslik yo’nalishi)

2-BOSQICH MAGISTRANTI

KARIMOVA LAYLONING

MAGISTRLIK DISERTATSIYA ISHI

MAVZU: “HUSAYNIY SHE’RIYATINING BADIY XUSUSIYATLARI”

Ilmiy rahbar: f.f.d. Muhiddinov M.

SAMARQAND– 2013

REJA

I. Magistrlik ishining umumiy tavsifi:

II. Asosiy qism:

I BOB. Husayniy ijodiy faoliyati va uning o`rganilishi

1-fasl. Husayniyning adabiy merosi

2-fasl. Husayniy ijodining o`rganilishi

II BOB. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari

1-fasl. Shoh ijodida shoir madhi

2-fasl. Navoiy asarlarida Husayn Boyqaro timsoli

III BOB. Husayniy she'riyatining badiiy xususiyatlari

1- fasl. Husayniy ijodida ilmi aruz

2-fasl. Husayniy she'riyatida ilmi bade' va ilmi qofiyaning o`ziga xos ko`rinishlari

Fo ydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Xulosa

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Yurtboshimiz I. A. Karimov: “Temuriylar davri ilm fan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topishini ta’minlagan. Sharq uygʻonish davri edi”¹,— deya temuriylar davriga alohida yuksak baho beradi. Darhaqiqat oʻzbek xalqining shonli tarixida Amir Temur va u asos solgan davlat alohida sahifa sifatida zarhal harflar bilan bitiladi. Hattoki bir oʻrinda Prezidentimiz: “Kimki oʻzbek nomini, oʻzbek millatining kuch qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qoʻshgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi boʻlsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak”², — degan yuraklarda gʻurur uygʻotuvchi soʻzlari bilan Amir Temur shaxsining tariximizda tutgan oʻrniga yana bir bor xalqimizning eʼtiborini tortadi. Temuriylarga xos boʻlgan badiiy adabiyotga boʻlgan muhabbat ularni adabiyot va sanʼatga boʻlgan homiyliklari hamda yuksak istedodlarida namoyon boʻladi. Shu nuqtai nazardan Husayn Boyqaroning ijodiy va hukmdorlik faoliyati diqqatga sazovordir. Sohib devon shoir boʻlgan Husayn Boyqaro “Husayniy” taxallusi bilan ijod etgan. Uning isteʼdodi oʻz davridayoq eʼtirof va tahsinga sazovor boʻlgan. Devonning shoir hayotlik chogʻidayoq bir necha qoʻlyozma nusxalari yaratilgan boʻlib, keyingi asrlarda ham uning xalq oʻrtasidagi shuhrati soʻnmagan. Buni qoʻlyozma nusxalarning soni va tarqalish jarayoni bilan ham izohlash mumkin. Biroq sobiq sovet tuzumi davrida Husayn Boyqaro ijodiga nisbatan bir tomonlama tor munosabat natijasi oʻlaroq koʻpgina oʻrinlarda Husayniy ijodiga haqqoniy baho berilmay qolgan vaziyatlar vujudga keldi. Oʻzbek xalqi oʻzining erkini, mustaqilligini milliy istiqlol bayrogʻi ostida qoʻlga kiritgach, koʻplab urf–odat, anʼanalar qatori buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlari, ularning amallari asl holida yana xalqimizga qayta boshladi. Xususan, “Shoh va shoir” turkumi ostida bir qancha hukmdor shoirlarning asarlari nashr etildi, maqola va ilmiy asarlar yaratildi. Ana shunday ijodkorlardan biri Husayniy boʻlib, uning devon va nashr

¹Каримов И. Амир Темур ҳақида.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996 йил. 6-бет.

²Oʻsha asar. 40-bet.

etish va ilmiy o`rganish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan Husayniy she'riyatining poetik xususiyatlarini yana-da chuqurroq o`rganish, shoirning badiiy mahoratiga haqqoniy baho berish va kelajak avlodga Husayniy aslida kim bo`lganligini, nazmining kuchi qay darajada ekanligini ko`rsatib berish mavzuning dolzarbligini tashkil etadi. Husayniy she'riyatini badiiy so`z qonuniyatlari asosida monografik planda tadqiq etilishi ushbu dissertatsiya ishining dolzarbligini ko`rsatadi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Husayniy ijodi, xususan she'riyatining o`rganilishi shoir hayotlik chog`idayoq boshlangan. Xususan, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"<sup>3</sup> asarining sakkizinchi majlisini to`lig`icha Husayn Boyqaro ijodiga bag`ishlaydi. Bundan tashqari, "Muhokamat ul-lug`atayn"<sup>4</sup>, "Mezon ul-avzon"<sup>5</sup>, she'riy devonlar debochalari, qasida va dostonlarida ham Husayn Boyqaro shaxsiyati va ijodiyotiga nisbatan fikrlarni keltirib o`tgan. Zahiriddin Muhammad Bobur ham "Boburnoma"⁶da Husayn Boyqaroning tab'i nazmida o`z munosabatini bildirib o`tgan. XX asrda mamalakatimiz hamda xorijiy adabiyotshunoslik markazlarida Husayniy hayoti va adabiy merosiga doir turli hajm va mazmundagi ilmiy va o`quv adabiyotlari maydonga keldi, xususan A. Abdug`afurov⁷, A. Hayitmetov⁸, U. Satimov⁹, S. Erkinov¹⁰, H. Arasli¹¹, J. Jo`rayev<sup>12</sup>, S. G`aniyeva¹³, B.Valixo`jayev, A.Erkinov va boshqalar Husayn

³Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ.13-том.-Тошкент: "Фан", 1997 йил.

⁴Навоий А. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ.16-том.-Тошкент: "Фан", 2000 йил.

⁵ Навоий А. Мезон ул-авзон. МАТ.16-том.-Тошкент: "Фан", 2000 йил.

⁶ Бобур З.М. Бобурнома.-Тошкент: "Юлдузча", 1989 йил.

⁷Абдуғафуров А. А.Навоий ва Ҳусайний.//Ўзбек тили ва адабиёти. 1998 йил, 1-сон.

⁸Ҳайитметов А. Мажолис ун-нафоис ҳақида баъзи мулоҳазалар. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1958 йил. 2-сон.

⁹Сатимов У. А.Навоий ва Ҳ.Бойқаро муносабатларига доир.//Ўзбек тили ва адабиёти. 1994 йил, 3-сон.

¹⁰Еркинов С.Алишер Навоийнинг Ҳусайн Бойқаро форсий ғазалларига татаббуълари//Ўзбек тили ва адабиёти, 1996 йил, 1-сон.

¹¹Арасли Ҳ. Ҳусайн Бойқаро рисоласи ҳақида.// Ўзбек тили ва адабиёти. 1996 йил, 6-сон.

¹² Жўраев Ж. Ҳусайнийнинг баъзи шеърлари хусусида.//Ўзбек тили ва адабиёти. 2005 йил, 2-сон.

¹³Ғаниева С. Ҳусайн Бойқаро асарларининг қўлёзма ва нашрлари.//Ўзбек тили ва адабиёти. 1969 йил, 1-сон.

Boyqaro ijodi yuzasidan ayrim tadqiqotlarni amalga oshirdi. Oybek, P. Shamsiyev kabi tomonidan devondan parchalar “O`zbek adabiyoti xrestomatiyasi”<sup>14</sup>da nashr etildi. 1968-yilda adabiyotshunos olimi S. G`aniyeva va Sh. Abdullayevalar tomonidan Husayniy adabiy merosi “Devon. Risola”¹⁵ nomi nashr etildi, ushbu nashrga so`z boshi sifatida keltirilgan S.G`aniyevaning maqolasi husayniyshunoslikning katta bir qadami sifatida e`tirof etilishi mumkin. Mustaqillik yillarida ham devonning yangi nashrlari amalga oshirildi. Xususan, bu borada adabiyotshunos A. Erkinov<sup>16</sup>ning xizmatlari katta. Bundan tashqari akademik B. Valixo`jayevning “Sulton Husayn Boyqaro – Husayniy she`riyati”<sup>17</sup> nomli qo`llanmasi yaratildi.

**Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi.** Bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning istiqbol rejasini mumtoz adabiyotimizning jahon adabiy jarayoni tarixi va taraqqiyotidagi mavzui, mumtoz asarlarimizning mavzu va g`oyalar ko`lami, badiiy ilmiy-nazariy jihatdan xolisona tadqiq etish belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o`zbek adabiyoti tarixi kafedrasida 2011-2015- yillar uchun “Alisher Navoiy ijodi va adabiy ta`sir masalasi” mavzusini tanlagan bo`lib, mazkur tadqiqot ushbu keng qamrovli muammo bilan bog`liq holda Alisher Navoiyning zamondosh shoirlaridan bo`lgan Husayniy ijodiga bag`ishlanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Yurtboshimiz ta`kidlaganidek, “Xalqning ma`naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o`ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo`lida muvaffaqiyatli ravishda olg`a siljitishda hal qiluvchi, tab`ir joiz bo`lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir”¹⁸.

¹⁴ Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. (XIII-XV асрлар) I том. -Тошкент: “Ўқув-пед.” нашрети, 1941 йил.

¹⁵Хусайн Бойқаро. Девон. Рисола. -Тошкент: Гофур Фулом номидаги бадий адабиёт нашри, 1968 йил.

¹⁶ Хусайн Бойқаро. Рисола. Девон. -Тошкент: “Шарқ”, 1993-1995 йил.

¹⁷Валихўжаев Б. Султон Хусайн Бойқаро - Хусайний шеърляти.- Самарқанд, 2000 йил.

¹⁸Karimov. I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008-yil. 39-bet.

“Husayniy she’riyatining badiiy xususiyatlari” deb nomlangan tadqiqotning bosh maqsadlaridan biri ham yuqorida ta’kidlaganimiz yoshlar ongida ota-bobolar yodiga hurmat, ular qoldirgan merosga nisbatan kuchli e’tibor tuyg’ularini shakllantirishdir. Tadqiqotning ilmiy maqsadlarini quyidagilar tashkil etadi:

1. Husayn Boyqaroning shaxsiy va ijodiy faoliyatini to’g’ri va xolisona baholash;
2. Husayniy adabiy merosi va uning o’rganilish darajasini aniqlash;
3. Husayniy devonining vazniy jihatdan tadqiq etish;
4. Husayniy she’riyatining badiiyatini tahlil asosida baholash;
5. Husayniyning XV asr turkiy she’riyat taraqqiyotidagi o’rnini qiyoslash va tahlil asosida baholash;
6. Devon nashrlaridagi nomutanosibliklarni sabablarini aniqlash va shunga muvofiq ravishda kelajakda mukammal nashrlarning amalga oshirilishiga qisman bo’lsa-da zamin yaratish;
7. Husayniy she’riyatining janriy xususiyatlariga oid mavjud qarashlarni isloh qilish;
8. Husayniyning adabiy merosini she’riyat qonuniyatlari asosida tahlil etish va tadqiq.

Tadqiqotning vazifalari. Ilmiy tadqiqotning yuqorida sanab o’tilgan bosh va ilmiy maqsadlarini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni hal etish ko’zda tutiladi:

- mavzuning ilmiy tarbiyaviy dolzarbligini to’g’ri anglagan holda tadqiqotning muammosini to’g’ri qo’ya olish;
- ilmiy va badiiy adabiyotlar, zaruriy manba va vositalarni aniqlash ular bilan imkon qadar tanishib chiqish;
- ushbu mavzuga yaqin ilmiy ishlar biulan tanishgan holda tadqiqot uchun mos bo’lgan uslubni aniqlash;
- tadqiqotning tarkibiy qismi sifatida ilmiy maqolalar yaratish va nashrga berish;

- ilmiy rahbar va ustozlar tajribalaridan unumli foydalanish;
- vaqt taqsimotini aniq va to'g'ri belgilab olish;
- tugallangan ilmiy tadqiqotni muvaffaqiyatli tarzda himoyaga taqdim etish va boshqalar.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Husayn Boyqaroning o'ziga xos uslubi, so'z qo'llash bilan bog'liq mahorati, Alisher Navoiy bilan ijodiy hamda shaxsiy munosabatlari, vazn, badiiy san'atlar va qofiyadan foydalanish ixtirolari dissertasion ishning obyekti tashkil etadi. XV asr Xuroson adabiy muhitining homiysi va iste'dodli ijodkorlaridan bo'lgan Husayn Boyqaroning she'riy "Devon"i va "Risola" asarlari tadqiqot predmeti vazifasini bajaradi. Dissertatsiyada Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Haydar mirzo, B. Valixo'jayevlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari asosiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari va metodlari. "Husayniy she'riyatining badiy xususiyatlari" deb nomlangan ushbu tadqiqot ishi metodologik asosini Milliy Istiqlol mafkurasi yuzasidan yaratilgan asarlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning ilm-fan, madaniyat, mafkura va ma'naviyat masalalariga doir qarashlari, ko'rsatmalari, fikr-mulohazalariga tayanildi. Shuningdek, mumtoz she'riyatimiz tarixi va nazariyasiga bag'ishlangan asarlardagi umumlashma fikrlardan foydalanildi. Tadqiqot biografik, qiyosiy, tanqidiy, ijodiy metod va uslublari birikuvidan tashkil topgan.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- temuriylarga xos ilm-fan va adabiyotga ixlosmandlik, homiylik va turkiy tilga nisbatan jonkuyarlik fazilarlarini Husayn Boyqaro shaxsiyati va faoliyati misolida ko'rsatib berishda Amir Temur bilan qiyoslash tarzida o'rganish anchayin samarali usuldir.
- Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy munosabatlari manbalar asosida ko'rib

chiqilib shu vaqtga qadar sun'iy ziddiyatlar pardasida qolib kelayotgan samimiy do'stlik, ijodiy hamkorlik masalalari atroflicha yoritildi.

– XV asrda bevosita Husayniy homiyligi va tashabbusi asosida taraqqiy etgan turkiy janr va uslubning nazariy hamda amaliy ahamiyati ilmiy manbalar va bevosita Husayniy she'riyati tahlili asosida ochib berildi.

– Ijodkorning adabiy merosi amaliy ahamiyati va yaratilishi tarixi jihatdan yoritildi. Husayniy ijodi va shaxsiyatining o'rganilishiga alohida e'tibor berildi.

– Husayniy she'riyatining badiiy xususiyatlari, xususan vazn qo'llashdagi o'ziga xos maqsad, xilma-xil badiiy san'atlar, qofiyaning murakkab ko'rinishlari va timsollar yaratishdagi shoir iste'dodi tahlillar asosida o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot jarayonida imkon qadar mavzuning o'rganilmagan jihatlariga e'tibor qaratildi. Mavjud tadqiqotlar va ilmiy ishlar tajribasidan foydalanilgan holda, Husayniy ijodi xususan she'riyati yangicha ilmiy izlanishlar asosida tahlil etildi. Mavjud tajribalardan, xususan Navoiy asarlaridan unumli foydalanildi. Tadqiqot ishida quyidagi jihatlar yoritildi:

– tadqiqotda Husayniyning adabiy iste'dodi Amir Temur bilan bog'lashga harakat qilindi;

– Husayniy she'riyatining vazn tuzilishi va vazndagi xilma-xillik turli qarashlar va tahlil asosida aniqlandi;

– Husayniy devonidagi janr xususiyatlari aniqlanib qaytadan tasnif berilgan;

– Husayniyning devon tuzush borasidagi o'ziga xos uslubi atroflicha yoritilgan;

– Husayn Boyqaroning adabiyotshunos sifatidagi faoliyatiga alohida urg'u berilgan;

– ushbu tadqiqotdailk marotaba hamd va na't gazallar tahlili amalga oshirilib, Husayn Boyqaroning e'tiqod masalasidagi qarashlari kiritilgan;

– dissertatsiyada asosan , Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida tahlil etilmagan g'azallar, tadqiqot doirasiga tortildi;

– matn bilan bog'liq ayrim xatoliklarga bildirildi;

– Husayniy ijodi ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy jihatdan xolis baholanib, mavjud eskicha qarashlar, nuqtai nazarlar rad etildi.

Ishning ilmiy nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarida bakalavriatning filologiya (o‘zbek tili va adabiyoti) yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”, “O‘zbek she’riyati poetikasi” fanlaridan ta’lim berishd, shu fanlardan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalaryaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalari shu yo‘nalishda kelajakda bajariladigan ilmiy izlanishlar uchunmanba vazifasini ham o‘taydi.

Tadqiqotning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, har biri ikki fasldan iborat bo‘lgan uchta asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 88 sahifani tashkil etadi.

I BOB. Husayniy ijodiy faoliyati va uning o`rganilishi

1-fasl. Husayniyning adabiy merosi

Ilm–u fanning homiylari, ma`rifat bulog`idan bahramand bo`lgan Sohibqiron Amir Temur va temuriyzodalar o`zlarining sa'y–harakatlari, tashabbuskorliklari–yu, homiyliklari, aql-u zakovatlari, o`ziga xos iste`dodlari natijasida jahon ilm–fani va madaniyatiga sezilarli hissa qo`sha oldilar. Temuriylar davrida, xususan turkiy til va bu tildagi badiiy ijodning mavqei oshadi. “Amir Temur faoliyatini, xususan uning boy shaxsiyatini badiiy adabiyotsiz tasavvur etish mumkin emas. Amir Temurning davlar siyosati tufayli turkiy tilda ham badiiy adabiyot keng rivojlana boshladi”¹⁹. Ana shunday temuriyzodalardan biri, shubhasiz Abulg`ozi Sulton Husayn Bahodirxon bo`lib, tarixda bu zot Husayn Boyqaro nomi bilan shuhrat topgan. Sulton Husayn Boyqaro 1469-1506- yillar oralig`ida Xurosonda hukmronlik qiladi. Bu davrada madaniy, adabiy, ilmiy markaz sifatida Hirotning mavqei oshadi. Garchi ko`pchilik bunda Navoiyning xizmatlari katta bo`lgan, deya e`tirof etishsa–da, nazarimizda, Navoiyning o`zini ham Hirotga chaqirib olgan, unga til va so`z erkinligini bergan, moddiy jihatdan katta sharoitlar yaratib bergan Husayn Boyqaroning xizmatlari cheksiz ekanligi ayon bo`ladi. U kishi nafaqat yirik siyosatchi, davlat arbobi va ma`rifat, san`at homiysi, balki Navoiy tab`iri bilan aytganda “...ham forsiy demakka qodir va ham turkcha aytmoqqa mohir shoir” hamdir. Ijod gulshanida o`z ismini taxallus qilib olgan (Husayniy) va taxallusiga munosib ijod bo`stonida “gul–u chechaklar o`stirgan” shoir sifatida Sulton Husayn Boyqaro o`z zamonidayoq adabiyot ixlosmandlari e`tiboriga sazovor bo`ladi. Adabiy taxallus hisoblanmish “Husayniy” so`zi “hasan” (go`zal) so`zidan tuzilgan bo`lib, “go`zalgina” ma`nosini anglatar ekan”²⁰. Husayn Boyqaro temuriylarning so`nggi yirik hukmdori bo`lib, qariyb 40 yil hukmronlik qiladi, bu davrda shahzoda va amirlarning bosh–boshdoqligiga qaramay, mamlakatning xo`jalik va madaniy hayoti yuksaldi. Alisher Navoiy va Boburlarning bergan

¹⁹Амир Темур жаҳон тарихида.-Тошкент: “Шарк”, 1996 йил.171-бет.

²⁰Валихўжаев Б. Султон Хусайн Бойқаро - Хусайний шеърляти.- Самарқанд, 2000 йил. 26-бет.

ma'lumotlariga ko'ra Husayniy turkiy devon tartib berdi. Ushbu devon bizga qadar yetib kelgan bo'lib o'z davrida sazovor bo'lgan ta'rif va tahsinlarga nechog'liq munosib ekanligini aniqlash imkonini bermogda. Bundan tashqari Husayniy qalamiga mansub "Risola" nomli nasriy asar ham mavjud bo'lib, shoirning devonini tahlil qilishdan oldin ushbu asarni qisqacha bo'lsa-da o'rganish maqsadga muvofiqdir. Zero, "Risola"da keltirilgan ijtimoiy, madaniy va adabiy fikrlar bevosita o'sha davr adabiy va madaniy hayotini o'rganishda, qolaversa, Husayniyning nazmiy e'timodini anglashda muhim va dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Sharq she'riyati tarixiga nazar tashlasak, yirik adabiyot namoyondalari ijod bilan birga adabiyotning nazariy ilmlarini ham omuxta egallashganlariga guvoh bo'lamiz. She'rga nisbatan talabchan va tanqidiy munosabatda bo'la ololgan, she'r ilmidan xabardor bo'libgina qolmasdan, undan unumli foydalanganlarga xalq tomonidan tan olingan. Zero, bu davrda adabiyotshunoslik mustaqil fan hisoblanmagan, balki badiiy majlislarda ijodkorlar doirasida shakllanayotgan ilmiy munozara va mushohadalar shaklidagina mavjud bo'lgan. Adabiyotshunoslikka oid dastlabki asarlar yaratila boshlagan bir davrda ham olimlik va adiblik butkul ajralmagan. Bu davrdan ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Olim-shoirlar. Ahmad Taroziy.
2. Shoir-olimlar. Komil Xorazmiy, S. Saroyi.
3. Ham shoir, ham olimlar. Alisher Navoiy, Z. M. Bobur.

Biz Sulton Husayn faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, istedodli shoir bo'lish bilan birga adabiyot ilmining muhir bilimdoni ekanligiga guvoh bo'lamiz. "Risolai Husayn Boyqaro" asarida Husayn Boyqaro shaxsiga xos bo'lgan shohlik, davlat arbobi, siyosatchi, jonkuyar ma'rifat va san'at homiysi, shoirlik kabi sifatlar bilan bir qatorda adabiyot ilmiga doir qarashlariga ham guvoh bo'lish mumkin. Garchi asar sof ma'nodagi adabiyotshunoslikka bag'ishlangan bo'lmasa-da, ayrim fikrlar e'tirof va mushohadalar har qanday adabiyotshunos diqqat e'tiborini tortmay qo'ymaydi.

"Risolai Husayn Boyqaro"dagi she'riy satrlar uning shoirlik mahoratidan darak

bersa, asardagi “. . . bu nahif bandasining saltanati zamonida bir necha kishiga jilvai zuhur beribturur va bu faqir majlisida alardin tashrifi huzur arzoniy tutubturlar...”²¹ kabi jumllarida Husayniy o`z saroyida adabiy majlislarga nechog`lik e`tabor berganligi, majlisga kelishuvchilarning ham nufuzi yuqori ekanligi, bu jarayon chinakam fikr, adabiyot, umuman so`z shaydosi bo`lgan, “tab`i nazm” sohibi bo`lgan Husayn Boyqaroga nechog`lik huzur bag`ishlaganidan darak beradi.

Husayn Boyqaro Abdurahmon Jomiy, Suhayliy, Alisher Navoiylarning ijodlariga yuksak baho berish jarayonida adabiyotning nozik inja sirlaridan xabardor ekanligini olim va tanqidchi ekanligini namoyon etgan. E`tiborlisi, “...Hirotda ... mingga yaqin kishining ishi ma`no durlarini nazm tizmasiga tortish, noziklik gavharlariga vazn libosi zebu ziynatini berishdir”²², deya shoirlar va shoirlikka ta`rif berar ekanlar, “... hech davrda bulardek elning mingdan o`nini va hech bo`lmagandan yuzdan birini tashkil etgan emas”<sup>23</sup>, deya iftixor va mamnuniyat tuyg`ularini izhor etadilar. Darhaqiqat, bu davrda Xuroson hududida shoirlarning boshqa davrlarga nisbatan ko`payishi, adabiy markazga aylanishida davlatda yaratilgan sharoit, homiylik va qadr-qimmat sabab bo`ldi. Albatta, bunda saltanat hukumdori Husayn Boyqaroning va qalam ila dunyo xalqlarini yakqalam etgan Alisher Navoiyning xizmatlari diqqatga sazovordir.

“Risola”da Abdurahmon Jomiy, Suhayliyiy, Alisher Navoiyning iste`dodi, mahorati va asarlarining umumiy ta`rifiga alohida to`xtalib o`tadi. Bundan Husayniy majlislarining gultojlari aynan ular ekanligi ayon bo`ladi, nazarimizda. “Ularning ichida eng bilimli va fazilatlisi, fazilatlar daryosining pok duri va valiylik falagining porloq quyoshi nazm javohirining sohib intizomi hazrati shayxul-islomiy Mavlani Abdurahmon Jomiydir”<sup>24</sup>, deya ta`rif berar ekan, shoirning ham nazm, ham nasrda ijod etishiga turli fanlardan asarlari ko`pligiga, ular nafaqat son jihatdan, salmoq jihatdan ham boy ekanligiga (“ma`nolar

²¹Хусайн Бойқаро. Рисола. Девон. -Тошкент: “Шарқ”, 1995 йил. 11-бет.

²²O`sha asar. 21-bet.

²³O`sha asar. 21- bet.

²⁴O`sha asar. 20-бет.

xazinasini”) alohida urgʻu beradi va quyidagi sheʼr orqali Jomiy ijodining guldastasi boʻlmish “Haft avrang”ga ishora etadi:

Chu mizoni tabʼi boʻlib ganjsanj,

Anga bir tarozu kelib “Panj ganj”

Ki, hayron qolib nazm qilgan chogʻi,

Anga yoʻqki Xisrav, Nizomiy togʻi²⁵.

Bizga maʼlumki, Nizomiy Ganjaviy “Panj ganj” asarini yaratgach, ushbu asar keyingi salaflar uchun oʻziga xos isteʼdod oʻlchovchi, sinov mezonga aylandi. Bu anʼana esa Xusrav Dehlaviydan boshlandi. Biroq Jomiyning tabʼi mezoni shu qadar yuqoriki, u nazm qilgan chogʻida Xisrav, Nizomiy qoʻygan chegara (togʻ) yoʻqqa chiqdi, bekor boʻldi, yaʼni u anʼana boʻyicha beshta emas, yettita dostonni jamlab sabʼanavislikka asos soldi. Jomiy asarining nomi yoxud dostonlari Husayn Boyqaro tomonidan tilga olinmagan. Bunga sabab turkiy til homiysi sifatida “Haft avrang” (forsiyda yozilgan)ni taʼkidlab oʻtish joiz topilmagan boʻlishi mumkin. Biroq ijodkor sifatida Jomiy isteʼdodiga yuksak bahoni bu oʻrinda keltirishni maʼqul deb biladi: “...Gʻazallari olamgʻa gʻavgʻo soluvchi baytlari latif va hayajon uygʻotuvchidir”²⁶.

Husayn Boyqaro Suhayliiy ijodiga ham qisqa boʻlsa-da, taʼrif berib oʻtadilar. Unga koʻra, “yana nazm ahli— shoirlardan shirin soʻzlik osmonining porloq yulduzi —Suhayliy boʻlgudek kishilar bor va latofatli nazmdagi dostoni bayoni (zoʻrligida) olam edi ularning (Jomiyning) orqasidan ergashuvchi sifatida mavjuddirki, avval ulardek (Jomiydek) falak goʻzallik bergan emas, hozir yana hech yerda biror kishi ulardek oʻzlarini koʻrsatmagan”²⁷. Suhayliy ijodiga nisbatan berilgan ushbu taʼrif orqali uning Jomiyga shogirdligi, nazmda shirin soʻzligi bilan birga ijodda dastavval bunchalik muvoffaqiyat qozonmaganligi, oʻz ustida ishlashi, mehnati va oʻzini koʻrsata bilishi natijasi oʻlaroq keyingi davrlarda u kabi faol shoir

²⁵ Хусайн Бойқаро. Рисола. Девон. -Тошкент: “Шарк”, 1995 йил. 20 –bet.

²⁶ Oʻsha asar. 20–bet.

²⁷ Oʻsha asar. 20–bet.

bo'lmagani ayon bo'ladi. Bu bilan Husayn Boyqaro har bir shoir faoliyatidagi o'sish yoki o'zgarishini muntazam kuzatib borganidan dalolat beradi.

Ona tiliga nisbatan jonkuyarlik masalasi ham, avval ta'kidlaganimizdek Husayn Boyaroning tab'iga xos vijdoniy holat bo'lib, boshqa shoirlardan farqli o'laroq "... ma'nolarning bokira tasnifiga... turkona libos kiydir"²⁸gan Alisher Navoiy ijodiga hukmdor, do'st, maslakdosh sifatida emas, balki chin muxlis, adabiyot shinavandasi, adabiyot bilimdoni sifatida baho beradi. Shu bois bo'lsa kerak, ayrim o'rinlarda hissiyotga berilish hayajonni yashirmaslik holatlari yaqqol namoyon bo'ladi: "... Har qanday she'r maydoniga ot sursa, o'sha mamlakatni tili, tig'i, kuchi bilan ixtiyoridagi mamlakatlarga kirgizdi. Uning nazmi vasfida til nuqsonli va ta'rif berish qiyin ish"²⁹.

Husayniy ijodkor sifatida she'riy devoni bilan o'z davridayoq mashhur bo'lgan. Bu bir tomondan Husayniy istedodi she'riyatining serjiloligidan dalolat bersa, boshqa tomondan Husayniy she'rlari to'plami bo'lgan devon uning hayotligi chog'idayoq mashhur xattotlar, jumladan, Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Handonlar tomonidan nihoyatda go'zal tarzda ko'chirilgan va xalq orasida tarqalganligi bilan baholanadi. Birgina Sulton Ali Mashhadiy tomonlaridan 1485-yil (hijriy 890-yil), 1491-1492-yillar (hijriy 897-yil) va 1494-1495-yillar(hijriy 900-yil)da devonning uchta qo'lyozma nusxalari ko'chiriladi. Ushbu nusxalari hajman bir-biridan farq qilib, bizgacha barchasi yetib kelgan. Ular hozirda Fransiya, Turkiya kutubxonalarida saqlanadi. 1494-95-yillarda Sulton Muhammad Handon tomonidan yana bir nusxa ko'chirilgan bo'lib, ushbu nusxa ham hozirda Turkiyada saqlanadi. Husayniyning adabiy merosi, xususan turkiy devoni keyingi davrlarda ham adabiyot ixlosmandlari tomonidan e'tiborsiz qolmadi. Adabiy manbalarda ko'rsatilishicha, keyingi davrlarda ko'chirilgan nusxalarning hozircha yettitasi ma'lum bo'lib, ular Angliya, Turkiya, Rossiya, Fransiya va boshqa mamlakatlar kutubxonalarida saqlanmoqda, XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning avvallarida Eron hukmdori Shoh Husayn

²⁸ Хусайн Бойқаро. Рисола. Девон. -Тошкент: "Шарк", 1995 йил 21–bet.

²⁹ O'sha asar. 21–bet.

Safaviyning buyrug'i bilan ko'chirilgan nusxa turkiy devonning mazmuniy tarjimasi bo'lib, "...Sulton Husayn Boyqaroning devoni she'rlari faqat turkiygo'ylar orasida keng tarqalib qolmay balki, forsigo'ylar ham unga tarjima qildirib mutolaa qilgan..."³⁰liklari ma'lum bo'ladi. Ushbu adabiy nusxa hozirda Angliyadagi Britaniya muzeyida saqlanadi. XX asrga kelib Husayniy devoni nashr etila boshlandi. Dastlab 1926-yilda Bokuda nashr etiladi. O'zimizda 1927-yili A. Fitrat "O'zbek adabiyoti namunalari"ga Husayniy she'rlaridan kiritadi. 1941-yilda esa "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi" 1-tomida Husayniy devonidan bir qismi nashr etildi. 1946-yilda Turkiyada ham devon nashri amalga oshirilgan. 1968-yilda Toshkentda S. G'aniyeva tahriri ostida "Devon. Risola" nomi ostida nashr etilgan. O'sha yili Qobulda devonning nisbatan mukammal nusxasi Muhammad Ya'qub Juzjoni tomonidan nashrga tayyorlangan edi. Mustaqillik qo'lga kiritilgach, 1991-, 1993- va 1995-yillarda A. Erkinov tahriri ostida "Shoh va shoir" turkumida Husayn Boyqaro risolasi va devoni nashr etildi. Nashr anchayin mukammal va sifatli bo'lib, keyingi tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan qo'lyozma nusxa va nashrlar (adabiy) hajman va ayrim juz'iy xususiyatlari jihatdan farqlanadi. Sulton Ali Mashhadiy tomonidan 1491-92-yillarda ko'chirilgan qo'lyozma nusxadan 156 g'azal joy olgan. Hattotning 1494-95-yillarda ko'chirilgan devon nusxasi esa 135 g'azalni o'z ichiga olgan. Sulton Muhammad Handon tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma nusxada garchi g'azallar soni jihatdan kamroq, ya'ni 72 tani tashkil etgan bo'lsa-da, bir muxammas va uch ruboiyning kiritilganligi qo'lyozma nusxaning qiymatini oshiradi. Husayniy devonining qo'lyozma nusxalaridagi hajman xilma-xillikni akademik B. Valixojayev quyidagicha izohlaydi: "Ehtimolki, Husayn Boyqaro har bir devoni ko'chirilganidan keyin yozgan yangi g'azallarini qo'shgan holda devonlarini qayta-qayta ko'chirtirgan bo'lishi ham mumkin"³¹. Ushbu fikrga qo'shilgan holda yana shuni ta'kidlash joizki, Husayn Boyqaro hukmdor sifatida

³⁰Валихўжаев Б. Султон Хусайн Бойқаро - Хусайний шеърляти.- Самарқанд, 2000 йил. 29-бет.

³¹O'sha asar. 28-bet.

devonlarining alohida tartibiga e'tibor bermagan bo'lishi ham mumkin. XX asrda o'zimizda nashr etilgan Oybek va P. Shamsiyevlar tahriri ostidagi "O'zbek adabiyoti tarixi xristomatiyasi" birinchi tomiga Husayniy ijodiga mansub 102 ta g'azal, 3 ta muxammas kiritilgan. 1968-yildagiga nisbatan to'liq nashrdan esa 129 ta g'azal, 3 muxammas, 6 ta to'rtlik joy olgan. O'sha yili Qobulda Muhammad Ya'qub Juzjoni tomonidan amalga oshirilgan nashrga 202 ta g'azal ikkita tugallanmagan g'azal, 2 ta muxammas, 6 ta ruboiy, 6 ta fard, 2 ta forsiy tildagi g'azal, 1 ta ruboiy, Abdurahmon Jomiy baytlariga javoban yozilga 3 bayt kiritilgan. Ushbu ikki nashr tarkibidagi g'azallarning ayrim baytlarida o'zaro mos tushmaslik holati ham ko'zga tashlanadi. A. Erkinov tahriri ostidagi nashrlarda ushbu nomutanosibliklar o'zaro chog'ishtiruv natijasida to'g'rilangan. Unda 202 ta g'azal mavjud, biroq boshqa janrlarga oid she'rlar kiritilmagan. Bu o'rinda Husayniy ijodining asosini g'azallar tashkil etishi va devon tuzishda ham g'azal janri yetakchi mavqega ega ekanligini hisobga olingan bo'lishi kerak. Ushbu so'nggi nashrdan o'rin olgan 202 ta g'azalning aksariyati, ya'ni 135 tasi yetti baytdan iborat. Bundan tashqari, besh baytli g'azallar 47 tani, olti baytli g'azallar 9 tani, sakkiz va o'n baytli g'azallar 1 tadan, to'qqiz baytli g'azallar 9 tani tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, Husayniy ijodida 5 va 7 baytli g'azallar son jihatdan ko'p bo'lib o'n baytli g'azal atiga bittani tashkil etmoqda. Zero, bizga ma'lumki, g'azallardagi baytlar soni har qaysi shoirning badiiy salohiyati va ijodiy uslubi bilan bog'liqdir. Husayniy ijodida nisbatan yetti baytli g'azallarning ko'pligi bir tomondan turkiygo'y shoirning uslubidan dalolat bersa, boshqa tomondan bu holat she'riyatda an'ana ham edi. Xususan, Alisher Navoiy ijodida ham yetti baytli g'azallar ko'pchilikni tashkil etgan. Shoir quyidagi misralar yetti baytli g'azallari xususida shunday deydi:

Bukim albatta yetti baytdan o'ksuk emas, ya'ni

Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin³².

³²Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадийат луғати. -Тошкент: "Янги аср авлоди", 2008 йил.175-бет.

Husayniy devoni yuqorida ta'kidlanganidek turkiy tilda yozilgan. Asosiy janri g`azal. Navoiy o`z devonlarida debochalar yaratib, buni an`ana darajasiga ko`targan edi. Biroq Husayniy devoni bundan farqli o`laroq, debocha bilan boshlanmaydi. Devon an`anaga muvofiq hamd (1-2-g`azallar) va na`t (3-g`azal) bilan boshlanadi. Ushbu g`azallar oldingi nashrlarda tushurib qoldirilgan. Qolgan g`azallar esa asosan oshiqona ruhda, oshiqning ma`shuqa hajridagi cheksiz dard-u, alami, yor jafosi-yu, ag`yor balosi kabi mavzulardadir. Ma`lumki, devonlarda badiiy lirik janrlar ma`lum tartibda joylashtirilgan. Odatda, devonlar g`azaliyot bilan boshlanib matla'larning oxirgi harflariga ko`ra arab alifbosi asosida terib chiqilgan. Husayniy devoni ham bunday tartibdan mustasno emas. Alisher Navoiyning "G`aroyib us-sig`ar"ga yozgan debochasida, devonnig mukammal bo`lishida 28 ta emas, 32 ta harf asosida tuzish kerakligi ta'kidlab o`tiladi. Husayniy o`z devonini tuzishda 32 harf tartibiga alohida e`tibor bermagan, zero Husayn Boyqaro iste'dodli shoir bolsa-da, aslida shoh edi. Uning uchun devon tuzish asosiy maqsad bo`lmagan. Buni quyidagi jadvalda ham ko`rish mumkin:

1.	Alif	11 ta g`azal	(1-11)
2.	Be	7 ta g`azal	(12-18)
3.	Te	7 ta g`azal	(19-25)
4.	Se	1 ta g`azal	(26)
5.	Jim	1 ta g`azal	(27)
6.	Chim	1 ta g`azal	(28)
7.	He	1 ta g`azal	(29)
8.	Xe	1 ta g`azal	(30)
9.	Dol	1 ta g`azal	(31)
10.	Zol	1 ta g`azal	(32)
11.	Re	16 ta g`azal	(33-49)
12.	Ze	7 ta g`azal	(50-56)

13.	Sin	8 ta g`azal	(57-62)
14.	Shin	1 ta g`azal	(63)
15.	Sod	1 ta g`azal	(64)
16.	Zod	1 ta g`azal	(65)
17.	To	1 ta g`azal	(66)
18.	Zo	2 ta g`azal	(67-68)
19.	Ayn	1 ta g`azal	(69)
20.	G`ayn	1 ta g`azal	(70)
21.	Fe	2 ta g`azal	(71-72)
22.	Qof	6 ta g`azal	(73-78)
23.	Kof	11 ta g`azal	(79-90)
24.	Lom	10 ta g`azal	(91-100)
25.	Mim	12 ta g`azal	(101-112)
26.	Nun	30 ta g`azal	(113-142)
27.	Vov	2 ta g`azal	(143-144)
28.	Xe	27 ta g`azal	(145-171)
29.	Yoy	31 ta g`azal	(172-202)

1995-yilda Toshkentda A. Erkinov tomonidan nashr etilgan devonda g`azallar yuqoridagi tartibda joylashtirilgan. Ko`rinib turibdiki, bu tartibda 29 ta harfda g`azallar mavjud. Garchi an'anaviy tartibdan bitta ko`p ("chim" harfi) bo`lsa-da, Navoiy talablariga javob bermaydi. Biroq biz bu o`rinda qolgan uch harf bilan tugallanuvchi g`azallar Husayniy tomonidan yozilmagan yoxud keltirilmagan deyishdan yiroqmiz. Balki, bizda mavjud nashrlar uchun asos bo`lgan qo`lyozma nusxalardan kotibning xatosi yoki boshqa sabablarga ko`ra tushib qolgan bo`lishi ham ehtimoldan yiroq emas. 1968-yilda Kobulda chop etilgan devon nashrida tugallanmagan ikkita g`azal mavjudligi haqida

xabardormiz. Ushbu nashr bilan tanishish balki muammoning yechimiga yordam berar. Husayn Boyqaro devonga gʻazaldan tashqari muxammas, ruboiy, fard kabi janrlarga oid ijod mahsullarini ham kiritadi. Avval taʼkidlaganimizdek, eng soʻnggi nashrda gʻazaldan boshqa janrlar kiritilmagan. 1968-yilda Toshkentda amalga oshirilgan nashrda esa uchta muxammas, oltita toʻrtlik joy olgan. Muxammaslarning har uchasi Husayniyning Navoiy gʻazallariga bitgan muxammaslaridir. “Muxammas arabcha “beshlik” maʼnosini bildirib, sheʼriyatda har bandi besh misradan tashkil topgan lirik sheʼr shaklini bildiradi”³³. Husayniy muxammaslari tazmin muxammasdir. Birinchi muxammas Navoiyning “Netay” radifli gʻazaliga bogʻlangan tazmin muxammas boʻlib, shoir dastlabki uch misrani, oʻzidan keyingi ikki misrani gʻazalidan keltiradi. Muxammas bandlari Navoiy gʻazaliga monand ravishda yetti banddan iborat. Husayniy keyingi ikki muxammasda ham shu tartibni saqlab qoladi.

Toʻrtlik nomi bilan keltirilgan oltita sheʼr vazn jihatdan tekshirilganda aslida bu toʻrtliklar ruboiy, tuyuq ekanligiga guvoh boʻlamiz. Biz bu masalaga keyingi boblarda alohida toʻxtalib oʻtamiz.

Husayniy devonida fard baytlar ham mavjudligi maʼlum. Biroq ulardan foydalanish imkoniyati mavjud emasligi sabab fikr bildiray olmaymiz. Bundan tashqari, Husayniy devonining Kobul nashridan kelib chiqib, nafaqat turkiygoʻy shoir sifatida ijod qilgan, balki isteʼdodli zullisonayn ham ekanligiga guvoh boʻlamiz. Husayn Boyqarodan bizga badiiy va adabiy meros sifatida “Risola” va “Devon” qolgan boʻlsa-da, ularning qiymatini buni asrlar davomida xalq eʼtibori va eʼtirofidan tushmay kelayotganligidan ham bilish mumkin. Husayniy ijodi nafaqat Navoiy davriga toʻgʻri kelganligi-yu, badiiy pishiqligi bilan, balki turli muhokama va munozaralarga sabab boʻlganligi bilan ham qiziqdir. Shu bois, Husayniy ijodini mukammal oʻrganish, fikr bildirish va eng asosiysi, Husayn Boyqaro aslida kim emas, qanday ijodkor degan savolga javob topish va uni baralla ayta olish ishimizning maqsadlaridan biridir.

³³Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят луғати. -Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008 йил. 74-бет.

2-fasl. Husayniy ijodining o`rganilishi

Husayn Boyqaroning hayoti va ijodiy faoliyati bilan qiziqish, o`rganish, tadqiqotning o`ziga xos ko`rinishlarini yaratish uning hayotligi chog`idayoq boshlangan edi. Bu o`rinda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning asarlarida tilga olingan fikrlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy, Abdurazzoq Samarqandiy, G`iyosiddin Xondamir, Mirzo Muhammad Haydar, Zayniddin Vosifiy, Sayyid Sharif Roqim Samarqandiy va boshqalarning asarlarida Husayniy hayoti, shaxsiyati, ijodi xususida bir-birini to`ldiruvchi, bir-biriga yaqin, shu bilan birga bir-birida uchramaydigan ma`lumotlar keltiriladi.

Husayniy ijodiga bog`liq dastlabki yirik tadqiqot Alisher Navoiy tomonidan yaratiladi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarining sakkizinchi majlisida Husayniy devonining o`ziga xos tadqiqini amalga oshiradi. Navoiy sakkizinchi majlisning sarlavhasida quydagicha ta`rifni keltiradi: “Sulton Sohibqironning latif tab`i natoyijining zebolari, husn va jamoli zikrida va sharif zehni xasoisining ra`nolari ganj va daloli sharhidakim, har qaysi zamon safhasi bo`stonida ranginlig` va ravonlig`din gul`uzoredur sarvqat va har birisi davron arsasi gulistonida ravonlig` va ranglikdin sarvi ozodedur, gulxad”³⁴. Navoiy Husayniyning she`rlarini go`zal iste`dodning go`zal natijalari deb baholaydi. Har bir g`azalga berilgan ta`rifni “sharh”, deya ataydi. G`azallarning qiymatini esa nihoyatda yuqori baholaydi, xususan barcha zamonlar she`riyat gulzorida rang-barangligi va ravshanligi jihatidan gulrangdir, ya`ni betakrordir, davr maydonida tik sarvdir, gul yanoq, gul chehradir. Husayniy ijodiga berilgan ushbu shoirona yuksak bahoning o`ziyoq shoir iste`dodidan dalolat beradi. Navoiy Husayniy she`riyatida oshiqona g`azallar yetakchi ekaniga ishora tariqasida shunday yozadi: “... har oshiqona matla` bila dard ahli jonig`a shu`lai fano yoqilg`ay va har dardmandona bayt bila ishq ahli ko`nlig`a barqi balo chaqilg`ay”³⁵.

³⁴Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ.13-том.-Тошкент: “Фан”, 1997 йил.173-бет.

³⁵O`sha asar. 174-bet

Husayniyning she'rlari o'z davridayoq mashhur bo'lgan, xalq orasida yoyilgan. Bu borada ham Navoiy shunday deydi: “ Ul hazrat xub ash'ori va devon ham murattab bo'lubtur”³⁶. Navoiy alifbo tartibida 28 harfga oid g'azallar matla'sini keltiradi. Biroq son va tartib jihatdan Navoiy keltirgan misollar hozir bizda mavjud devon matnidan farq qiladi. Bu holat Husayniy devoni dastlabki vaqtda boshqacharoq tartibda bo'lganligidan dalolat beradi. Bizning bunday xulosaga kelishimizga Navoiyning quyidagi so'zlari turtki bo'lmoqda: “ Devon ibtidosidin bunyod qilildi va har g'azaldin bir matla yozildi”³⁷. Ya'ni bu o'rinda Navoiy “Majolis un – nafois”dagi g'azal namunalari devon ibtidosidan har bir g'azal matla'sidan keltirganini aytmoqda. Navoiy Husayniy g'azallari matla'larining dastlab g'oyaviy mazmunini umumiy tarzda bayon etar ekan, shundan so'ng baytni keltiradi. Misol uchun:

“Alif harf

Manzurning xo'yining bul'ajablig'idakim, mehrida oshiq jon bersa, bovar qilmaslig'ining besabablig'ida:

Ne ajoyib xo'y erur, ey sho'xi siyminbar sanga-

Kim, necha mehringda jon bersam emas bovar sanga”.³⁸

Navoiy shunchaki g'azal matla'larini ta'riflab ketish bilan chegaralanib qolmasdan badiiy xususiyatlariga, shoir iste'dodining betakror qirralari va “ixtiro” lari haqida ham ilmiy nuqtai nazardan munosabat bildirib o'tadi. Xususan, “se” harfiga matla' keltirar ekan, “Bu harfda turk shuarosining malik ul-kalomlari she'r aytmaydilar balki ayta olmaydurlar...”³⁹, der ekan, ushbu holatning o'ziyoq Husayniy “ tab'i”ning kuchidan dalolat berishiga ishora etadi. Yoxud “Ayn” harfi bilan tugallanuvchi g'azal matla'sini sharhlar ekan, baytda qo'llanilgan qofiya va radif “hazrat Sulton Sohibqironning ixtiroi” deya ta'riflaydi. Mana o'sha bayt:

Ohkim, hijron o'tidin kuydi jonim o'zga nav',

³⁶ Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ.13-том.-Тошкент: “Фан”, 1997 йил. 174-бет.

³⁷ O'sha asar. 174-bet.

³⁸ O'sha asar. 174-bet.

³⁹ O'sha asar. 177-bet

O`rtadi ofoqin o`tluq fig`onim o`zga nav⁴⁰.

Garchi Navoiy “Majolis un-nafois”da g`azal matla’larini keltirayotganini ta’kidlab o`tgan bo`lsa-da, ayrim baytlar g`azalning aynan matlasi emas, balki ichidan olinganligiga guvoh bo`lamiz. Misol uchun:

Chun bu davlat bo`lg`udek bo`ldi muyassar voy kim ,

Lihhatim ul lahza tole’ za’fidin topti gazand⁴¹.

“Majolis un-nafois”dagi so`nggi bayt ham matla bo`lmasdan, “Bukun “ radifli g`azalning oltinchi baytidir:

Kim gadoing bo`lsa alamdin kechib, ey dilrabo ,

Faqir ahli ichra ul sultoni olamdir bukun⁴².

Navoiy “Majolis un-nafois”ning so`nggida “Xilvat” bobini keltiradi. Bizga ma’lumki, Husayn Bayqaro o`z saroyida nazm ahli uchun majlislar tashkil etadi. Navoiy bu majlislarni “Oliy majlis” deb ataydi. Ushbu majlislarda shoirlar g`azallaridan baytlar o`qilib , zamon shoirlari tomonidan tahlil etilgan. Husayn Bayqaro shoir, adabiyotsunos sifatida o`z tanqidiy munosbatlarini bildirgan. Hattoki, Xusrav Dehlaviydek buyuk shoir ijodiga xos mantiqiy kamchiliklarni to`g`ri baholaydi, zamonning yosh ijodkorlariga nisbatan esa shafqatliklik bilan munosabatda bo`ladi. Shu munosabat bilan Navoiy Husayn Bayqaro bilan bog`liq ikki voqeani keltiradi. Uning shoh bo`la turib nazmdagi bilimdonligidan hayratlanadi , tahsinlar o`qiydi.

Bu o`rinda Husayn Bayqaroning Amir Husrav Dehlaviy g`azaliga e’tiroz sifatida bitilgan quyidagi baytini keltiradiki, bayt Husayniy devoni matnida mavjud emas:

Za’fdin kulbamda qo`pmoq istasam aylar madad ,

Ankabuti rishta osqon bo`lsa har devorg`a⁴³.

⁴⁰ Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ.13-том. -Тошкент: “Фан”, 1997 йил. 174-бет.

⁴¹ O`sha asar. 178-bet.

⁴² O`sha asar. 206 -bet.

Olim H. Ne'matovning aniqlashicha ushbu bayt Navoiyning ilk devonidagi g'azallaridan birining tarkibida mavjud. Faqat "Majolis un-nafois"dagi "devorg'a" so'zi devonda "devorda" tarzida yozilgan. Bundan ko'rinadiki, Navoiyga ushbu bayt nihoyatda maqbul tushgan va o'z g'azallaridan birida qo'llagan. Bunday holat Mirzabek ismli shoirning matla'sidan foydalanganda ham ko'zga tashlanadi. Biroq Navoiy nafaqat o'z ijodiga, balki o'zgalar ijodiga ham kuchli hurmat nuqtai nazari bilan yondashish, haqqoniy tarzda har ikki holatni "Majolis un-nafois"da bayon etib ketadi.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari Husayniy ijodini tadqiq etish nuqtai nazaridan dastlabki yirik ilmiy ish sifatida bir tomondan Husayniy devonidagi yetakchi janr bo'lgan g'azallar badiiyati mahorat bilan ochib berilganligi bilan, boshqa tomondan, Husayniy "tab'i"ga xos topqirlik, she'r ilmlaridan xabardorlik, talabchanlik shu bilan birga, bag'rikenglik jihatlari to'la namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida Husayniy ijodini vazn nuqtai nazaridan o'rganadi, fikr bildiradi. Husayniy she'riyatida vazn masalasi bilan bog'liq bugunga qadr davom etib kelayotgan muammoli holatni hal etishda Navoiyning fikrlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiydan keyingi davrlarda ham Husayniy ijodi o'rganilishda davom etdi. Garchi bu alohida yaxlit tadqiqot sifatida ko'zga tashlanmasa-da, Husayniy she'riyatiga bo'lgan hurmat va qiziqish pasaymadi. Zahiriddin Muhammad Bobur ham "Boburnoma" va "Muxtasar" asarlarida Husayn Bayqaro ijodiga oid ayrim ma'lumotlarni keltiradi. Shoir sifatida Husayniyning yutuq va kamchiliklarini sanab o'tadi. Ma'rifatparvar va ilmparvar temuriyzodalardan biri bo'lgan Bobur o'zining "Boburnoma" asarida Husayn Boyqaro uning yaqinlari, hukmdorligi xususida anchayin mufassal, shu bilan birga har bir masala xususida o'zgacha nuqtai nazar bilan fikr yuritib, e'tiborga molik mulohazalarni bayon etadi. Bizga ma'lumki, Husayn Boyqaro shajara jihatdan Umar Shayx Mirzo tomonidan Amir Temurga avlod edi. Bobur esa Mironshoh tomonidan Temurga borib taqalardi.

⁴³Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ.13-том.-Тошкент: "Фан", 1997 йил. 208-бет.

Biroq Husayn Boyqaroning onasi Feruzabegim Mironshohning nabirasi bo`lib, Husayn Boyqaro va Boburning shaxsida yaqinlikdan dalolat edi. Har ikki temuriyzodada “tab’i nazm”ga muhabbat mavjud bo`lib, hukmdorlik, jasorat, bahodirlik va adolatda bir-biridan qolishmas edi. Bobur Husayn Boyqaroga kichik zamondosh edi. O`ziga xos dunyoqarash va tafakkur egasi bo`lgan Bobur ko`p hollarda o`sha davrdagi keng ko`zga ko`ringan temuriyzoda hukmdor sifatida Husayn Boyqaroni o`ziga yaqin olib ko`p narsalar kutadi. Biroq aksar chaqiriqlari javobsiz qolgach, Husayn Boyqaroga nisbatan o`zgacha kayfiyat paydo bo`ladi. Bobur ushbu holatni ”Boburnoma”da haqqoniy tarzda e`tirozga o`rin qoldirmasdan, bo`rttirmasdan, batafsil bayon etadi. Husayn Boyqaroning dastlab nasl-nasabi, shaxsiy fazilatlarini ham xolis baholaydi. Bir necha o`rinda xayrixohlik kayfiyati ham sezilib turadi. Xususan, nasl-nasabi haqida shunday yozadi: “... valodati sakkiz yuz qirq ikkida Hiriya Shohruh mirzo zamonida edi. Sulton Husayn mirzo binni Mansur binni Boyqaro binni Umar Shayx binni Amir Temur. . . Onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasi Sulton Husayn mirzo Mironshohning ham nabirasi bo`lur edi. Sulton Husayn mirzo karimut – tarafayn edi, asl podshoh edi”⁴⁴. Bobur yuqoridagi keltirgan matnda Husayn Boyqaroni “karimut – tarafayn”, ya’ni ikki tomonlama ham ota, ham ona tomonidan buyuk temuriyzoda, deya ataydi. Bu haqida akad. B. Valixojayev shunday yozadi: “Zahiriddin Muhammad Boburning Husayn Boyqaroni “asl podshohidir”, - deb yozgani bejiz emasdi. Chunki, bu gap faqat uning nasabi bilan bog`liq mulohaza bo`lib qolmay, balki amaliy faoliyatiga ham bevosita daxldor edi”⁴⁵. Darhaqiqat, Husayn Boyqaro shaxsiga daxldor asl shohlarga xos bo`lgan ko`plab fazilatlar mujassam edi. Xalq farovonligi, yurt ravnaqi bu davrda keng ma’noda Husayn Boyqaroning davlat boshqaruvidagi asl mezoniga aylandi. Fan, madaniyat, taraqqiyot, yuksalish Movorounnahrda Xurosonga ko`chdi. Mamalakat hayoti farovonlashdi. Turli nizolar, kelishmovchiliklar bartaraf etildi. Bundayin ijobiy

⁴⁴Бобур З.М. Бобурнома.-Тошкент: “Юлдузча”, 1989 йил. 146-бет.

⁴⁵Валихўжаев Б. Султон Хусайн Бойқаро - Хусайний шеърляти.- Самарқанд, 2000 йил. 14-бет.

o'zgarishlarni yuzlab keltirish mumkin. Biroq uning barcha ezgu fazilatlari oldida adolat eng yuksak maqomotga ega edi. Zahiriddin Muhamma Bobur bu haqida shunday yozadi: "... xud jami ish kuchi sunnat va jamoat mazhabi bila muvofiq edi. Bir qatla bir o'g'li bir kishini o'lturgan uchun qonliqlarig'a topshirib, dorilqozog'a yubordi, shujo' va mardona kishi erdi. Temurbek naslidan hech kim ma'lum emaskim, sulton Husayn mirzocha qilich chopmish bo'lg'ay"⁴⁶. Shijoat va mardlikda tengsiz bo'lgan Husayn Boyqaroning adolati o'z davridayoq olamga doston edi. Navoiy yuqoridagi Bobur eslatib o'tgan voqea asosida "Xamsa"ning "Hayrat ul-abror" dostonida Husayn Boyqaroni Shoh g'oziy, deya aytadi. Adolat va bahodirlikda Husayn Boyqarodan qolishmaydigan Boburning "Temurbek naslida hech kim ma'lum emaskim, Sulton Husayn Boyqarocha qilich chopmish bo'lg'ay", deya aytgan gapi bir vaqtning o'zida ham Husayn Boyqaroga, ham Bobur shaxsiga bo'lgan hurmat, ehtirom tuyg'ularini uyg'otadi.

Ba'zi o'rinlarda Bobur Husayn Boyqaroning harakatlari va amallariga xos ayrim kamchiliklarni ham bayon etib o'tadi. Biroq bu kamchilik va xatoliklar Husayn Boyqaroning ezgu amallari-yu, ijobiy fazilatlari kamoliga soya solmasligi zarur. Garchi temuriylar ichida eng yirik hukmdor sifatida yurtni yovdan saqlab qolishda sustkashlik qilgan bo'lsa-da, umrining so'nggida dushmanga qarshi kurashga bel bog'laganligi-yu umrning bevafoqligi bois bu maqsadiga erisha olmaganligining o'ziyoq Husayn Boyqaroning batamom el tinchligiga befarq bo'lmaganligidan dalolat beradi.

Bobur Sulton Husaynning "tab'i nazmi" haqida ham so'z yuritadi. Jumladan shunday yozadi: "Tab'i nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Ba'zi baytlari yomon emastur, vale mirzoning devoni tamom bir vazn biladur, bovujudkim, ham yosh va ham saltanat bila ulug' podshoh edi"⁴⁷. Boburning ushbu mulohazalaridan quyidagicha xulosalarni chiqarish mumkin bo'ladi. Husayn Boyqaro tab'i nazmi ya'ni she'r yozish qobiliyatiga ega edi, hatto she'riy devon

⁴⁶Бобур З.М. Бобурнома.-Тошкент: "Юлдузча", 1989 йил. 148-бет.

⁴⁷O'sha asar. 148-бет.

ham tartib bergan. Bobur Husayn Boyqaroni “Turkiy aytar edi” deb ta’kidlaydi. Bu fikr birinchidan Sulton Husayn she’rlarining yozilish tiliga ishora qilsa, boshqa tomondan o’ziga xos sodda, ammo ravon va samimiy uslubdan dalolat beradi. “Husayniy” taxallusi Sulton Husayn Boyqaroga ijodiy mayog’ ekanligi ta’kidlanadi. “Ba’zi baytlari yomon emasdur” degan mulohazasi o’quvchida salbiy taassurot uyg’otmasligi darkor. Zero Bobur e’tiborini tortganligidan dalolat beradi. Devonning bir vaznda ekanligi ham adabiyotshunos sifatida Boburda e’tiroz uyg’otgan. Husayn Boyqaroning o’ziga xos uslub va maqsadi masalasi Navoiy tomonidan mufassal tushuntirib berilishiga qaramay, Boburona talabchanlik Boburda ushbu mulohazalarga sabab bo’lgan bo’lishi mumkin. Husayniy ijodkor sifatida qalban yosh, hukmdor sifatida saltanatda ulug’ ekanligi Bobur talqinida o’ziga xoslik kasb etgan.

Mirxond va Xondamir qalamiga mansub bo’lgan “Ravzat us-safo” asarida Husayn Bayqaro to’g’risida so’z yuritiladi. Asar tarixiy xarakterga ega bo’lganligi bois bevosita Husayn Bayqaro ijodi bilan bog’liq ma’lumotlar deyarli uchramaydi. Biroq Husayn Bayqaro shaxsini o’rganish va shu nuqtai nazardan ijodi tahlilini amalga oshirishda ahamiyatlidir. “Ravzat us-safo” asarida keltirilgan ma’lumotlar yozilish uslubi va bayoni jihatidan Boburning “Boburnoma”sidan farqlanadi. Ko’proq Husayn Bayqaroning ijobiy xislatlar, fazilatlari haqida so’z yuritiladi. Husayn Bayqaro va Hirotidagi ilmiy, adabiy va madaniy muhitning zabardast namoyondalari haqida ma’lumotlar mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarida ham uchraydi. Xususan, Sulton Husayn Bayqaroning nasl nasabi va saltanati xususida quyidagi ma’lumotlar mavjud: “Sulton Husayn Mirzo Amir Temurning o’g’li Jahongir Mirzoning nabiralaridan biri bo’lib, Amir Temurdan keyin uning avlodidan hech kimga saltanat nasib etmagan edi. Sulton Husayn Mirzo qilichining zarbi va uzoq yillik qat’iyatli kurashi bilan o’ttiz yetti yil Hirot taxtida butun Hurosonga mustaqil podshohlik qildi. Bu fazilat egalarini, hunar, san’at ahlini tarbiyalashga shu darajada harakat qildi, zamonida har bir qavmdan bir nechta lab jahonga mashhur ulug’ arboblari yetishib chiqdiki,

bunaqalari ungacha ham undan keyin ham bo'lmagan edi"⁴⁸. Bunda iste'dodli, hunarmand yoki san'at ahlio'rtasidan yirik arboblarning yetishib chiqqanligiga alohida urg'u berilmoqda. Bu bevosita Husayn Boyqaro davrida Hirotning ilmiy – madaniy markaz sifatidagi salohiyatidan dalolat beradi.

Muhammad Haydar mirzo “Tarixi Rashidiy” asarida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy haqida ham to'xtalib o'tar ekan, shunday yozadi: “Mir Alisher bolalikdan Sulton Husayn mirzo bilan do'stlashgan. Sulton Husayn Mirzo podshoh bo'lgach, Alisher Navoiy uning xizmatiga kelgan, Mirzo uni behad qadrlab g'amxo'rliklar ko'rsatgan, Mir Alisher esa xalqqa xuddi shunday g'amxo'rlik qilgan”⁴⁹. Muhammad Haydar mirzo Husayn Bayqaro va Alisher Navoiy do'stligi haqida ma'lumotlar berar ekan, Husayn Bayqaroning behad qadrlashi-yu, g'amxo'rliklarini, Alisher Navoiyning xalqqa qilgan g'amxo'rliklari bilan tenglashtiradi. Bir insonga bo'lgan bundayin yuksak e'tibor Husayn Boyqaro shaxsidagi insonparvarlik fazilatining go'zal ko'rinishi bo'lishi bilan birga, Alisher Navoiyning ham nihoyatda nozik tab' go'zal xulqli inson ekanligidan yana bir bor dalolat berib turadi.

Zayniddin Muhammad Vosifiyning “Badoe ul-vaqoe”, Sayyid Sharif Roqim Samarqandiyning “Tarixi kasira” kabi asarlarda Husayn Bayqaroning hukmdorlik salohiyati, ilm fanga qo'shgan hissasi, obodonchilik yo'lidagi xizmatlari ilmparvarligi nihoyatda yuksak baholanadi.

XIX va XX asrlarda ham Husayn Bayqaro ijodiy faoliyati va hukmronligi, shaxsiyati xususida ayrim ishlar yaratildi. G'arb va sharq olimlaridan E. Braun, V. Bartold, Abulhay Habiby, Fuod Ko'pruluzoda va boshqalar Husayn Bayqaro faoliyati haqida ayrim fikrlarini bayon etadilar. Aksariyat hollarda, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy yoxud XV asr adabiy muhiti doirasida Husayn Boyqaro haqida ham so'z yuritilar edi. Biroq barcha ishlarda biryoqlamalik, noxolislik ko'zga tashlanadi.

⁴⁸Муҳаммад Ҳайдар мирзо.Тарихий Рашидий.-Тошкент: “Шарқ”, 2010 йил.. 274-бет.

⁴⁹O'sha asar. 296-bet.

Yurtimizda Husayn Boyqaro devonidan olingan she'rlar nashri 1927-yilda Abdurauf Fitrat tomonidan yaratilgan "O'zbek adabiyoti namunalari" asarida amalga oshirildi. 1941-yilda Oybek va P. Shamsiyevlar tahriri ostida "O'zbek adabiyoti tarixi xristomatiyasi" (VIII-XV asrlar) asariga Husayn Boyqaro haqidagi kichik so'z boshi bilan birga she'rlaridan namunalar keltirilgan. Xususan, Husayn Boyqaro haqida berilgan ma'lumotlarda o'zbek tili va adabiyotiga qo'shgan hissasi alohida ta'kidlangan: "Husayn Boyqaroning katta xizmati uning o'zbek adabiy tilini yaratish borasidagi kurashidir. Husayn Boyqaro o'z poytaxtini ham siyosatda, ham iqtisodda hamda ma'naviyatda fors va mo'g'ul madaniy markazlaridan yuqoriga ko'tarishga intildi..."

Shoirlik ta'lantiga ega bo'lgan Husayn Boyqaro Navoiy va boshqa shoirlarni o'zbek tilida she'r yozishga tashviq va targ'ib qilibgina qolmay, o'zi boshqa shoirlarga namuna bo'lib, o'zbek tilida go'zal she'rlar yozdi. Husayn Boyqaroning she'rlari tili jihatdan sodda, uslub jihatdan ravondir"⁵⁰. Xristomatiyada keltirilgan ushbu fikrlar va she'rlardan namunalar Husayniy ijodini o'rganishda muhim voqea sanaladi.

1968-yilda S. G'aniyeva va Sh. Abdullayevalar tahriri ostida "Devon. Risola" nomi bilan Husayniy adabiy merosi nashr ettirildi. Ushbu nashr o'sha davr nuqtai nazaridan anchayin mukammal bo'lib, "Husayn Boyqaro" nomli yirik so'z boshi ham keltirilgan. So'z boshi S. G'aniyevning qalamiga mansub bo'lib, unda ko'plab manbalar asosida Husayn Boyqaro hayoti, faoliyati, shaxsiyati va ijodiga oid ma'lumotlar bayon etiladi. Garchi ushbu maqolada "Husayn Boyqaro qadimiy o'zbek madaniyati ravnaqi o'zbek tilining rivoji yo'lidagi ijobiy faoliyati va go'zal asarlari uchun qadrlidir"⁵¹, kabi bir yoqlama qarashlar mavjud bo'lsa-da, "...uning

⁵⁰Ўзбек адабиёти тарихи христоматияси.(XIII-XVасрлар) I том.-Тошкент: "Ўқув-пед." нашриёти, 1941 йил. 299-300-бет.

⁵¹Хусайн Бойқаро. Девон. Рисола. -Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968 йил. 13-бет.

(Husayn Boyqaroning) faoliyatini atroflicha o`rganish ham tarixchilarimiz, ham adabiyotshunoslarimiz, ham madaniyatimiz tarixi bilan shug`ullanuvchi olimlarimiz oldida turgan muhim vazifalardandir”⁵², deya qo`yilgan yuksak vazifa Husayn Boyqaro ijodi va faoliyatiga qiziqishni yana bir bora oshiradi. Ushbu nashrning yana bir muhim jihati shundaki, unda g`azaldan tashqari muxammas, to`rtlik kabi janrlardagi she`rlari ham o`rin olgan. Mustaqillikka erishilgach, milliy tariximiz tiklandi, ko`plab ota-bobolarimiz nomlari yana xalqimizga qaytarildi, ilmiy va madaniy meros xolisona bahosini topa boshladi. Ayniqsa, shoh va shoirlar faoliyati yangicha nuqtai nazardan yondashilgan holda o`rganilib, adabiy meroslari nashri amalga oshirildi. Shu jumladan Husayn Boyqaroning nafaqat shoirlik qirradi, balki hukmdorlik, ma`rifatparvarlik, insonparvarlik, ilmga bo`lgan homiylik kabi qirralari ham fazilat sifatida milliy mafkuramiz mezonlari asosida chuqur o`rganila boshladi. Husayniy adbiy merosi bo`lgan “Devon” va “Risola” A. Erkinov tahriri ostida bir necha bora nashr ettirildi. Nashr hajm va ko`lam jihatdan oldingi nashrlardan to`laroq, mukammalroqligi bilan farqlanadi. A. Erkinov tahriri ostidagi nashrda E. Vohidov “Tarixiy adolat” nomli so`z boshisini ilova etadilar, unda shunday so`zlarni o`qish mumkin: “...shoirlari nihoyat bisyor bo`lgan Hirotda hukumdorning o`zi nozik tab`, dilbar shoir bo`lgan... Jahon tarixida ham shoh, ham shoir bo`lgan zotlar u qadar ko`p emas. Turkiy xalqlar olamida she`r yozmagan shoh kam bo`lgan. Bu qonimizdagi azaliy she`riyatga, san`atga bo`lgan ishqdan go`zallikka bo`lgan mayldandir”<sup>53</sup>. Bu fikrlarning o`ziyoq Husayn Boyqaro ijodini o`rganishda yangi davr boshlanganligidan dalolat beradi, o`quvchida ota-bobolar shaxsi va merosiga nisbatan hurmat tuyg`ularini shakllantiradi.

Bevosita Sulton Husayn Boyqaro ijodi, faoliyati tadqiqiga bag`ishlangan yirik ish sifatida mustaqillik yillarida yaratilgan “Sulton Husayn Boyqaro-Husayniy she`riyati” nomli qo`llanma ahamiyatga molikdir. Qo`llanma akademik

⁵² Хусайн Бойқаро. Девон. Рисола. -Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968 йил. 15-бет

⁵³Хусайн Бойқаро. Рисола. Девон. -Тошкент: “Шарқ”, 1995 йил. 6-бет.

B. Valixo`jayev tomonidan yaratilgan bo`lib, “Sulton Husayn Boyqaro faoliyatini o`rganish tarixi”, “Sulton Husayn Boyqaro shaxsiyati va faoliyatiga bir nazar”, “Sulton Husayn Boyqaro she`riyati” kabi mavzularda so`z yuritiladi. “Husayn Boyqaro faoliyatini o`rganish tarixi” bobida Husayn Boyqaro faoliyati, ijodini o`rganishga oid ko`plab manbalar tilga olinadi, o`zaro ma`lumotlar nuqtai nazaridan solishtirilib o`ziga xos xulosalarga kelinadi. Ustoz B. Valixo`jayev mavjud manbalardagi ma`lumotlarning o`rganilishini ikkita sabab asosida tushuntiradi: “Bu sabablardan biri uning shoh bo`lganligi hamda o`zini tarixi, ya`ni hukmronligi davri voqealari, jumladan uning nasabini yozishga ishora qilingan bo`lsa, ikkinchi tomondan o`sha davr ilmi va adabiyoti vakillarining undan minnatdorchiligini ifodalash uchun bu mavzuga murojaat etishlari bois bo`lgan edi”⁵⁴.

“Sulton Husayn Boyqaro shaxsiyati va faoliyatiga bir nazar” bobi qo`llanmada nihoyatda muhim mavzu sifatida ko`zga tashlanadi. Chunki uzoq yillar davomida qoralanib, feodal hukmdor sifatida ayblanib kelingan Husayn Boyqaroni aslida qanday shaxs, qanday hukmdor bo`lganligi davr nuqtai nazaridan ahamiyatli bo`lib, akademik B. Valixo`jayev Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy asarlari, shuningdek, “Risola” asari orqali Husayn Boyqaro shaxsiga xos bo`lgan fazilatlarga xolisona baho beradi. Xususan, “... Sulton Husayn Boyqaro Xuroson podshohi sifatida ko`pgina ijobiy ishlarni amalga oshirdiki, uning natijasida mazkur davrda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Mirxond, Xondamir, Husayn Voiz Koshifiy, Sulton Ali Mashhadiy va boshqalar jahon silvilizatsiya xazinasiga o`zlarining durdona asarlarini hadya etdilar”⁵⁵. Ushbu ta`rifning o`ziyoq Husayn Boyqaroning shaxs sifatidagi eng muhim jihatini ko`rsatib beradi.

“Sulton Husayn Boyqaro she`riyati ” bobi esa bevosita Husayniyning ijodiy faoliyati va uning tahliliga bag`ishlanadi. Xususan, turkiy devonining tuzilishi,

⁵⁴Валихўжаев Б. Султон Хусайн Бойқаро - Хусайний шеърляти.- Самарқанд, 2000 йил. 4-бет.

⁵⁵O`sha asar, 19-bet.

hajmi, vazn qo'llash borasidagi Husayn Boyqaroning o'ziga xos uslubi va "Majolis un-nafois"ning sakkizinchi majlisi tahlili kabilar qalamga olingan. Akademik B. Valixo'jayev Husayniy ijodini tahlil etishda ayniqsa, vazn qo'llash borasidagi o'ziga xoslikk Navoiyga suyangani holda baho beradi va Husayniy g'azallarini "g'azal-qo'shiq" yoki "g'azal-turkiy" deb atashni ilgari suradilar. Husayniy ijodida qo'llangan badiiy san'atlar an'anaviy va yangicha badiiy poetik ifodalar, o'xshatma va javobiyalar olim tomonidan mukammal tarzda ochib berilgan. Umuman olganda, Husayn Boyqaro ijodini o'rganishda tom ma'nodagi tadqiqotlar sifatida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", akademik B. Valixo'jayevning "Sulton Husayn Bayqaro–Husayniy she'riyati" qo'llanmasi ajralib turadi. Mazkur ishni yozishda asosan shu ikki manbaga tayangan holda fikr yuritiladi.

II BOB. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari

1-fasl. Shoh ijodida shoir madhi

XV asr turkiy adabiyotning, ayniqsa, o'zbek mumtoz adabiyotining gullagan davri sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda tarixda yuz bergan turli tarixiy tala-to'plar, taxt uchun kurashlarga qaramay, ilm-fan, san'at va adabiyotda ilgarilash, rivojlanish sodir bo'ldi. Xususan, adabiyot va adabiyotshunoslik san'at va ilm darajasida ravnaq topdi. Shubhasiz, bu yutuqlarda so'z mulkining sohibqironi bo'lgan Alisher Navoiyning xizmatlari cheksizdir. Uning adabiyotimiz ravnaqi yo'lidagi sa'y-harakatlari, yuksak iste'dodi, xalq farovonligi jonkuyarligi tahsinga sazovordir. Biroq shu o'rinda Navoiyga yoshlidan do'stik rishtalari bilan bo'g'langan, taxtga o'tirgach ham do'st, ham maslakdosh sifatida katta mehribonchiliklar qilgan, moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirib turgan Husayn Boyqaroning xizmatlarini ham ta'kidlamok o'rindir.

Ma'lumki, asli turkiylar yurti bo'lgan Markaziy Osiyoda uzoq asrlar davomida ilm va adabiyot tili sifatida arab va fors-tojik tilining mavqei kuchli edi. Taxtga Amir Temur kelgach, turkiy tilning mavqei bir muncha oshdi. Davlat boshqaruvi, siyosatshunoslik va harbiy sohaga oid ko'plab atamalar turkiy tilda yuritiladigan bo'ldi. Garcha Temur badiiy so'zga muhabbati kuchli inson bo'lsa-da, baribir asliyati hukmdor, siyosatdon edi. Shu bois bo'lsa kerak, bu davrda turkiy til tadbiqu davlat boshqaruvinigina qamrab ololdi. Hattoki, turk tili siyosat tili degan qarash ham paydo bo'ladi. Turkiygo'y shoir bo'lgan "Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror" asarida bu davrda adabiyotda turkiy til birinchi o'ringa ko'tarila boshlaganini ta'kidlab, bu ko'tarilish faqat til hodisasi bilangina emas, balki umuman, turkiy xalqlarning mavqei hayotda orta boshlagani bilan izohlaydi"⁵⁶. Haydar Xorazmiy shunday baytlarni keltiradi:

Turk zuhuridur ochunda bu kun,

⁵⁶Амир Темур жаҳон тарихида.-Тошкент: "Шарк", 1996 йил. 171-бет.

Boshla uluq yir bila turkona un.

Turk surudini tuzuk birla tuz,

Yaxshi ayolg`u bila ko`kla qo`buz⁵⁷.

Amir Temur ilm-fan ahlining homiysi edi. Bu haqda bir qancha tarixiy asarlarda ham ma'lumotlar mavjud. Misol uchun, Ibn Xaldun "Tarjimai hol" asarida shunday yozadi: "Olimlar bilan majlis qurib suhbatlashish, ularning bahs-munozalarida qatnashish hazrat Sohibqiron Amir Temurning doimiy va sevimli mashg`ulatlaridan edi"<sup>58</sup>. Ibn Arabshoh ham "Amir Temur tarixidan" nomli asarida shunga yaqin ma'lumotlarni keltiradi: "Temur har qanday hunar va kasb bo`lmasin agar unda biron fazilat va sharofat bo`lsa, shu kasb egalariga g`oyatda mehr qo`ygan edi"<sup>59</sup>. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"ning yettinchi majlisini "Salotini izom va avlodi vojub ul-ehtiromlari zikri"ga, ya`ni temuriyzoda ijodkorlar zikriga bag`ishlaydi. Amir Temur hamda 21 ta ijodkor hukmdorlar va shahzodalarga ta`riflar keltiradi. Amir Temur garchi tab`i nazmi bo`lmasa-da, so`zga adabiyotga o`zgacha munosabatda edi. Temuriylar ijod jarayonida, turkiy tilga alohida ahamiyat beradilar. Ijodga mayl qo`ygan devonnavis temuriyzodalarning aksari fors tili bilan bir qatorda turkiy tilda ham go`zal baytlar bitadi. Navoiy alohida bu holatga urg`u bergan holda misollar keltiradi. Amir Temurning badiiy adabiyotga bo`lgan muhabbati va ezgu amallari Husayn Boyqaroga bobo meros ekanligi xususida Alisher Navoiy shunday yozadi: "Temur Ko`ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydilar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal mavqe`da o`qubdurlarkim, aning bir bayt o`qug`oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor.... . To olam ahli bilg`aylarkim, Sulton sohibqirong`a (Husayn Boyqaroga)kim, majlisda paydar-pay xub abyot va yaxshi so`zlar darmahal voqe` bo`lur dag`i mavrusiydur..."<sup>60</sup>. Shu sabab, o`zini tom ma`noda bobokaloni Amir Temur ishlarining davomchisi deb bilgan Husayn Boyqaroning faoliyatida turkiy

⁵⁷Асрлар нидоси. -Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети 1982 йил.40-бет.

⁵⁸Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида.-Тошкент: "Ўқитувчи", 1996 йил. 35-бет.

⁵⁹О`sha asar. 27-bet.

⁶⁰Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ.13-том.-Тошкент: "Фан", 1997 йил. 163-164-бет.

tilga boʻlgan oʻzgacha eʼtabor bejizga emas, nazarimizda. Husayn Boyqaro bobosi Temurdan farqli oʻlaroq, "...tab'i nazmi bor...", adabiyot ilmiga oʻzgacha mehr va ishtiyoq bilan yondashadigan, bu ilimning bulogʻidan bahramand hukmdor edi. Navoiy deyarli barcha asarini yaratishda Husayn Boyqarodan taklif va ragʻbat oladi. Bu haqda Navoiy asarlari debochalari va xotimalarida alohida hurmat hamda iftixor bilan tilga olinadi. Bugun adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz durdonalari boʻlgan "Xamsa", turkiy devonlar, "Mezon ul-avzon", "Majolis un-nafois" kabi asarlar bevosita Husayn Boyqaro topshirigʻi ostida yaratiladi. Jumladan, "Xamsa" yozilib boʻlingach, davr sohibqironiga taqdim etiladi. Husayn Boyqaro turkiy tildagi ilk beshlikning yaratilayotganligidan bevosita xabardor boʻlsa-da, qisqa vaqt ichida bundayin mukammal asarning yaratilishini kutmagandi. Shu bois boʻlsa kerak, butun saroy ahli qarshisida "soʻz sohibqiron"ini oq otga oʻtqazib, jilovdorlik qiladi. Bundayin kuchli ragʻbat Navoiy uchun har qanday dur-u javohirdan ustun edi, albatta. Husayn Boyqaro Navoiyga chin maʼnoda ishonar, u xoh davlat ishi boʻlsin, xoh oilaviy muammolar barchasida maslakdosh edi. Hatto Navoiy bir masala yuzasidan toʻqqiz marotaba fikr bildirgan. Husayn Boyqaro oʻzining Navoiy isteʼdodiga boʻlgan ehtiromi, eʼtirofini "Risola" asarida shunchaki muxlis sifatida emas, balki adabiyot ilmining bilimdoni darajasida bayon etib beradi.

Yuqorida taʼkidlanganidek, ona tiliga nisbatan jonkuyarlik masalasi Husayn Boyqaro ijodiga xos jihat boʻlib, boshqa shoirlardan farqli oʻlaroq "maʼnolarning bokira tanasiga...turkona libos kiydir..."⁶¹gan Navoiy ijodiga hukmdor, qadrdon doʻst, masakdosh sifatida emas, balki chin muxlis, adabiyot shinavandasi, adabiyot sarchashmasidan bahramand olim kabi baho beradi. Husayn Boyqaro uchun Navoiy aslida qanday mavqeda boʻlgan, degan savol bu oʻrinda anchayin oydinlashadi: "...bu(men) bechoraning (kichikligidan birga boʻlib) koʻkaldoshlik qadrdonligigacha yetgan, saroyda xizmat qilish maslagidan suhbatdoshlik asosini kasb etgan, haram kaptaridek xilvatdagi podsho chodirida sirdosh doʻst, may

⁶¹Хусайн Бойқаро. Рисола. Девон. -Тошкент: "Шарқ", 1995 йил. 12-бет.

idishidek kechki suhbatda hamdam, haq soʻzni aytishda qoʻrqmas, yaʼni Mir Alisher”⁶². “Risola”da Husayn Boyqaro Navoiy “Xamsa”siga yuksak baho berar ekan, asarning yozilishi bilan bogʻliq muhim maʼlumotni, yaʼni Navoiy “Xamsa”ni yaratgunicha ikki yil ham oʻtmaganini, bevosita ijod bilan shugʻullangan vaqtning oʻzi esa olti oydan oshmasligini taʼkidlab oʻtadi. Husayniy “Xamsa”ga quyidagicha taʼrif va tavsif beradi: “...aning afsonalari ranginligʻin va abyoti sehr oyinligʻin va tarokibi matonati va maoniysi latofatin mutolaa qilgʻon kishi bilgʻay va mulohaza qilgʻon kishi fahm qilgʻay”⁶³. Yaʼniki, afsonalarning goʻzalligi, baytlarning badiiy puxtaligi, dostonlar oʻrtasidagi mantiqiy bogʻlanishning kuchliligi, maʼnolarning betakrorligi esa faqat uni oʻqigan, mulohaza yuritgan kishigagina ayon boʻladi. Husayn Boyqaroning ushbu soʻzlaridan ikki xil maʼnoni anglash mumkin, yaʼni birinchisi Navoiyning isteʼdodiga olqish, tahsin oʻqish boʻlsa, ikkinchidan forsiy asarlar taʼsiriga tushib qolgan maʼrifat ahlini turkiy “Xamsa”ni oʻqishga undash, ragʻbatlantirishdir. Husayn Boyqaro Navoiy devoniga ham yuksak baho beradi: “Ne devon, Olloh, Olloh, joʻngekim, sofiy alfozdin toʻla gavhar boʻlgʻay va sipehr avroqikim, pok maoniydin mamlu axtar boʻlgʻay:

Dema devon gʻam-u dard ahligʻa ofat de oni,

Kuymak-u shulai gʻam birla qiyomat de oni”⁶⁴.

Biroq Husayn Boyqaro Navoiy devonlaridan qaysi biri haqida gap ketayotganini aniq koʻrsatib oʻtmagan. “Risola” 1485-yilda yozilgan. Bu vaqtda Navoiyning muxlislari tomonidan tuzilgan devonidan tashqari oʻzi tomonidan tartib berilgan “Badoyi ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” devonlari mavjud edi. Husayn Boyqaro taʼriflagan devon nisbatan “Risola” yozilgan vaqtga yaqin yozilgan, faqat gʻazaldan tarkib topgan “Navodir un-nihoya” boʻlishi mumkin. Navoiyning nazm borasidagi qudratini taʼriflar ekan, uni zamon qahramoni, sohibqironi, deya ulugʻlaydi:

⁶²Хусайн Бойқаро. Рисола.Девон. -Тошкент: “Шарк”, 1995 йил. 12-бет.

⁶³Oʻsha asar. 14-bet.

⁶⁴Oʻsha asar. 14-bet.

Erur so`z mulkining kishvarsitoni,

Qayu kishvarsiton, xisravnishoni.

Dema xisravnishonkim, qahramoni,

Erur gar chin desang, sohibqironi.⁶⁵

Husayn Boyqaroning ushbu to`rtligini o`qir ekanmiz, Maqsud Shayxzodaning Navoiy sha`niga aytilgan “G`azal mulkining sultoni” degan jumlasini yodimizga tushadi. Navoiyning ta`rif va tahsinga sig`mas iste`dodi, ijod mahsuli va albatta insoniy fazilatlari Husayn Boyqaro tomonidan doimo qadrlangan. Buni o`ziga xos shukronasidan ham anglash mumkin: “...haq subhonahu va taolo ani bu dargohi falakmisol qullug`ining ozimi va bu zoti malakxisol maddohlarining nozimi qildi ham mujibi ko`p shukrturur”⁶⁶. Darhaqiqat, farishta sifat insonning maddohi, nozimi bo`lishlik garchan o`zi saltanat hukmdori bo`lsa-da, Husayn Boyqaroda iftixor, shukronalik hislarini uyg`otadiki, Navoiy nazmiga bo`lgan izzat, Husayn Boyqaro shaxsiga esa hurmat tuyg`ulari qalbimizda mavjlanadi. Zero, Husayn Boyqaro zohiran shoh bo`lsa-da, botinan shoir, olim, ma`rifatparvar edi. O`z navbatida Navoiy ham asarlarida Husayn Boyqaroning shaxsiga, iste`dodiga, davlat boshqaruviga, adolatiga oid xolisona baholarini berib boradi. Navoiy va Husayn Boyqaro o`rtasidagi do`stlik rishtalarining asosi ishonch, mehr, sadoqatdan tarkib topgan desak, mubolag`a bo`lmaydi. O`z davrlarining eng buyuk bu ikki insonning taqdir yo`llari bolalikdan tutash tushdi. Ular qilgan amallar bir-birini doimo to`ldirib turdi. Shu bois bo`lsa kerak, bu davrda Hirot ravnaq topdi, ilm-fan rivojlandi, ko`plab moddiy va ma`naviy yodgorliklar yaratildi.

⁶⁵Хусайн Бойқаро. Рисола. Девон. -Тошкент: “Шарқ”, 1995 йил. 12-бет.

⁶⁶O`sha asar. 14-bet.

2-fasl. Navoiy asarlarida Husayn Boyqaro timsoli

Alisher Navoiy lirikasida shoir shaxsiyati, zamon va zamondoshlariga bo'lgan munosabatlari ham o'z aksini topgan. Chunki Navoiy ijodi o'z davri siyosatidan, falsafiy dunyoqarashidan hech qachon uzoq bo'lmagan. Xususan, shoir she'riyatida Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi munosabatlar juda ko'p qirralari bilan namoyon bo'lgan. Sulton Husayn Boyqaro ijodining Alisher Navoiy asarlaridagi talqini nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun adabiyotshunosligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniyy” kulliyotining debochasida, “Xamsa” dostonlarida “Muhokamat ul-lug'atayn”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon” kabi turli shakl va mazmundagi asarlarda Husayniy ijodida ba'zan muxtasar tarzda, ba'zan esa anchayin mufassal izohlar berib o'tadi, talqin va ta'riflarni keltradi. Navoiyning turkiy va fors-tojik tili imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali turkiy tilni fors-tojik tilidan qolishmaydigan til ekanligini isbotlagan asari “Muhokamatul-lug'otayn” asarida Navoiyning turkiy devoni xususida quyidagicha ma'lumot beradi: “Har ilmda mufid ta'liflar va fanda muntij tasniflar qildilar va g'arib rasoili ma'naviy zikr qildi va ajib devovin va g'azal va qasoid va masnaviy yoyildi va o'z sharif tab' va latif zehnlaridin dag'i agarchi ham forsiy demakka qodir va ham turkcha aymakka mohir erdi, ammo asliy tab' iqtizosi va shol takallum munosabati adosi bilan turkiy devon tadvilig'a mayl qildilar va dulpazir hayot va benazir g'azaliyot tartib berdilar”⁶⁷. Ma'nosi: “Har ilmda foydali asarlar yozib va har fanda natija beruvchi tasniflar qiladilar va ajoyib devonlar va g'azallar va masnaviylar zikr etdi va ajoyib devonlar va g'azallar va qasidalar va masnaviylar yoyildi va o'zining sharofatli, ilohiy zehnlaridan ham forsiyda deyishga qodir, turkcha aytishga mohir edi. Ammo asl tabiatning taqozosi va shu takallum munosabatining cheksizligidan turkiy devon tuzishga xohish qildilar dilga yoquvchi baytlar va tengi yo'q g'azallar tartib berdilar”. “Muhokamat ul-lug'otayn”da Alisher Navoiy Husayn Boyqaroga bag'ishlab ikkita ruboiy ham keltiradi. Ruboiylarning birinchisida mazmunan

⁶⁷Навоий А. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ.16 –том.-Тошкент: “Фан”, 2000 йил. 37-бет

Husayn Boyqaroning shohlik sifatleri aks ettirilsa, ikkinchisida asosan tab’i nazmi haqida so`z yuritiladi:

Tokim falak evrilur, davom o`lsun anga

Iqbol bo`stonida maqom o`lsun anga.

Ham nutq ila jonbaxsh kalom o`lsun anga

Ham nazm kalomi mustadom o`lsun anga⁶⁸.

Navoiyning aruz ilmiga bag`ishlangan ”Mezon ul-avzon” asarida ham bir necha o`rinda Husayniy uslubiga vazn qo`llash mahorati va o`ziga xosligiga alohida to`xtalib o`tadi. Asarda “turk surudi” haqida gapirib, vazn tanlashdagi Husayniyning ixtirolari g`azallarining latofati va “balog`ati”dagi Husayniy uslubining o`ziga xosligini ochib beradi. Sulton Husayn Boyqaro uchun turkiy tilda vazn avzoniga bag`ishlangan alohida asar yo`qligi (Garchi XV asrning boshlarida shayx Ahmad Taroziy “Funul ul-balog`a” asarini turkiy tilda yozib, asarning oltinchi qismini aruzga bag`ishlagan bo`lsa-da, bundan yo Sulton Husayn va Alisher Navoiy bexabar bo`lishgan, yoki bu asar to`laligicha aruz ilmiga bag`ishlanmagani uchun e`tibordan qoldirishgan) ma`lum edi. Shu bois adabiyotshunoslik ilmining bilimdoni bo`lgan Navoiy zimmasiga mana shunday mas`uliyatli ish yuklanadi. Bu haqida Navoiyning o`zi shunday yozadi: “...buhur avzoni va taqti’ va zihofot va ajam bulog`i va shuarosi ul ilmida kitoblar tasnif qilibdurlarkim, onsiz bu alfoz nazmida yo`q erdi va Sulton us-Salotin (Husayn Boyqaro)ning muborak xotirlari munga multafit bo`lib – kitobning ibtidosi voqe’ bo`lmish”⁶⁹. Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”da yozgan katta debochasida ham Husayn Boyqaro shaxsi va she’riy ilmiga yuksak baho beriladi, uning tashabbuskorligiga katta baho beriladi: “... agarchi bu nigorish topgan ikki devon tartibida va guzorishga kirgan ikki daftar tadvinida ham bu faqiri nomurodu haqiru noshodg`a hech ixtiyor yo`q erdi, nevchunki barchasi sultoniyy hukmlaru ehsonu

⁶⁸Навоий А. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ.16 –том.-Тошкент: “Фан”, 2000 йил. 37-бет.

⁶⁹Навоий А. Мезон ул-авзон. МАТ.16 –том.-Тошкент: “Фан”, 2000 йил. 95-бет.

tahsinlar va hoqoniy amrlaru ta'limu talqinlar bila erdi. . . ”⁷⁰. Ushbu iqtibosda keltirilgan “ta'lim-u talqinlar” jumlasini orqali Navoiy Husayn Boyqaro ilmining kuchli ekanligi u hatto Navoiyga ham ayrim masalalarda ta'lim berib turgani (maslahatlar va fikrlar) o'ziga xos talqinlarning betakrorligini ta'kidlaydi. Navoiyning “G'aroyib us-sig'ar” devoni debochasini o'qir ekanmiz. Husayn Boyqaro shaxsiga xos bo'lgan tashabbuskorlik, buyuk ishlarga insonlarni da'vat etish, ruhan rag'batlantirish, kishilarda shijoatni uyg'otish kabi bir qancha ijobiy fazilatlar ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. “... hukmi qazojarayoni farmoni vojib ul-iz'on bu banda otig'a ul sultoni sohibqironidin yetishtikim, qullari hukmidin azim ush-sha'i salotin bosh torta olmaslar va bandalari farmonidin nofizi farmon xovoqin bo'yin to'lg'ay olmaslar”⁷¹. Bu holat ikki narsadan dalolat beradi. Birinchisi Husayn Boyqaro Navoiyni shunchaki do'st, maslakdosh sifatida emas, balki davlatning yirik siyosiy kishisi deb bilganligidan o'z niyatini amalga oshirishini chin dildan istagani bois bu niyatini qonuniylashtirgan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, turkiy tilda she'riy devon yaratilishi, uning muallifi Navoiy bo'lishi darkorligini davlat siyosati darajasiga ko'taradi. Zotan, Husayn Boyqaro ijodkor hukmdor, davlat va til jonkuyari sifatida turkiy tilda go'zal asarlar yaratish mumkinligini Navoiydan o'zga iste'dod egasi isbotlay olmasligini bilardi. Bu davrda Navoiy bir qancha durdona asarlari bilan buni isbotlab ulgurgan ham edi. Debochada Navoiy o'z fikrlarini davom ettirar ekan, har bir masalada Husayn Boyqaro bilan o'zaro hamfikir ekanliklari, Navoiy devon muallifi sifatida Husayn Boyqaroning bu et'tibori-yu ta'limidan minnatdor ekanligini alohida ta'kidlab o'tadiki, bu o'z navbatida Husayn Boyqaroning “oliy tab'i”ning nechog'lik kuchli ekanligidan, davlat, xalq ishidan ortib saroy shoirlari ijodini kuzatishga ham vaqt ajratishi, so'zga, adabiyotga bo'lgan muhabbatidan dalolat beradi: “Kulragi bukim, ul davovin tartibida Sulton sohibqironning oliy tab'ining islohi ihtimomi behad va

⁷⁰Навоий А.Ғаройиб ус-сиғар. МАТ.3-том.-Тошкент: “Фан”, 1988 йил. 10-бет.

⁷¹O'sha asar. 12-bet.

har juz'viy nuqtada tag'yiru ta'limi mo lo kalomi beadam erkan jihatdin ul ish saranjom suratin paydo qildi"⁷².

“G'aroyib us-sig'ar” debochasining yana bir necha o'rnida Navoiy Husayn Boyqaroni himmati, diqqat e'tibori, ta'limi sa'yi-harakatlariga cheksiz hurmatini ishora etib o'tadi. Darhaqiqat, Husayn Boyqaro Navoiyning guvohlik berishicha, Navoiyning she'rlari ellik-oltmish yo yuzdan oshsa sulton e'tiboriga havola etar ekan, ba'zi vaqtlarda she'rlardagi ayrim so'zlarni munosib deb bilmasa o'rniga o'zlari joiz so'zlarni qo'yib she'rlarni tahrir etar ekanlar. Hatto g'azallarni devonda tartib bilan joylashtirishda ham o'z fikrini bildirib turgan. Bu esa Husayn Boyqaro hech vaqt ijodda o'zini ayro tasavvur eta olmasligi, she'rdagi kichik kamchilikni ham bee'tibor qoldirmasligidan dalolat beradi.

Navoiy turkiy “Xamsa”si dostonning an'anaviy boblaridan birini Husayn Boyqaro ta'rifga bag'ishlaydi. Xususan, bob sarlavhasining o'zidayoq Husayn Boyqaroning shohlik savlati ko'z ungimizda namoyon bo'ldi: “Sulton xaylining sarafrozi va xavoqin mulkining ganj pardozi muizzis- saltanat vad-dunyo vad-din Abulg'ozi Sulton Husayn Boyqaro xaladallohu mulkahu va sultonahu vaavzaha alal-alaminabirrahu va ehsanahu madhikim, go'yo til bila madhin demak maholdurur, bataxsiskim qalam tili madhida loldurur”⁷³. Navoiy Husayn Boyqaro hokimiyat tepasiga kelgandan keyin yozgan deyarli barcha asarlarida, lirik she'rlarida uni adolatli, vatanparvar shoh, adabiyot va san'at, ilm va hunar ahliga saxovatli homiy sifatida qayta-qayta madh etadi, ta'rif-tavsif qiladi, u bilan faxrlanadi. Navoiy bu o'rinda bir tomondan, shohning ijobiy fazilatlarini ulug'lasa, qo'llab-quvvatlasa, ikkinchi tomondan hukmdor xarakteridagi ayrim salbiy qirralarni maqtov yo'li bilan bartaraf etishga intiladi. Bundayin ta'rif va tahsinlar Navoiy devonlarida ko'p uchraydi. Navoiyning fikricha, shoh G'oziyning fazilatleri behisob. Ularni qog'ozga tushirish ko'ngil istagidir:

⁷²Навоий А.Ғаройиб ус-сиғар. МАТ.3-том.-Тошкент: “Фан”, 1988 йил. 15-бет.

⁷³Навоий А. Ҳайрат ул-аброп. МАТ.7-том.-Тошкент: “Фан”, 1991 йил. 67-бет.

Kim tuzay mastona Shohi G`oziy avsofida savt,

Bu ko`ngul gar bo`lsa, o`z holida gar ham bo`lmasa.

Shoir bir baytda shoh vaqti kelganda shohlikdan kechib, darvesh bo`lishga tayyor turgandagina uning podshohligi hech kamchiliksiz va doimiy bo`lishini ta`kidlaydi:

Shohg`a shohlig` musallamdir agar bo`lg`ay mudom,

Shohlik tarkin qilib, darvesh o`lur niyat anga.

Navoiy ta`kidlashicha, faqat Husayn Boyqarogina “shohlik tarkin qilib”, darveshlarcha hayot kechirmoqqa hamma vaqt tayyor bo`lgan birdan bir podshohdir. Shohlik Husayn Boyqaroning “suvrati”gina xolos. Uning “siyrati” (ichki dunyosi, fazilatlari) esa darveshlikdir:

Mumkin ermas shohlar ichra bo`yla niyatlig`, magar,

Shohi G`oziy kim, muyassar bo`ldi bu davlat ango.

Shohlar darveshi-yu, darveshlar shohiki bor,

Shohlik suvrat anga, darveshlik siyrat anga.

“Shoh va darvesh” (shoh va gado) masalasiga doir bu falsafiy g`azalda ham Navoiy Husayn Boyqaroni kamtar, adolatparvar va kambag`alparvar bo`lgani uchun ham shunday martaba-yu, davlatga erishganligini ta`kidlaydi. Ta`kidlaydigina emas, balki elparvar, adolatli hukmdor bo`lishga targ`ib ham etadi. Darhaqiqat, “Sulton Husayn Boyqaroning o`zi darvishtabiat bo`lganligi uchun shunday hislatli odamlarni yaxshi ko`rgan, ular bilan nafaqat suhbat qurib, ma`naviy oziq olgan, balki davlat ishlarini shunday odamlar ixtiyoriga topshirishni maqbul hisoblagan”<sup>74</sup>. Garchi Husayn Boyqaro tasavvuf vakili bo`lmasa-da, yoshlikdan xush tab` va darvishsifat odam bo`ladi. Tariqat ahliga befarq

⁷⁴Комилов Н. Хизр чашмаси. -Тошкент: “Маънавият”, 2005 йил. 47-бет.

qaramaydi. Navoiyning bir qancha asarlarida bunga ishoralar ham mavjud. “Layli va Majnun” dostonining bagʻishlovida “Navoiy Husayn Boyqaroning taxtga oʻtirib, tariqat rusumi bilan oshno boʻlgani, oʻzini pir (Jomiy) ixtiyoriga topshirgani, vaqti-vaqti bilan qadamjolar, xonaqolarni ziyorat etgani, Hirotdagi darvish-oriflar, shayxlar ahvolidan xabar olib turishi, vahdat ul-vujud taʼlimotini oʻzlashtirishga intilishi, ...taxt-u tojdan nafratlanib yurishini, qalban darveshligini maxsus qayd etib oʻtadi”⁷⁵.

Navoiy mamlakatni zakovatli, adolatli, olijanob podshoh boshqarishi kerak, deb hisoblaydi. Ana shunday dono va odil podshoh Husayn Boyqarodir. Shoh Gʻoziyning adolatidan zulm eshigi hamisha berkdir. Yaʼni, Sulton Husayn mamlakatni hech qachon zulm bilan boshqarmaydi:

Ey Navoiy, ermas ul zot koʻzi uyqudakim,

Zulm eshiga Shohi Gʻoziy adlidan masdud erur.

Shohning odilligi tufayli uning dargohi beva-bechora-yu, faqirlarga, barcha hojatmandlarga pano, xonlarga esa sigʻinadigan joy boʻldi. Shuning uchun Shoh Gʻoziy eshigini Tangrining oʻzi qoʻllasin:

Shohi Gʻoziy eshigin tengri base tutsinkim,

Notavonlarga pano oʻlduyu, xonlarga maloz.

Husayn Boyqaro birinchi galda faqirlarning boshini silaydigan, adolatli podshoh boʻlganligi uchun ham unga shunday davlat va daraja nasib etgan. Osmondek ulugʻ martabaga erishgan Sulton Husayn Boyqaro Navoiyning ham oh-u dodlariga yeta oladi:

Navoiy ohi navosozi shoh Abulgʻoziy,

Sipehr martaba Sulton Husayn Boyqaro.

⁷⁵Комилов Н.Тасаввуф. -Тошкент: “Мовароуннахр” нашрети ҳамда “Ўзбекистон” НМИУ, 2009 йил. 174-бет.

Navoiy ana shu bois Shoh G`oziy dargohining ostonasini Ka'bani tavof etish bilan tenglashtiradi:

Ey Navoiy Ka'bai maqsud vasfin istasang,

Shohi G`oziy qasrining dargohi oliy shonin o`p.

Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam” asarining so`nggida Husayn Boyqaroga bag`ishlab masnaviy keltiradi. Asarda shohlik sifatlari, uning abadiy emasligi, hukmdorlik aslida Tangrining ne'mati ekanligi haqida so`z yuritiladi. Husayn Boyqaroni shohlik va insoniylikda o`rnak qilib ko`rsatadi:

Demay ayni insonki inson ayn,

Ham inson-u, ham Sulton Husayn.

Uning zamonida “panj-ganj” (Xamsa) va “Nazm ul-javohir”ni bitganligini iftixor bilan tilga oladi. Garchi amalga oshmagan bo`lsa-da, Sulton Husayn tarixini bitishni niyat qiladi:

Vale azmim emdi budurkim xudoy,

Agar bo`lsa umrung`a muhlat fizoy.

Chekib turfa tarixingga xomani,

Qilib nuktag`a tez hangomani.

Sifotingni avvaldin oxirg`acha,

Xayoloti maxfiyu zohirg`acha⁷⁶.

“Vaqfiya” asarida ham Husayn Boyqaroga bag`ishlangan masnaviy va ma'lumotlar uchraydi. Xususan, davlat boshqaruvidagi sultonning siyosatini alohida hurmat bilan tilga oladi. Navoiy Husayn Boyqaroga quyidagicha ta'rif beradi:

⁷⁶Навоий А. Тарихи мулки аҷам. МАТ. 16-том.-Тошкент: “Фан”, 2000 йил. 256-бет.

Shahi shahriyoron jahon xusravi,

Falak rif'atining Mushtariy partavi⁷⁷.

Navoiy asarlarini o`qir ekanmiz, Husayn Boyqaro uchun Navoiy kim bo`lgan ularni qanday tuyg`u bog`lab turgan, degan savol oydinlashgandek bo`ladi, nazarimizda. Navoiy va Husayn Boyqaro munosabati xususida Muhammad Haydar Mirzo shunday yozadi: “Mir Alisher bolalikdan Sulton Husayn bilan do`stlashgan. Sulton Husayn mirzo podshoh bo`lgach, Alisher Navoiy uning xizmatiga kelgan, mirzo uni behad qadrlab, g`amxo`rliklar ko`rsatgan. Mir Alisher esa xalqqa xuddi shunday g`amxo`rlik qilgan”⁷⁸. “Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari nihoyatda serqirra va rang-barangdir. Har ikkala ijodkor meroslarida birlarining g`azallariga o`xshatma-tatabbu`lar, naziralar ancha-muncha uchraydiki, ularning har qaysisi bevosita qiyosiy tahlilni talab qiladi”<sup>79</sup>. “Husayniy va Navoiyning o`zaro u yoki bu asarni yaratishga da`vat va rag`batlantirishlari ham ular o`rtasidagi ijodiy munosabatlar doirasiga kiruvchi muhim dalillardandir. Husayn Boyqaro Navoiy ijodiy faoliyatini, hukmronlar va jamoatchilikning unga va asarlariga munosabatlari manfaatdorlik bilan kuzatib borgan, uning intilish va rejalaridan yaxshigina xabardor bo`lgan. Lekin, bu shubhasizki, 1469-yildan boshlab, ular o`rtasidagi ijodiy hamkorlikka aylandi”<sup>80</sup>. Shunday qilib, Husayn Boyqaro va Navoiy birgalikda Hirotida yuksalish va taraqqiyotga sabab bo`ldilar. Shaxs sifatida bir-birini to`ldirib bordi.

⁷⁷Навоий А. Вақфия. МАТ. 14-том.-Тошкент: “Фан”, 1998 йил 242-бет.

⁷⁸Муҳаммад Ҳайдар мирзо.Тарихий Рашидий.-Тошкент: “Шарқ”, 2010 йил. 292-бет.

⁷⁹Абдуғафуров А. Навоий ва Ҳусайний./ Буюк бешлик сабоқлари, Т., 1998 йил, 138-бет.

⁸⁰Абдуғафуров А. Навоий ва Ҳусайний.//Ўзбек тили ва адабиёти.- Т., 1998 йил, 1-сон. 16-бет

III BOB. Husayniy she'riyatining badiiy xususiyatlari

1- fasl. Husayniy ijodida ilmi aruz

Sharq mumtoz she'riyati uchta san'atjamlanmasi sifatida o'zaro mutanosibligi bilan butun dunyoga mashhurdir. Bu uch san'at go'yoki uch javhar kabi sharq she'riyatini harakatlantirib turgan va birgalikda she'r ilmini tashkil qilgan. She'r ilmini tashkil etuvchi uch ilm-ilmi bade', ilmi aruz, ilmi qofiya deb atalgan. Adabiyotshunos A. A'zam she'r ilmlari o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ta'riflaydi: "...agar she'r o'n sakkiz yoshli qiz bo'lsa, vazn uning qomati, badiiyat – chehrasi, mazmun- fe'l-atvori, she'r ruhi uning qalbiga o'xshatilsa, qofiya ko'zlariga qiyoslash muvofiq bo'ladi"⁸¹. Barchamizga ma'lumki, sharq mumtoz she'riyatida o'lchov, vazn vazifasini arab adabiyotida shakillanib, butun sharqda rivoj topgan aruz bajargan. Ushbu vazn asoschisi xususida Ataulloh Husayniy shunday yozadi: "Aruz fanining asoschisi va arabiiyyot ahlining imomi Xalili ibn Ahmad a'layka-r-rahma..."⁸². Adabiyotimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak har qanday yetuk shoir avvalom bor she'r ilmidan, xususan, aruzdan xabardor bo'lishi zarur bo'lgan. Aruz vazni "O'zbek she'riyatida taxminan IX asrdan beri qo'llanib kelayotgan she'riy o'lchov tizim nomi bo'lib"⁸³, "...misralardagi cho'ziq va qisqa hijolarning muayyan tartibda takrorlanishiga asoslanadi"⁸⁴. Aruz vaznida ming yildan ortiq vaqt mobaynida ajdodlarimiz o'zlarining eng sara asrlarini yaratdilar. Ayniqsa, Husayniy yashab ijod qilgan XIV-XVI asrlarda aruz ilmining o'rganilishi yangi bosqichlarga ko'tarildi. Bunday deyishimizga sabab avvallari yaratilgan ilmi aruzga oid manbalarning barchasi (A. Taroziyning "Funnun ul-balg'asi"dan tashqari) arab va fors-tojik tilida bo'lib, turkiy tilda ijod qilishga rag'batlantirilayotgan bir davrda ilmi aruzning turkiy tildagi tabdiliga ehtiyoj

⁸¹Абдулла Аъзам. Аруз.- Т.: А.Навоий номидаги ўзбек Миллий кутубхонаси нашрети, 2006 йил. 150-бет.

⁸²Атауллоҳ Хусайний. Бадойи у-с-санойи.-Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети,1981 йил. 11-бет.

⁸³Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийат луғати. -Тошкент: "Янги аср авлоди", 2008 йил. 8-бет.

⁸⁴Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. –Samarqand, 2010-yil. 5-bet.

sezildi. Natijada, Alisher Navoiyning, “Mezon ul-avzon” asari yaratildi. Shoirlar majlisining homiysi, iste’dodli ijodkor, soʻz oʻyinlarining mohir bilimdoni boʻlgan Husayniy aruz ilmidan xabardor shoir edi. Husayniy boshqa shoirlardan farqli oʻlaroq, devon tartib berishda gʻazallarini faqat bir vaznda, yaʼniki “ramali musammani maqsur (yoki mahzuf)” vaznida bitdi. Ustozimiz akademik B. Valixojayev Husayniy sheʼriyatiga bagʻishlangan asarlarida vaznning aynan bir xil ekanligi masalasini Navoiyning “Mezon ul-avzon” asaridan keltirilgan katta bir iqtibosning keltirilishi orqali izohlagan edi. Biz ham ustoz yoʻlidan borib, ushbu iqtibosdan ishimizda foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik. Unga koʻra Navoiy shunday deb yozadi: “Chun doiragʻa kirgan bu hurdin forigʻbulildi, yana bir necha vaznki, baʼzini Ajam shuarosi mutaaxxirlari aytubdurlar va baʼzi bu zamonda nazm topibdur va hech aruzgʻa doxil boʻlmaydur, agarchi filhaqiqat aruz buhurigʻa dohildurlar, ishorate alar sori qilmoq xoli azmunosabate ermas erdi. Ul jumladin, ramali maxbundur...

Yana turk ulusi, bataxis chigʻatoy xalqi aro shoeʻ avzondurkim, alar surudlarini ul vazn bila yasab majlisda ayturlar.

Birisi tuyugʻdur...

Yana qoʻshuqdurkim, orgʻushtak usulida shoyedur va baʼzi advor kutubida ul usul zikr boʻlubtur va ul surud aʼrobning teva surar hudilari vazni bila madidi musmmani solimda (foilotun foilun foilotun foilun) voqeʻ boʻlur, aning asli bu navʻdurkim, bayt:

Vahki, ul oy hasrati, dardu dogʻi furqati,

Ham erur jonimgʻa oʻt, ham hayotim ofati.

Foilotun foilun foilotun foilun

Ammo bu latif zamonda va sharif davronda bu surudni ramali musammani mahzuf vaznigʻa elitib, musiqiy va advor ilmida muloyim tabʼliq benazir yigitlar gʻarib nagʻamot va alhon bila ajab tasarruflar qilib, sultoni Sohibquron majlisida ayturlarkim, aning muloyimligʻ va hushoyandaligʻi sifatqa rost kelmas balki ul

hazratning ixtiroidur va bu ham ul hazratning Masihoso anfosi natoyijidin istishhodg`a kelturmak munosibroq erdi andoqki bayt:

Sabzayi xatting savodi la'li xandon ustina

Xizr go`yo soya solmish obi hayvon ustina.

Foilotun foilotun foilotun foilun”⁸⁵.

“Mezon ul-avzon” asarida aruz doiralariga kirgan bahrlar sanab o`tilgach, yana bir necha vazn haqida so`z yuritib ramali maxbun vaznidagi surudlar, tuyuq, org`ushtak kuyiga solib kuylanadigan madidi musammani solim bahrida yoziladigan “surud” (qo`shiq) kabilarni sanab o`tadi: Qizig`i shundaki, sanalganlarning barchasida birinchi rukn “foilotun” bo`lib, sakkizta asl bahrdan ramalga mos keladi.

Akademik B. Valixo`jayev yuqorida keltirilgan katta iqtibosdan kelib chiqqan holda, Husayniyning ramali musamani mahzuf (yoki maqsur)da yozilgan g`azallarni qo`shuq-g`azal, g`azal-qo`shuq, turkiy-g`azal, deya nomlash kerak, degan xulosaga keladilar. Bunda Alisher Navoiyning “... ul xazratning (ya`ni Husayn Boyqaroning) ixtiroidur” kabi degan so`zlari asos qilib olingan. Ushbu fikr qaysidir ma`noda haqiqatga yaqin, nazarimizda. Biroq Husayniy she`rlarini rasmiy g`azal emas, balki alohida janr deb qarash, ma`lum ma`noda e`tiroz uyg`otadi. Chunki Husayniyga qadar ham turkiy adabiyotda ramali musammani mahzuf (maqsur) vaznlarida g`azallar yozilgan, ularning hech birida janr xususiyati xususida o`zgacha fikr yurutilmagan. To`g`ri, foilotun rukni turkiy til ohangiga, leksik-morfologik xususiyatlariga to`g`ri kelishi mumkin, shu bois ham Husayniy turkiy til targ`iboti, rivoji, ohangdorligi-yu, fors-tojik tilini afzal bilib, o`z ona tilida ijod qilmaydigan shoirlarni jalb etish maqsadida barcha g`azallarini aynan ushbu vaznda yozgan bo`lishi mumkin. Navoiyning e`tirofiga keladigan bo`lsak, Husayn Boyqaro she`riyat majlislarida tez-tez turkiy she`riyat, unga mos tushuvchi

⁸⁵ Навоий А. Мезон ул-авзон. МАТ.16 –том.-Тошкент: “Фан”, 2000 йил. 92-бет.

vaznlar xususida suhbatlar, bahslar o'tkazilgan bo'lishi mumkin. Ushbu majlislarning bevositasi ishtirokchisi bo'lgan, ham amaliy, ham nazariy fikrlari bilan sulton Boyqaro tahsiniga sazovor bo'lgan Alisher Navoiy esa aynan Husayn Boyqaro topshirig'i bilan yozilgan "Mezon ul-avzon" asarida adabiy majlislardan taassurotlari asosida yuqoridagi fikrlarni bildirib o'tgan, nazarimizda. Devon tuzish qoidalariga ko'ra olib qaralganda ham g'azal yetakchi janr bo'lib, dastlab aynan ushbu janrga kiruvchi she'rlar devondan o'rin olgan. Husayniy devonidagi g'azallarning aynan bir vaznda yozilganligini xulosa sifatida quyidagicha izohlash mumkin: Husayniy boshqa vaznda ijod qilolmasligidan emas, (chunki boshqa vaznlarda bitilgan baytlari, ruboiy va to'rtliklari bizga ma'lum) balki ohangdorligi, muloyimligi ritmik jihatdan turkiy til qonun-qoidalariga mos tushuvchi ramal bahrini xalqonalikni, xalq og'zaki ijodiga, xususan qo'shiqlarga yaqinlikni saqlash maqsadida tanlaydi. "Turkiy" turkona uslub asoslarini tashkil etuvchi janr sifatida rivojlangan ekan, uning mazmun-mundariyasi, g'oyaviy yo'nalishlari ham Navoiyga qadar chegaralangan bo'lib, Navoiy yashab ijod etgan XV asrda bevosita Husayn Boyqaroning sa'y-harakatlari natijasida anchayin boyidi. Nisbatan soddalik, yengil ohang esa oddiy havaskor ijokorlardan tortib mahoratli shoirlarning ham e'tiborini tortishi tabiiy edi. Shu bois Husayn Boyqaro hukmronligi davrida aholining chorak qismi ijod bilan shug'illanishgan. Bundan tashqari soddalik shoirlar uchun nisbatan zalvorli, murakkab, so'z o'yini tarzidagi o'ynoqi mazmunni ifodalashga qulay edi. Shu sababli Husayniy g'azallarini "g'azal-qo'shiq, qo'shiq-g'azal" deb atash mumkin, biroq alohida janr, deyish ortiqchalik qiladi. Devondagi g'azallar vaznan tahlil etilganda hamd mazmunidagi ikkinchi g'azal mujtass vaznda ekanligi ma'lum bo'ladi:

Meni gado netib ul shoh hamdin aylay ado

Ki, shohlar shohi keldi gadolariga gado⁸⁶.

"Mujtass -...Ajamda musamman, juzvlari to'rt qatla mustaf'ilun foilotun dur.

⁸⁶Хусайн Бойқаро. Рисола. Девон. -Тошкент: "Шарқ", 1995 йил. 25-бет.

Ajam shoirlari bu bahrlarni solim iste'mol qilmaslar"⁸⁷. Husayniy devonida g'azaldan tashqari muxammas, to'rtliklar ham mavjud. 1968-yilda Toshkentda adabiyotshunos olimi S. G'aniyeva tahriri ostida nashr etilgan devonda uchta muxammas va oltita to'rtlik keltirilgan. Muxammaslar to'lig'icha Navoiyg'azaliga bog'langan tazmin muxammaslardir. Birinchi muxammas Navoiyning "Xazoyin ul- maoniy" devoniga kiritilgan "Netay" radifli g'azaliga bog'langan yetti banddan iborat muxammas. Navoiyning "Netay" radifli g'azali ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan:

Gulshani ko'yungdin ayru bog'i rizvonni netay?

Boshima gar gul sochar sensiz ul afshonni netay?

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Foilotun foilotun foilotun foilun

Husayniy muxammasida ijodi uchun xos bo'lgan vaznni saqlaydi. Keyingi ikki muxammas ham aynan yuqoridagi vaznda bo'lib, biroq uch muxammasdan "Husayniyning 1968-yilgi nashriga: Ulki jonim gulshanida bor xurram bahor – misrasi bilan boshlanuvchi muxammas Navoiy g'azaliga taxmis sifatida kiritilgan edi. Ammo keyingi tekshirishlar bu muxammas, aksincha, Navoiyning Husayniy g'azaliga taxmisi ekanligini ko'rsatadi"⁸⁸.

E'tiborimizni Husayniy to'rtliklariga qaratsak. Mavjud devon nashrlarida oltita to'rtlik keltirilgan. Shu bilan birga Husayniy "Risola"sida ham yana bir necha to'rtliklar keltirilganki, ularning janr xususiyatlarini aniqlashda aruz ilmining ahamiyati kattadir.

Sharq she'riyati janr xususiyatiga ko'ra rang-barang bo'lib, shakl jihatdan to'rt misraliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, XV asrning I yarmida yashab ijod qilgan ko'plab turkiyzabon shoirlarning adabiy merosida to'rtlik shaklidagi she'r namunalari uchraydi. Yusuf Amiriy, Gadoyi, Sakkokiy, Lutfiy hamda hozircha shaxsiyati va adabiy merosi aniqlanmagan Muhammad Temur Bug'o va

⁸⁷Атауллоҳ Ҳусайний. Бадойи у-с-санойи.-Тошкент: Гофур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети, 1981 йил. 26-бет.

⁸⁸Абдуғафуров А. Ўн биринчи мухаммас. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1990 йил 5-сон. 16-бет.

Hoji Aqcha Kindiylar⁸⁹ni mana shunday shoirlar sirasiga kiritish mumkin. Sharq she'riyati janrlari mundarijasidan tuyuq, ruboiy, qit'a (ikki baytli qit'alargina kiradi) mumtoz janrlar to'rtlik shaklda bo'lib, son va salmoq jihatidan fors-tojik va turkiy she'riyatda g'azaldan keyingi o'rinda turadigan janrlardir. "Biroq to'rtlik shaklidagi mazkur she'rlarning janrini belgilashda ruboiy, tuyuq, qit'a, to'rtlik kabi atamalar ba'zan almashtirilgan holda qo'llanadi. Bu hol nafaqat hozirgi zamon adabiyotshunosligida, balki XV asr manbalarida ham uchraydi"⁹⁰. O'zbek adabiyotshunosligi, she'rshunoslik ilmining dastlabki manbasi bo'lgan Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a»sida vazni va mazmunidan qat'iy nazar to'rtlik shaklidagi barcha janrlar ruboiy atamasi bilan atalgan. Bunda ruboiy so'zining lug'aviy ma'nosi ("to'rtlik") asos bo'lgan bo'lishi kerak. Mazkur asarda ruboiyga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ruboiy to'rt misra' bo'lur. Avvalg'i va ikkinchi va to'rtinchi misraida qofiya keltururlar. Va uchinchi misra ixtiyoriydir"⁹¹. Taroziy ruboiyga misol tariqasida to'rtta turkiy va ikkita forsiy misol keltiradi, biroq keltirilgan misollarning faqat bittasigina ruboiy vazniga ("hazajning axrab va axram shajarasi") to'g'ri keladi. Shu bilan birga, Taroziy tuyuqni ruboiyning bir turi sifatida ko'rsatadi: "Va ruboiyning yana bir nav'i taqi bo'lur. Oni mujannas derlar. Aningdek bo'lurkim, ruboiyning qofiyasida tajnis rioyat qilurlar.

Misoli bu tarz:

To ko'gulda ishq o'ti tobandadur

G'am maishat panjasin tobandadur.

Kiprik o'qin qismatetibotsangiz,

Hech kishiga tegmas ul-to bandadur.

Va bu turk shoirlarining ixtiroidir. Muni turklar tuyuq derlar "⁹². Taroziy xuddi shu vaznda yozilgan, ammo ikki qofiya she'rlarni qit'a deb ataydi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, XV asr boshlarida ruboiy janri nazariy va amaliy jihatdan turkiy she'riyatga to'liq singib ketmagan va to'rtlik shaklida yozilgan she'rlarning janriy rang-barangligi aniq qoida asosida ajratilmaganligidan dalolat beradi. Bu holat XV asrning ikkinchi yarmida yaratilgan she'riy devonlarda ham uchrab turgan. Husayniy taxallusi bilan ijod qilgan Husayn Boyqaro

⁸⁹Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1994 йил, 1-сон. 83-бет.

⁹⁰Тоҳиров С. XV асрнинг биринчи ярми туркий шеърятда туюқ ва рубоий.// Мавлоно Лутфий шеърят ва давр адабий муҳити муоммолари. - Самарканд, 2010 йил. 51-52-бет.

⁹¹Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1994 йил, 1-сон. 83-бет.

⁹²O'sha asar. 83-bet.

devonining 1968-yil prof. Suyuma G`aniyeva tahriri ostidagi nashrida oltita she`r to`rtlik sarlavhasi ostida kiritilgan. Ushbu to`rtlik shaklidagi she`rlardan to`rttasi vazn, qofiya va mazmun jihatdan ruboiy janri talablari doirasida yozilgan. Buni ayrim to`rtliklar tahlili misolida ko`rishimiz mumkin:

Ko`rsatma chamanda sarvi yo`ldosh manga
 Kim, ko`rganidin ko`zdin oqar yosh manga.
 Indursa ne bo`ldi har nafas bosh manga
 Ul sarvi ravonki, bo`ldi bo`ydosh manga⁹³.

Bu ruboiyning 1-3-4-misralari hazaji musammani axrabi maqbuzi axrami majbub (Maf`uvlu mafoilun mafoiylun fa`) vaznida:

Ko`rsatma chamanda sarvi yo`ldosh manga
 - - v / v - v - / v - - - / -

bo`lib, 2-misra esa hazaji musammani makfufi axrami majbub ( Maf`uvlu mafoiylun mafoiylun fa`)vaznida yozilgan:

Kim, ko`rganidin ko`zdin oqar yosh manga
 - - v/ v - - v / v - - - / -

She`r a-a-b-a tarzida qofiyalangan bo`lib, ishqiy mavzudagi xossasiy ruboiydir.

Ya`na bir to`rtlikni tahlil qilaylik:

Ul sho`xki birdam manga hamdam bo`lmas,
 Zaxm ursa firoqi, vasli marham bo`lmas.
 Ishqida ko`ngul nasibi juz g`am bo`lmas,
 Ko`ngul ko`taray desam, ko`ngul ham bo`lmas⁹⁴.

To`rtlikning 1-misrasi hazaji musammani axrami axrabi axrami majbub ( Maf`uvlun maf`uvlu mafoiylun fa`) vaznidadir:

- - -/ - - v/ v - - - / -

⁹³Хусайн Бойкаро. Девон. Рисола. -Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашри, 1968 йил. 155-бет.

⁹⁴O`sha asar. 155-bet.

2-3-4-misralar hazaji musammani axrabi maqbuzi axrami majbub (Maf'uvlun maf'uvlu mafoiylun fa') vaznida yozilgan:

Zaxm ursa firoqi, vasli marham bo'lmas

- - v/ v - v -/v - - -/ -

To'rtlik a-a-a-a tarzida qofiyalangan taronayi ruboiydir. Mazmun jihatdan ayriliq, hijron, g'am tuyg'ulari kuylanadi.

Endi Husayniy to'rtliklaridan quyidagisiga e'tiborimizni qaratsak:

Ashk to'foni agar jismim ko'tardi ko'yidin,

Ohkim, to ko'z yumib ochti chiqardi ko'yidan.

Yo'qki, surdi ko'yidin ul sel men ovorasin,

Naxli umedim niholin ham qo'pordi ko'yidin⁹⁵.

To'rtlik vazn nuqtai nazaridan ramali musammani mahzuf (Foilotun foilotun foilotun foilun)da yozilgan:

Ashk to'foni agar jismim ko'tardi ko'yidin

- v - - / - v - - / - v - - / - v -

To'rtlik bir qarashda tuyuqga o'xshasa-da, vaznda (tuyuq ramali musaddasi mahzuf yoki maqsur vaznida yoziladi) bir rukn ortiqchadir. Biroq jinsdosh so'zlarning qo'llanganligi, o'ziga xos turkona ohang tuyuqni eslatadi. Bundan kelib chiqadiki, Husayniy ijodida vazn chegarasidan chiqishga intilish, turkona ohangni kuchaytirish kabi boshqalarda uchramaydigan navatorlik holatlari namoyon bo'ladi. Husayniyning ushbu to'rtligi Taroziy ta'riflagan tuyuqga to'g'ri keladi. Husayniy she'rlari ichida yana bir to'rtlik ham borki, uning tahlili alohida ahamiyat kasb etadi:

Bu soz fanida qildi sehri komil,

Bu fanga sozi bordur asru shomil.

Biz ush cho'ldin kelibbiz ochib-orib

Bizingdek bo'lmag'ay olamda soyil⁹⁶.

⁹⁵Хусайн Бойқаро. Девон. Рисола. -Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашри, 1968 йил, 156-бет.

⁹⁶O'sha asar. 156-bet.

Vazn jihatdan toʻrtlik aruzning hazaji musaddasi mahzuf (Mafoiylun mafoiylun fauvlun)dadir. Qofiyalanish tartibi a-a-b-a tarzida. Shaklan ruboiyga oʻxshasa-da, vazn jihatdan farq qiladi. Toʻrtlik hazajda yozilgani uchun ohangi va ritmi ruboiyga yaqin. Mana shu birgina misolning oʻziyoq Husayniy oʻz ijodida nafaqat sharq sheʼriyati anʼana hamda tajribalaridan unumli foydalanish, shu bilan birga, turkiy adabiyotda yangilik qilishga intilish mavjudligini koʻrsatadi. Yaʼni Husayniy ruboiy yozishda nafaqat hazajning axrab va axram tarmoqlaridan, balki hazaji musaddasi mahzufdan foydalanish tajribasini amalga oshiradi, ushbu toʻrtlikda ham oldingisi (Ashk toʻfoni...) kabi vazn talabidan chiqish koʻzga tashlanmoqda.

Husayniy qalamiga mansub “Risola” asarida ham uchta toʻrtlik mavjud. Navoiy shaʼniga atab yozilgan birinchi toʻrtlik yuqorida tahlil etilgan toʻrtlikka vazn jihatdan oʻxshashdir:

Erur soʻz mulkining kishvarsitoni,

Qayu kishvarsiton, xisrav nishoni.

Dema xisravnishonkim, qahramoni,

Erur gar chin desang, sohibqironi⁹⁷.

Toʻrtlik a-a-a-a tarzida qofiyalangan, mazmun jihatdan madh kuchli, vaznan hazaji musaddasi mahzufda yozilgan:

Erur soʻz mulkining kishvarsitoni,

v - - - / v - - - / v - -

Yana ikki toʻrtlik ruboiy sarlavhasi bilan berilgan boʻlib, qofiyalanish tartibi va vazniga koʻra har ikkilasi ruboiyga toʻgʻri keladi. Mana oʻsha ruboiylardan biri:

Yo rab, qayu shukringni ado qilgʻaymen,

Ne til bila ani ibtido qilgʻaymen.

Yuz jonim agar boʻlsa fido qilgʻaymen

Desamki, ado boʻldi xato qilgʻaymen(23).

Ruboiyning 1-3-4-misralari hazaji musammani axrabi makfufi axrabi majbub (Mafʼuvlu mafoiylu mafoiylun faʼ)da:

⁹⁷Хусайн Бойқаро. Рисола.Девон. -Тошкент: “Шарк”, 1995 йил. 23-бет. (Misollarning barchasi ushbu nashrdan olingan boʻlib, qolganlarining sahifasi qavs ichida koʻrsatiladi).

Yo rab, qayu shukringni ado qilg`aymen

- - v/ v - - v/v- - - / -

2-misra esa hazaji musammani axrabi maqbuzi axrami majbub vaznida yozilgan:

Ne til bila ani ibtido qilg`aymen

- - v/ v - v-/v - - - / -

Ruboiy qofiyalanish jihatidan a-a-a-a shaklida bo`lib, mazmunan hamdona ruhdagi taronayi ruboiy hisoblanadi.

Husayniy to`rtliklarini janriy xususiyatiga ko`ra tahlil jarayonida mavjud to`rtliklarning oltitasi vazn, qofiya va mazmun talabiga ko`ra ruboiy janriga mansub bo`lib, to`rttasi devonga, ikkitasi “Risola”ga kiritilgan. Bitta to`rtlik tuyuqga yaqin, vazniy jihatdan chegaradan chiqish ko`zga tashlanadi. Devon va “Risola”dan o`rin olgan yana ikki to`rtlik hazajning musamman va musaddaslarida yozilgan bo`lib, ohang va qofiyalanishiga ko`raruboiyga o`xshaydi. Mazmunan deyarli barchasi bir-biriga yaqin. Husayniy to`rtliklari tili sodda va ravon, muloyim va xushoyanda ohang bilan insonni o`ziga jalb qiladi. Qofiya, radif, badiiy tasvir vositalarining qo`llanishidagi turkonalik, shakldan mazmunning ustun qo`yilishi, natijada vazndagi nomutanosibliklar Husayniy to`rtliklarining badiiyatini, ya`ni shoir “ixtiro”larini namoyon etadi. “Risola”da yana bir nechta baytlar ham mavjud. Masnaviy tarzida keltirilgan baytlar Husayniy tomonidan she`r, deya atalgan. Bu baytlar “Risola”da shoir fikrining nazmiy bayoni vazifasini bajargan. Ularning aruziy tahlilini ko`rib o`tish esa Husayniy ijodida ramali musammani maqsur (mahruf)dan boshqa yana qanday vaznlar uchrashi, ularda ilmiy jihatdan mukammallik qay darajada ekanligini aniqlash muhimdir. Xususan, “Risola”da ham an`anaviy hamd va na`t baytlari mavjud. Hamdona bayt:

Xudoyeki har shohi anjum sipoh,

Aning dargahida erur xoki roh(8).

Bayt aruzning mutaqoribi musammani mahzuf vaznda bitilgan (Fauvlun fauvlun fauvlun faul). Biron o`rinda saktalik mavjud emas.

Na`t mazmunidagi bayt:

Rasulikum rusuldur barcha hayli,

Erur kavnu makon oning tufayli(8).

Bayt aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida bitilgan.

“Risola”da Husayniy o`ziga ishora ma’nosada keltirgan yana bir bayt mavjud. U quyidagicha:

Surgan bu varaq yuziga xoma,
Bir g`amzadadan siyohnoma(8).

Bayt “Layli va Majnun” mavzusidagi dostonlarga xos bo`lgan hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vaznida yozilgan.

“Risola”da Olloh ato etgan ne’matlarga shukr qilishlik to`g`risida uch bayt masnaviy ham keltirilgan:

Aning shukrin ayturda bo`lma malul,
O`zi bilsun ar qilsa rad yo qabul.
Nekim tangri amr etti ma’mursen,
Adosida ajz o`lsa mazursen.
Vale ulcha mumkindurar say qil
Ki, xo`y aylagay tengri shukriga til(8).

Masnaviy mutaqoribi musammani mahzufda yozilgan.

Insonlar bu dunyoda ne’matlar va hadyalar turli darajada taqsimlanishi haqidagi fikrlardan so`ng Husayniy quyidagi baytni keltirgan:

Haq nuri bila agarchi ravshandir jam,
Xurshid bila valek teng bo`lmadi sham(9).

Bayt hazajning axrab shajarasida bitilgan. Fikr davomi sifatida podshohning shukri haqida yana ikkita bayt mavjud:

Gadoga shukr ishi bo`lgay gadocha,
Va lekin podshog`a podshocha.

Qoshlarida xalq ishi afkandaliq
Amrlariga el etib bandaliq(9).

1-bayt hazaji musaddasi mahzuf, 2-bayt esa ramali musaddasi mahzuf vaznlarida yozilgan. Vaznda saktaliklar sezilmaydi.

Husayniy shohlik ulardagi lutf, karam, yaxshilik haqida so`zlab, quyidagi bir baytni keltiradi:

Gar olam elig`a shoh qildi,
Faqr ahliga xokiroh qildi(10).

Bu bayt ham yuqoridagi kabi hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vaznida bitilgan.

Husayniy Abdurahmon Jomiy iste`dodi, “Panj ganj”ning badiiy salohiyati haqida gapira turib, ikki bayt masnaviy keltirgan bo`lib, Iskandar haqidagi dostonlarga xos bo`lganmutaqoribi musammani maqbuz va mahzuf vaznida yozilgan:

Chu mezoni tab`i bo`lib ganjsanj
Anga bir tarozu, kelib “Panj ganj”
Ki hayron qolib nazm qilgan chog`i,
Anga yo`qki Xisrav, Nizomiy tog`i(12).

Navoiy devoni ta`rifida ham bir bayt uchraydi:

Dema devon g`amu dard ahlig`a ofat de ani
Kuymaku shu`lai g`am birla qiyomat de ani(13).

Bayt ramali musammani maxbuni mahzuf (foiltun failotun failotun failun) da yozilgan.

Husayniy she`riyatini vazn jihatdan tahlil etish shoirning vazn qo`llash borasidagi mahoratini o`rganishda ahamiyatlidir. Tahlillar shuni ko`rsatadiki, Husayniy iste`dodli shoir sifatida rang-barang vaznlardan foydalangan. Husayniy g`azal yaratishda faqat bir vazndan foydalanishi “turkiy” janr talabi ekanligi, aslida Husayniy boshqa vaznlarda ham ijod qila olishligi ma`lum bo`ladi. Shuningdek, Husayniy she`riyatini janriy jihatdan o`rganish va tasnif qilish, xususan, hajman kam bo`lsa-da, to`rtliklar tarkibini aniqlash kelajakda amalda oshiriladigan tadqiqot ishlarini yatishda, devonni nisbatan to`liq va mukammal nashr etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-fasl. Husayniy she'riyatida ilmi bade' va ilmi qofiyaning o'ziga xos ko'rinishlari

Husayniy g'azallarining mazmuni ilmi bade' va ilmi qofiyasiga ko'ra tahlil etish shoir ijodiga xos bo'lgan "tavlidi ma'ni"larini aniqlash, an'anaviy tasvir uslublarining aynan Husayniga xos jihatlarini aniqlashda, turkiyning shartli belgilarini aniqlashda va boshqa turkiy shoirlari ijodi bilan qiyoslashda alohida ahamiyat kasb etadi. Husayniy she'rlarini yuqoridagi xususiyatlariga ko'ra o'rganish XV asrning II yarmidayoq Alisher Navoiy tajribasida amalga oshirilgan edi. Navoiy Husayniy she'rlariga ta'rif berar ekan, "...har oshiqona matla' bila dard ahli jonig'a shu'lai fano yoqilg'ay"⁹⁸, deya yuksak baho beradi. "Majolis un-nafois"da bir yuz yetmishga yaqin g'azal matla'si keltirilgan. Hozirda bizga Husayniy ijodiga mansub 202 ta g'azal ma'lum. Demak, Navoiy tahlilga kirmagan o'ttizdan ortiq g'azal mavjud. Yana shunisi qiziqki, Navoiyning tartibi bo'yicha birinchida kelgan matla' g'azal devonda to'qqizinchi o'rinda, ikkinchi matla' o'ninchi o'rinda, uchinchi matla' esa sakkizinchi o'rindan joy olgan. Navoiy asaridagi bundayin tartibdagi nomutonositlikni ikki narsa bilan mumkin:

1. Navoiy foydalangan devon nusxasida g'azallar ana shu tartibda joylashtirilgan bo'lishi mumkin.
2. Navoiy Husayniy g'azallari ichidan badiiy pishiq "sharif tab' va latif zehnining ixtiroi" darajasidagilarini tanlab, alohida tartib bo'yicha bergan bo'lishi ham mumkin.

"Hamd" (حمد) arabcha so'z bo'lib, "madh", "maqtov" ma'nolarini bildiradi. Ushbu atama adabiy istiloh sifatida Ollohni madh etib yozilgan asarlarga nisbatan qo'llanadi. "Islom dini qaror topgan mamlakatlarda har bir yirik adabiy asar Olloh madhiga bag'ishlangan qism bilan boshlangan"⁹⁹. She'riy devonlar g'azal bilan boshlanganligi bois hamd mazmunidagi she'rlar devonlarda asosan g'azal

⁹⁸Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ.13-том.-Тошкент: "Фан", 1997 йил. 174-бет.

⁹⁹Хожиахмедов А. Мумтоз бадийят луғати. -Тошкент: "Янги аср авлоди", 2008 йил. 183-бет.

shaklida bo'lgan. Dostonlarda esa alohida boblar shaklida keltirilgan. Hamdlar asarlarda an'anaviy ibtido vazifasini bajargan. Sobiq ittifoq davrida dinni afyun sifatida targ'ib etish natijasida atiezm g'oyalari kuchaydi. Natijada turli devon va dostonlar nashrida an'anaviy hamd va na'tlar nashrdan olib tashlandi. Asararning badiiy-g'oyaviy mazmunining ajralmas qismi bo'lgan hamd va na't larning nashrda yo'qligi asarlarning badiiy yaxlitigiga putur yetkazdi, o'z navbatida asarlarning badiiyatini to'liq aks ettirish va o'rganishda qiyinchiliklar keltirib chiqardi. Husayniy qalamiga mansub bo'lgan turkiy tildagi she'riy devonning sho'rolar davridagi nashrlarida ham yuqorida qayd etilgan holat ko'zga tashlanadi. Ushbu nashrlarda an'anaviy hamd va na't g'azallar nashrda mavjud emas. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda dinga o'zgacha munosabat o'rnatildi. Insonlarda iymon-e'tiqod masalasini ochiq-oydin hal etish sharoiti yaratildi. Badiiy asarlar nashrlarida muqaddas dinimizni ulug'lovchi, yakka-yu yagona Ollohni madh etuvchi, uning bir-u borligiga, rahm-u shafqatiga beadadligi-yu, lutfiga hamd-u sano bidiruvchi g'azallar va boblar to'lig'icha nashr etila boshlandi. Shu jihatdan, Husayniy devonining A. Erkinov tahriri ostida 1995-yilda "Shoh va shoir" turkumi ostida qilingan nashri ahamiyatga molikdir. Ushbu nashrdan 202 ta g'azal o'rin olgan bo'lib, shundan ikkitasi hamd mazmunidagi g'azallardir. Devonda birinchi raqam ostida joylashtirilgan g'azal yetti baytdan tarkib topgan. Vanz jihatdan Husayniy ushbu g'azalini boshqa g'azallari kabi ramali musammani mahzuf va maqsur vaznida yozadi. G'azal quyidagi mat'la bilan boshlanadi:

Ey, habibingdin kelib hamdingg'a lo ahsa sano,

Ul chu ojiz bo'lsa, vasfing kim qila olg'ay yano (25).

Habibing (Muhammad s. a. v.) ning hamdi sening cheksiz maqtovingni ado etolmas. Agar u sening hamdingni to'liq ado etishda ojiz ekan, unda vasfingni yana kim ham ado eta ololadi. Mat'lada Olloh vasfining adog'i, chegarasi yo'qligi, hatto eng sevikli do'sti, rasuli bo'lgan, komil inson sifatida e'tirof etiladigan Muhammad s. a. v. ham uning madhini to'liq ado etolmasligi aytilmoqda. Baytda talmih san'ati qo'llangan.

Kom-u rohatdur saning shavqingdag'i anduh-u g'am,

Aysh-u ishratdur saning ishqingdag`i dard-u ano (25).

Ikkinchi baytda oshiqning ishq yo`lidagi holati tushuntiriladi. Ya`ni, haqiqiy oshiq uchun yor (Olloh) ga intilish yo`lidagi anduh va g`am ham orzu, ham rohatdir. Uning ishqidagi dard va mashaqqat esa aslida aysh-u ishratdir. Baytda tazod san`atidan unumli foydalanish (kom-u rohat va anduh-u g`am, aysh-u ishrat va dard-u ano) natijasida mazmuniy ta`sir oshgan, tarsi` san`ati esa misralardagi har bir so`zning ohangdoshligini yuzaga keltirgan.

Lutf etib ushshoq aro yorib navo qilg`il nasib,

To Husayniyning maqomi bo`lsa dori fano (25).

Husayniy maqta`da o`ziga xos so`z o`yinini yaratadiki, bunda tanosib (ushshoq, navo, Husayniy, maqom) san`ati yaqqol ko`zga tashlanadi: yorab menga ham lutf etib, ushshoq (shoshmaqom kuylaridan biri) aro kuy nasib etgin. To Husayniy maqomi foniylik uyigacha yetsin. Baytdagi so`zlarni boshqacha mazmunda talqin etish ham mumkin, buning natijasida baytda iychom san`atidan ham foydalanilgani ayon bo`ladi: Oshiqlar ichida menga yorlik baxtini nasib qilgin, toki Husayniyning maqomi, darajasi fano uyi qadar bo`lsin.

Husayniyning hamd mazmunidagi ikkinchi g`azali ham yetti baytdan iborat, biroq bu g`azal vazniy jihatdan (mujtass bahrida yozilgan) nafaqat birinchi g`azaldan, balki Husayniy qalamiga mansub barcha g`azallardan farq qiladi. Ushbu g`azal mat`lasida ham Olloh maqtovini ketirish oddiy banda uchun mushkil ekanligi haqida so`z boradi:

Meni gado netib ul shoh hamdin aylay ado

Ki, shohlar shahi kedi, gadolarig`a gado (25).

Men bir gado bo`lib ul shohning maqtovini, hamdini qanday qilayinki, uning oldida shohlar shohi ham gadolarning gadosi kabidir. Baytda tazoddan (shoh va gado) unumli foydalanish natijasida ta`sir kuchaytirilgan. Ikkinchi baytda yaratganning buyukligi, cheksizligi kutilmagan tasvir orqali bayon etiladi:

Jaloli bog`ida xashxosh huqqasi yanglig`

Nujum durlari birla bu gunbadi miyno (25).

Yaratganning ulug`ligi bog`ida yulduzlar durlari bilan to`la osmon xuddi ko`knori urug`i solingan quticha kabidir. Shoir bu bilan Olloh ulug`ligi oldida yulduzlar bilan to`lgan cheksiz osmon ham kichik qutichadek bo`lib qoladi, demoqchi.

Ollohning qudrati-yu buyukligini ta'kidlar ekan, Husayniy maqta'da uning rahm-shafqatidan umid qiladi:

Husayniy o'lsa sarosar gunoh-u jurm ne g'am

Chu do'st lutfining ummidi bor basdur ango (26).

Ya'ni, Husayniy boshdan oyoq gunohlar bilan to'la bo'lsa ne g'am, unga do'st (Olloh) lutfidan umidvorlikning o'zi basdir. Baytda bir jihatdan shoir gunohlarining ko'pligiga iqror bo'lgan holda shafqat tilayotgan bo'lsa, boshqa tomondan Ollohning bandalariga mehribonligiga ishora qilinmoqda. Husayniyning ikkala hamd g'azalida tangrining buyukligi-yu, amri vojibligi haqida so'z yuritildi. Biroq mazmuniy maqsad jihatdan ular qisman bir-biridan farq qiladi. Birinchi g'azalda ko'proq Ollohgacha yor deya, murojaat etadi, unga oshiq bo'lganning his-tuyg'ulari, ko'ngil xastaligi, unga yetishmoq yo'lining mashaqqati go'zal tarzda ifoda etiladi. Qaysidir jihatdan g'azalda tasavvufiy maznun anglashiladi. Ikkinchi g'azalda esa deyarli har bir baytda Ollohning sifatleri sanaladi, uning cheksiz ekanligi hayotiy misollar orqali tasvirlanadi. Bu g'azalda yaratguvchiga yor deb emas, do'st deb murojaat etiladi.

Husayniy ijodiga mansub hamd g'azallarining devon nashrlariga kiritilishi asar yaxitligini saqlashda, shu bilan birga, shoir shaxsiga xos bo'lgan barkamollik, kamolat darajasini, diniy-dunyoviy qarashlarining mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Devondagi uchinchi g'azal na't, ya'ni payg'ambar maqtovi ruhida yozilgan:

Ey, qilib ravshan ulus topmoqqa anvorini hudo,

Mus'hafi ruxsori uza "Vash-sams" birla "vaz-zuho" (26).

Ya'ni, ey yuzi mushafidagi "Vash-shams" va "Vaz zuho" oyatlarini odamlar hidoyati yo'lini topishi uchun ravshan etgan zot. Ushbu g'azalda ham badiiy san'at turlaridan unumli foydalanilgan. Yuqoridagi birinchi baytning o'zidayoq sifatlashning an'anaviy, shu bilan birga o'rinli namunalarni uchratamiz. G'azalda xudo, zuho, ziyo, motig'a, ravo, xafo, doimo navo so'zlari muqayyad qofiyani yuzaga keltirgan. Ikkinchi baytda Husayniy o'ziga xos go'zal o'xshatish va husni tahlilning namunalarni yaratgan:

Laylat-ul meroj sharhi so'nbulung tobida darj,

Ul shabiston sham'i qadding anda orazdin ziyo (26).

Ya'ni, meroj kechasining sharhi sening (payg'ambarimiz Muhammad s. a. v) qora sochlarining to'lg'onishidan o'ralgan xatdek bukilib qolgan, ul qorong'u kechaning shami sening qadding bo'lib, unda yuzingdan ziyo taraladi. Bunda payg'ambarimiz Muhammad s. a. v ning ko'kka ko'tarilgan meroj kechasiga ishora mavjud:

Ko'zlaringga toki chekdi surma mozog'ulbasan,
Bu muayyandirki mundin zohir aldi motag'o (26).

Ko'zlaringga toki ul qora surma suvini chizdi. Bu aniqki, bundan motag'o ko'rinish berdi. Motag'o "Qur'oni karim"dagi Muhammad (s. a. v)ni madh etuvchi oyatdagi bir so'z. Husayniy bir so'z orqali butun bir oyatga, "Qur'oni karim"ga ishora etmoqda.

Husayniy maqta'da taxallusi bilan bo'g'liq tasvirni yaratadi:

Qilsang ohangi shafolat ul maqom ichra ne tong,
Gar Husayniy dog'i ushshoqing aro topqay navo (26).

Ya'ni, ajab emaski, ul maqoming, darajang bilan Olloh va bandasi o'rtasida turuvchi vosita ohangini qilsang, Husayniy tag'in oshiqqlarning ichida bahramandlik topsa.

Alisher Navoiy Husayniy g'azallari matla'larining mazmuni, shoir qalamiga xos uslubi va ixtirolari haqida "Majolis un-nafois" asarining sakkizinchi majlisida arab alifbosi tartibida o'zining tahliliy ta'rifini beradi. Navoiyning matla'larni joylashtirishdagi o'ziga xos tartibi devonning hozirda mavjud nusxalardan farqlanadi. Misol uchun, "Alif" harfi bilan tugallanuvchi quyidagi g'azal Alisher Navoiy tartibida birinchi bo'lib joylashtirilgan:

Ne ajoyib xo'y erur, ey sho'xi siyminbar, sanga,
Kim necha mehringda jon bersam emas bovar sanga.

Ushbu matla' bilan boshlanuvchi g'azal "Devon" da to'qqizinchi raqam bilan belgilanadi. Bunday holat har bir harf ostidagi matla'lar tartibida uchraydi. Navoiy asarida dastlab tahlil va munosabat, umumiy mazmun so'ngra bayt keltirilgan. Navoiy harflarga mos tarzda kiritilgan g'azallar soni ham kam:

1 “Alif”	5ta	15 “Zod”	1ta
2 “Be”	5 ta	16 “To”	1ta
3 “Te”	2 ta	17 “Zo”	1ta
4 “Se”	1 ta	18 “Ayn”	1ta
5 “Jim”	2 ta	19 “G`ayn”	1ta
6 “He”	1 ta	20 “Fe”	1 ta
7 “Xe”	1 ta	21 “Qof”	5 ta
8 “Dol”	1 ta	22 “Kof”	10 ta
9 “Zol”	1 ta	23 “Lom”	8 ta
10 “Re”	17 ta	24 “Mim”	12 ta
11 “Ze”	5 ta	25 “Nun”	22 ta
12 “Sin”	3 ta	26 “Vov”	2 ta
13 “Shin”	1 ta	27 “Xe”	22 ta
14 “Sod”	1 ta	28 “Yoy”	25 ta

Alisher Navoiy jami bo`lib 166 ta bayt tahlilini keltirgan bo`lib, shundan (4 tasi Navoiyning o`zi va boshqa shoirlar g`azallari matla'si) 158 tasi Husayniy g`azallarining matla'si va Husayniy g`azallaridan keltirilgan baytlardir. Navoiy “Majolis un-nafois”da keltirilgan g`azal matla'lari matn jihatdan “Devon” tarkibidagi aynan ushbu g`azallardan farqlanadi. Bunday farqli holatlarni quyidagi baytlar misolida ham keltirish mumkin:

To tushubturmen sirishkim bahridan girdob aro,

Zulfidek sargashta jismim qoldi pechu tob aro¹⁰⁰.

A. Erkinov tahriri ostidagi nashrda ushbu bayt quyidagicha berilgan:

To tushubturmen sirishkim bahridin girdobda
Zulfidek sargashta jismim qoldi pechu tobda (27).

Muhammad Ya'qub Juzjoniy tomonidan nashr etilgan Husayniy devonida xuddi ushbu bayt quyidagicha berilgan:

To tushubturmen sirishkim bahridin girdobdin,
Zulfidek sargashta jismim qoldi pechu tob¹⁰¹.

Bir g'azalning matla'sidagi uch xil holat akademik B. Valixo'jayev tomonidan quyidagicha izohlanadi: "...bu holning ro'y berishi tahrir bilan izohlansa kerak. G'azalning devonlaridagi ikki xil qofiyasini (dobdin-tobdin, dobda-tobda) Husayniyning tahriri, deb bilsa bo'ladi. Alisher Novoiy esa "Majolis un-nafois"da Husayniyning g'azallari matla'larini keltirayotganda uning vaznida saktalikni sezib, ammo bu haqda aytib o'tirmasdan ya'ni, tanqid qilib yoki ma'lum bir tana ohangida so'z yuritishni odobsizlik, deb bilib uni "dob aro-tob aro", tarzida tahrir qilgan, tuzatgan "¹⁰². Xuddi shunday holat quyidagi g'azal matla'sida ham uchraydi:

Furqatingdin yo`q edi jismimda jon, jonimda tob,
Ko`zda xunob erdi-yu, g`amgin ko`ngildapech-u tob (36).

Xuddi shu bayt Navoiyning "Majolis un-nafois" ida quyidagicha beriladi:

Furqatingda yo`q edi jismimda jon, ko`nglimda tob,
Ko`zda xunob erdi-yu, g`amgin ko`ngilda iztirob.

Mazmun va vazn talabi har ikkala holatda saqlangan.

¹⁰⁰ Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том.-Тошкент: "Фан" 1997 йил. 175 бет.

¹⁰¹ Валихўжаев Б. Султон Ҳусайн Бойқаро - Ҳусайний шеърляри.- Самарқанд, 2000-йил. 80 бет

¹⁰² O'sha asar. 81-bet.

“Devon” nashrlari va Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida berilgan baytlar o`rtasida bundayin farqlanishlarga o`nlab misollar keltirish mumkin. So`z mulkining sultoni bo`lmish Alisher Navoiyning bu o`rinda ham ajoyib mutafakkir va shoir ekanligi namoyon bo`ladi. Boshqa tomonda esa Navoiy hukmdorning qalamiga mansub she`rlarga o`zgartirish kiritar ekan, bu bilan Navoiy va Husayn Boyqaro munosabati yana bir bor oydinlashgandek bo`ladi.

Husayniy g`azallarining barchasi ishqiy mazmundadir. Ularda oshiq, ma`shuqa va raqib obrazlari yetakchilik qiladi. Oshiq iztiroblari ma`shuqaning noz-u karashmalari, vafo-yu zulmlari, go`zal sur`ati-yu, ag`yorning jabri shoir qalamida yangicha ko`rinish va tarovat, o`ynoqi ohangni vujudga keltiradi. Husayn Boyqaro ijodda shohlikdan gadolik maqomiga tushadi. Bor mahorati ila dunyoviy go`zalning qaddi qomatini vasf etadi. Husayniy g`azallarining badiiyatini to`laroq tahlil etish maqsadida nisbatan o`raganilmagan, hattoki Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ga kiritmagan g`azallar tahliliga e`tiborimizni qaratamiz:

Sarvu nozim jilva qilmas, vah netay bo`ston aro?

Ul alifdek qomati ham yo`q buzilg`on jon aro (27).

Go`zalim, kelishgan sevgilim, nozli sarvi qomatim. Gulzor aro jilva ne uchundir qilmaydi. Uning alif kabi tik qomati ham buzilgan, barbod bo`lgan jon ichida yo`q. Bayt mazmunan tushunarli. Tushunilishi qiyin so`z yoxud jumla deyarli mavjud emas. Gulzor aro o`z sevgilisini istab kirgan oshiq uchun go`zal yorning jilva qilmasligi, ya`ni gulzorda ko`rinmasligi og`ir holatdir. Bunday paytda oshiq uchun bo`stonning asl qiymati yo`qoladi. O`z-o`ziga hayajonli tarzda “vah bo`ston aro netay” deyishi shundan. Baytda Husayniy an`anaviy tashbeh san`atidan foydalangan. Bundan tashqari mazmunan “alifdek qomat” va “buzilgan jon” tazodni hosil qilgan. Shoir ikkinchi baytda ohangni saqlagan holda birinchi baytga xulosa yasaydi:

Har necha sarkashdurur bu sarvqadlar, oqibat,

Mumkin ermas biz bila teng bo`mag`ay bo`ston aro (27).

Birinchi baytdayoq shoirning sezilar sezilmas bo`lsa-da isyoni, ma`shuqaning jabrlariga nisbatan hayajonli munosabati aks ettirilgan edi. Ikkinchi baytda bu holat yaqqol ko`zga tashlanadi. Ya`ni ul go`zal sarv qomatli yor har qanchalik o`jar, itoatsiz bo`lmasin, oqibatda gulzorni ziynatlashda baribir biz bilan teng bo`lmaydi, bizni teng deb bilmaydi.

Hajr tobidin ichim bir yon balig`dek o`rtanur,
Gar vatan tutsam balig`dek chashmai hayvon aro (27).

Baytda go`zal tarzda betakror tamsil san`ati qo`llanilgan. Bizga ma`lumki, baliq qayerda tug`ilgan bo`lsa, o`sha joy uning xotirasida bir umr muhrlanib qolar ekan. Hayoti davomida necha-necha irmog`-u, daryo-yu, ko`llarda so`zmasin, o`zi dunyoga kelgan joyga intilib yashar ekan. Vatan hijroni shu qadar kuchli ekanki, umrining so`nggida shu joyga qaytib jon taslim qilar ekan. Oshiqning tasviricha, agar baliq kabi chashmayi hayvon(ishq)ni o`ziga vatan qilsa, ayriliq hijronining kuchi baliq kabi ma`shuqa tomon intiladi, o`rtanadi.

Sarv qomatli yor tasviri, asl go`zallik, dilrabo yorning har narsadan ustunligi “Bo`lmasa” radifli g`azalda ham o`z aksini topgan:

O`tga yondur sarvni, ul qaddi ra`no bo`lmasa,
Yelga bergil gulni ul ruxsori zebo bo`lmasa (29).

Mazmuni quyidagicha: Agar sarvning qaddi tik bo`lmasa, uni o`tin qilish zarur gulning yuzi chiroyli bo`lmasa, bunday gulni ham yelga uchirib yubor, saqlab o`tirma. Bu bilan Husayniy sarvni, gulmi oshiqmi yoxud ma`shuqa o`z nomiga munosib loyiq bo`lishi kerakligini go`zal tarzda aytmoqda. Zero, sarvning qadri tik qaddi bilan, gulning qadri esa chiroyli ko`rinishi bilan belgilanadi. Baytda xalq og`zaki ijodiga xos o`ynoqilik, soddalik, ravonlik sezilib turadi.

Sarv birla gul tomoshasig`a maylim yo`qturur,

Bog` aro ul sarvi gulruxdin tomosha bo`masa (29).

Agar bog` ichida sarv qadli gul yuzli yor o`zini ko`rsatmasa, bog`da o`sgan sarv bilan gulni tomosha qilishga menda mayl yo`q, chunki oshiqning bog`iga kirishdan muddaosi bu emas. Zero go`zal yor o`zida ham savrning, ham gulning go`zalligini mujassamlashtirgan. Baytda tanosib, tashbeh san`tidan foydalangan.

Gavhari maqsud topmoq mumkin ermas, ey rafiq,

Ko`z yoshing to vasl umidi birla daryo bo`lmasa (29).

Ey do`st, toki ko`z yoshing vasl umidi bilan daryo bo`lmaguncha asl maqsadni topib bo`lmaydi. Husayniy bu baytda “gavhari maqsud”, deya bir tomondan yorga yetishishdek asl maqsadni nazarda tutgan bo`lsa, boshqa tomondan inson nihoyatda kuchli yig`iga berilgan paytda ko`z yoshi xuddi injudek ko`zni qamashtiradi. Va inson boshqa hech narsani ko`ra olmaydi. Husayniy baytda husni tahlil va tamsilning nihoyatda go`zal, sodda shu bilan birga betakror namunasini yaratgan.

Husayniy yorning betakror husni-yu, o`zga dilbarlardan ayricha mulohatini “Aro” radfli g`azalining deyarli har bir baytida dalillar orqali isbotlashga urinadi. Ushbu g`azalda bir necha o`rinda ko`ngilning yor husnidan shikasta ekanligini ko`ramiz:

Nildin har bir alifdur ul mahi ruxsor aro,

Yo niholi sarv bo`lmish jilvagar gulzor aro (31).

Ul oy yuzlining har bir tik shakldagi xoli nildandir, yoki guzor (yuz) aro sarvning niholi jilva qildimikan? Husayniy birinchi misrada oyda bo`lgan kabi yor yuzida ham xoli (dog`i) borligiga, biroq bu xol nil (nashtarsimon asbob) bilan tik qilib chizilganligiga ishora qilmoqda. Yorning yuzidagi aliflarini hayol qilib turgan oshiq o`z fikridan qaytib gulzordagi savr niholidir, degan fikrga boradi. Baytda husni talil va ruju` san`atlaridan foydalanganligi yaqqol sezilib turadi.

Eyki, bo`lmish har sari mo`yungg`a bog`liq bir ko`ngul,

Yo`q ajab el ko`nglini eltur esang raftor aro (31).

Yorning har bir sochiga, tukiga har tomondan bir ko`ngil bog`lanib qolgan. Ajab emaski, yor elning ko`nglini o`z yurig`iga kiritsa. Bu o`rinda bir qarashda go`zal yor siymosiga ishora nazarda tutilsa-da, boshqa jihatdan insonlarni birlashtiruvchi, ularga yo`lboshchilik qiluvchi rahnamo ham tushunilmoqda. Unga shunchaki insonlarning jismigina emas, balki ko`ngli bog`langan. Bayt ma`lum ma`noda ijtimoiylik kasb etgan holda hukmdorning o`ziga ishora etmoqda.

O`qlaring ichra qiliching zaxmidin qonlig` ko`ngul

Ochilibtur go`yiyo bir g`uncha yuz ming xor aro (31).

O`qlaring(jabr sitamlaring) ichra qiliching (azobing) zahmidan, jarohatidan ko`ngil qonli bo`ldi, go`yo bu holat bir g`uncha (qonli ko`ngil) yuz ming xor (tikonlar) ichra ochilganidek. Nihoyatda go`zal tasvir, bayon etish tarzi sodda va ravon. Hayotiy misol baytda tamsilning go`zal namunasiga aylangan. Qondan qizil tusga kirgan ko`ngil azob uqubatlar ichida qizil g`unchadek tasvirlangan. Baytda yana hayotiy tarzda tashbeh namunasini ham baytda qo`llagan.

Ey, Husayniy, chiqsa gulgun to`n bila ul gul ne tong

Kecha tong otquncha erdi diydai xunbor aro (32).

Agar Husayniy gulrang to`n bilan chiqsa, hayron bo`lmang, chunki tong otquncha ko`zlaridan qonli ko`z yosh to`kdi. Oshiqning hijron sabab to`kkan ko`z yoshi qonli bo`lib, boshdan oyoq gul rangga, ya`ni qizil tusga kirgan.

Husni ta`lil maqta`da ham o`ziga hos tasvirni jonlantirmoqda. Husayniy oshiq holatini o`quvchiga oson tushunilishi uchun tabiat hodisalaridan foydalanadi. Hattoki oshiqning ilojsiz vaziyatini hashoratlar hayot tarzi orqali ifoda etadi:

Za`fdin o`rgamchi domig`a yiqilg`ach chirmanib,

Ul chibindek to`rladi har yon tanimni aylanib (32).

Ishq otashidan kuchsizlangan oshiq o`rgamchi domig`a (muhabbat domig`a) yiqiladi. Muhabbat oshiqni xuddiki o`rgamchak chivinni o`z to`ri bilan chirmagandek butun tanasini har tomondan to`rladi. O`rgamchak to`riga tushgan chivinning undan xalos bo`lishi amri mahol, chunki u endi o`rgimchak uchun o`ljadir. Oshiq ham shunday, u ham muhabbat to`riga tushgach, butun tan-u joni bilan unga bog`lanib qoladi. Nihoyatda tabiiy va tushunarli, shu bilan birga, kutilmagan o`xshatish, bu shoirning badiiy topqirligidan bir nishon, deyish mumkin.

Husayniy devonidan “yigit” radifli ikkita gazal ham o`rin olgan bo`lib, bu g`azallarda boshqa g`azallardagi kabi ma`shuqa, yor emas, balki “yigit” obrazi gavdalanadi:

Olg`ali shaydo ko`ngilni bir qadi ra`no yigit

Ko`rmadim husn ahli ichra husni ruhafzo yigit (37).

Ko`ngilni qaddi go`zal kelishgan yigit shaydo qilib oldi, husn ahli ya`ni go`zallar ichida ruhlantiruvchi, jonlantiruvchi husnli yigitni ko`ramagandim. Tashbeh va husni ta`lil san`atlaridan foydalanilgan. G`azaldan yigitning ot sakratishi, may qo`yishi kabi fazilatlari birma-bir tasvirlab o`tiladi.

Ko`z qarosin hal qilib, yozdim sanga ajz-u niyoz,

Ko`z yoshimni ham sepib ul nomag`a, ey sarvinoz (56).

Ko`zim qarosini aralashtirib, ezib siyoh yasab ojizligimni, kuchsizligimni yozdim. U nomaga ko`z yoshimni ham sepib yubordim, ey go`zal yor. Oshiq shu qadar kuchsiz bechora holdaki, o`zining bu holatini ifodalab yorga ma`lum qilishi uchun bundan ortiq tasvir bo`lmaydi. Zero, siyohda maktub bitayotgan oshiq uchun dardlarini so`z bilan muhrlayotgan siyoh ko`z qarosidek aziz bebaho. Bu o`ringa oshiqning moddiy jihatdan ham og`ir ahvolda ekanligini tushunish mumkin. Uning ishq shu qadar kuchliki yorga uni izhor etmaslikning iloji yo`q. Shu bois siyoh o`rniga ko`zlari qarosini hal etib noma yozdi. Maktub yozganda

azaldan, agar u sevgi maktubi bo'lsa, oshiqning ma'shuqaga muhabbatini sezdirib turishi uchun maktubga xushbuy atir sepilgan. Oshiq yor kuyida yig'layverib ko'z yoshidan ham muhabbat ifori kelib qolgan. Shu bois oshiq o'z maktubiga ko'z yoshlarini sepib ul go'zalga yo'llaydi. Baytda nihoyatda go'zal va ta'sirli istioradan foydalanilgan.

Ishq yetkach aql-u hushu u sabr haryon butrashur,

O't qayon yuzlansa vojibdur ul elga ihtiroz (57).

Insonga ishq yetsa, undagi aql, hush, sabr har tomonga tuzg'ib, tarqab ketadi. Olov ham qaysi tomonga yuzlansa, u yerning kulini ko'kka sovuradi. Shu bois o't yuzlangan tomondagi yeldan ehtiyot bo'lishi zarurdir. Bu bilan shoir ishq ham o't kabi kuydirib, oxir oqibat xarob etishini tasvirlamoqda. Bu o'rinda ham Husayniy ishqqa xos holatni hayotiy misol o't ketishi bilan izohlaydi. Baytda tanosub, jonlahtirish, tamsil san'atlaridan unumli foydalanilgan.

Yana bir g'azalda oshiq endi yorga emas, balki yon atrofidagi yaqinlariga, hamdamlariga murojaat etadi. Telba junun holatidan chiqishga ko'mak so'raydi. Hattoki o'ziga nisbatan beayov munosabatlarga ham rozi:

Ul quyosh ko'yida bu ovorani band aylangiz,

Bor-u bu tazvir ila ko'nglimni xursand aylangiz (57).

U quyosh ya'ni ma'shuqa dardida men kabi bir ovorani kishanlangiz, tutqunlik bandi qilingizlar. Bor hiyla, aldov, nayranglar bilan xastalangan ko'nglimni xursand qilingiz, chidab bo'lmas ishq azobi-yu judolikni boshidan kechirayotgan oshiq o'z yaqinlaridan oyoq qo'lini kishanband etishlarini so'raydi. Bu tasvir "Xamsa" dostonlaridan "Layli va Majnun"dagi Majnunning yaqinlari tomonidan kishanband etilishini eslatadi. Biroq Majnun lirik qahramon kabi band aylashini yaqinlaridan o'zi so'ramaydi, chuki u Layli ishqida junun bo'lib ulgurgan edi. Lirik qahramon Majnun holatiga yetayotganligiga o'z so'zlari orqali ishora

etmoqda, bu o`rinda aynan bo`lmasa-da, mashhur bir asar syujetiga ishora sezilmoqda. Husayniy bundan tashqari baytda istiora san`atidan ham foydalangan.

Gar Husayniy desangiz sho`roba to`kkay talx-talx

Xo`blar gohi anga boqib shakarxand aylangiz (57).

Agar Husayniy deb aytsangiz, achchiq-achchiq ko`z yoshlar to`kar, go`zallar goh-gohida unga boqib tabassum qilingiz. Maqta'dan ma'lum bo`ladiki, lirik qahramon shoirning o`z boshidan shu qadar kuchli ruhiy holatni kechirganki, birgina ismini tilga olishsa ham achchiq ko`z yosh to`kadi. Uning bu telbanamo holiga go`zallar goh-gohida boqib nozlanib kulishlarini so`raydi. Garchi xo`blar masxaralashsa-da, oshiq uchun ular boqishining o`zi bir baxt. Shoirning "Emas" radifli g`azali o`ziga xos go`zal tasvirlar, an'anaviylikning betakror yechimlari bilan har bir o`quvchida o`ziga xos taassurot uyg`otadi:

Uylakim gul ichra g`unchang har necha ma'lum emas,

G`uncha og`zing nechakim so`z desa ham mafhum emas (61).

Sharq adabiyotida og`izning kichikligi, hatto ko`rinmas darajada ekanligi go`zallik belgisi sifatida tasvirlanadi. Husayniy yaratgan lirik qahramonni gul ichida har qancha boqsa ham g`uncha ko`rinmasligi taajjubga solmoqda. Bu yerda gul yuz, g`uncha esa og`izdir. Aslida bu tabiiydek, zero g`uncha ochilib gul bo`lgach guldani topib bo`lmaydi. Ma'shuqaning g`uncha og`zi necha so`z aytsa ham, ularni fahmlash, anglash mumkin emas. Negaki og`iz so`zlayotgan chog`da ochilib yopilishi kerak, negadir yor qancha so`zlasa ham uning g`uncha kabi og`zini aniqlab bo`lmaydi. Baytda Husayniy tashbeh, husni ta'lil, litota va mubolag`a san`atlarni birlashtirgan holda badiiyatni oshirishga harakat qilgan.

Umuman olganda, Husayniy g`azallarida ishqiy mavzu yetakchilik qoladi. Yorning go`zal qomati-yu sumbul sochi, oy kabi yuz-yu g`uncha misol og`zi, la`ldek alvon dudog`i-yu durdek tishlari, xo`shbo`y xati barcha-barchasi o`zgacha mehr-muxabbat, bilan tasvirlangan. Tasvirlar anchayin hayotiy, sodda va ravon til bilan ifodalangan. Deyarli barcha so`zlar tushunilish jihatdan o`quvchida qiyinchilik tug`dirmaydi. Badiiy san`atlar ichida talmih, tashbih, mubolag`a, husni ta'lil istiora, tamsil, taajjub tajohuli orifona kabi san`atlardan deyarli har bir baytda

foydalangan. Xalqonalik, xalq ogʻzaki ijodi namunalariga xos oʻynoqilik, soʻz oʻyini misol ohangdorlik yetakchilik qiladi.

Mumtoz sheʼriyatimizda qofiya badiiyatning asosiy qirralaridan biri hisoblanib kelgan. “Ijodkorning salohiyati sheʼrlarda qoʻllangan qofiyalarning gʻoyalar mohiyatini ochishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan soʻzlarning maʼnaviy teranligi, jilo va jozibasi bilan ham belgilangan”¹⁰³. Qofiya sanʼati nihoyatda murakkab boʻlib, uni toʻlaroq anglab yetish, tushunish uchun qofiyaning tuzilishi va turlarini, sheʼriy janrlarda qofiyaning xususiyatlarini, qofiya sanʼatlarini va boshqalarni chuqur oʻzlashtirish zarur. Aksariyat hollarda qofiya radif bilan birgalikda qoʻllangan. Radif arabcha soʻz boʻlib, “izma-iz keluvchi”, degan lugʻaviy maʼnoni anglatadi. Adabiy istiloh sifatida esa qofiyadan keyin aynan takrorlanib keluvchi soʻz yoki soʻz birikmasidir. “Radiflar sheʼrda ifodalanayotgan yetakchi fikrni taʼkidlash, oʻquvchi eʼtiborini asosiy gʻoyaga jalb etib, shoir gʻoyaviy niyatini oʻquvchi qalbiga toʻlaroq, chuqurroq yetkazish maqsadiga xizmat qiladi”¹⁰⁴. Demak, sheʼrda aynan bir soʻzning baytma–bayt takrori asosiy gʻoyaviy mazmunni bot-bot yodga solishga, mazmunga urgʻu berishga xizmat qilar ekan. Husayniyning sheʼriy devonida 202 ta gʻazal mavjud boʻlib, shundan 119 tasi radifli gʻazallardir. Shuning oʻziyoq mumtoz sheʼriyatimizda, xususan, gʻazalchiligimizda radifning oʻrni naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi. Shoirning sheʼr mazmuni va gʻoyasiga mos ravishda radif tanlashi uning isteʼdodidan, soʻzga qay darajaga masʼuliyat bilan yondashishidan va sheʼrning ohangdorligidan dalolat beradi. Xususan, Husayniy qalamiga mansub boʻlgan “Yigit”, “Maks”, “Oʻt”, “Charx”, “Axz”, “Aylangiz”, “Maraz”, “Hifz”, “Az firoq”, “Bukun”, “Xijil”, “Ey koʻngul” kabi oʻnlab radifli gʻazallarida radif gʻazalda ilgari surilayotgan fikrni qayta-qayta oʻquvchi koʻz oʻngida namoyon etishga xizmat qilgaqn. Misol uchun:

Qildi ruhafzo labing kulmak bila jonimni axz,

¹⁰³ Хожиахмедов А. Мумтоз бадийят луғати. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008-йил. 54 бет.

¹⁰⁴ Oʻsha asar. 84-bet.

Yig`latib kofir ko`zung ham naqdi imonimni axz (45).

G`azalda “Axz” – olmoq so`zi oshiqning ishq yo`lida joni, imoni, parishoni-yu, pinhoni, barcha olganlari-yu paykoni, qoni va qolganini, yor va uning hayoli olgani o`ta ta`sirchan, shu bilan birga kutilmagan ohang va shakldagi radif orqali ifoda etilgan. Ayrim g`azallarida Navoiy g`azallariga xos mazmun va ohangni, hatto radifdagi o`xshashliklarni kuzatish mumkin. Misol uchun Navoiyning “Deyin” va Husayniyning “Dey” radifli g`azallar ham ohang, ham shakl va ham radif jihatdan bir-biriga yaqin turadi.

Navoiy :

Qoshi yosinmu deyin, ko`zi qarosinmu deyin,

Ko`ngluma har birining dardi balosinmu deyin.

Husayniy :

Mushkbo` xattinmu dey, yo la`li durborinmu dey?

Yuzi iymoninmu dey, yo zulfi zunnorinmu dey?

Husayn Boyqaroning tashabbusi va homiyligi bilan tashkil etilgan saroydagi she`riy majlislarda eng yetakchi shoirlar o`rtasida she`riy musobaqalar uyushtirgan, majlisda tahsinga sazovor g`azallarga javob aytish an`analari mavjud bo`lib, shoir sifatida bu musobaqalarda Husayniy ham faol ishtirok etgan. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida “Ey ko`ngul” radifli g`azal yozganligini aytar ekan, bu g`azalga Husayn Boyqaroning “javob voqe` bo`lubtur, ammo yuz martaba andin ravonroq va yaxshiroq voqe` bo`libtur”¹⁰⁵, deya yozadi:

Chun junun zanjirig`a bo`ldum giriftor, ey ko`ngul,

Bo`lg`asen men telba holidin habardor, ey ko`ngul.

¹⁰⁵ Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том.-Тошкент: “Фан” 1997 йил. 189-бет.

She'riyatda qofiyadosh so'zlarning ohangdorlik darajasi aksariyat hollarda raviy bilan bog'liq. Raviy bu arabcha so'z bo'lib, "rivo" ya'ni "yukni tuyaga bog'laydigan arg'amchi ip", ma'nosini ifodalaydi. Arg'amchi ip tuya ustidagi yukni mahkam tortib turganidek, raviy ham she'rda qofiyalanuvchi barcha misralarni ohang jihat bog'lab biriktirib turadi. Mumtoz she'riyatimizda qofiya ilmiga ko'ra raviy harfi bilan tugallanuvchi muqayyad qofiya, ikkinchisi esa raviydan keyin ham harflar keladigan mutlaq qofiya turidir.

Husayniy qalamiga mansub 202 ta g'azaldan 117 tasi muqayyad, 85 tasi mutlaq qofiyadir. Har ikkala tur qofiyada ijod qilish jarayonida Husayniy qofiya ilmi qoidalariga to'liq amal qiladi, qofiyadosh so'zlarni tanlashda soddalik, turkiy so'zlardan nisbatan ko'proq foydalanishlik va mazmundan uzoqlashmaslik kabilarga qat'iy rioya etgan holda ijod etadi.

Muqayyad ya'ni qaydli qofiya undosh raviy bilan unli orasida yana bir undosh takrorlanib keluvchi qofiya turidir. Qisqa unli hazv, raviydan oldingi undosh qayd deb ataladi. Muqayyad qofiyali g'azallarga Husayniy ijodidan bir nechta misol keltirish mumkin. Xususan:

Muddate ishqing xayoli birla erdim mustamand,

Bodai vasling bila bir dam bo'lay deb bahramand (44).

Yoki :

Tig'i hijron surdi yetmay vaslidin ko'nglumga bahr,

No'sh bermasdin butun berdi manga bir qatra zahr (51).

Biroq umumiy tarzda ham raviy bilan tugallangan qofiyalar borki, ularni ham muqayyad qofiya turiga kiritish mumkin.

Orazing mehrin ochib, jismim aro jon o'rtama,

Oshkoro lutf etib, ko'nglumni pinhon o'rtama (128).

Birinchi baytda mustamand va bahramand soʻzlari ohangdosh boʻlib, “d” undosh soʻzlardagi “a” qisqa unlisi hazv, “m” undoshi esa “qayddir”. Ikkinchi misolda esa “bahr va zahr” oʻzaro qofiyadosh boʻlib, bunda ham “a” unlisi hazv, “h” undoshi esa “qayd”dir. Keyingi uchinchi misolda “jon” va pinhon“ soʻzlari ohangdosh boʻlib, “n” harfi raviy, “o” choʻziq unlisi “qayd” tovush vazifasini oʻtagan. Husayniyning sheʼriy devonida shu va shu kabi muqayyad qofiya turiga mansub ohangdosh soʻzli gʻazallarni koʻplab uchratish mumkin. Ularda ohang, mazmun va vazniy mutanosiblik yaqqol koʻzga tashlanadi.

Qofiyadosh soʻzlarning raviysidan soʻng harflarning kelishi mutlaq qofiya sanaladi. Mutlaq qofiya tarkibidagi raviydan keyin keluvchi har bir harf turlicha ataladi. Xususan, raviydan keyin turuvchi undosh yoki choʻziq unli tovush vasl deb yuritiladi. Vasl bilan tugallanuvchi qofiyalar vasli mutlaq qofiya deb ataladi. Husayniy devonida quyidagi baytni vasli mutlaq qofiyaga misol qilib koʻrsatish mumkin:

Ey, habibingdin kelib hamdinggʻa lo ahsa sano,

Ul chu ojiz boʻlsa vasfing, kim qila olgʻay yana (25).

Keltirilgan misollarning birinchisida “o” unlisi vasl boʻlib kelgan. Mutlaq qofiyali sheʼrlarda vasldan keyingi undosh yoki choʻziq unli tovush xuruj boʻlib, bu xil qofiyalar xuruji mutlaq qofiya deb ataladi:

Mahvashe yoʻq soʻrgʻali bu zori hayrondin xabar,

Gʻamkashe yoʻq topqali bu rozi pinhondin xabar (52).

Uchinchi, yaʼni hurujdan keyin keluvchi choʻziq unli yoki undosh tovush mazid deb ataladi. Mazid bilan tugallanuvchi qofiya esa mazidli mutlaq qofiya sanaladi. Bunga quyidagi gʻazalning qofiyadosh soʻzlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin:

Shomi hijronim koʻrib sen mehr otin tutmading,

Va'dai subhi visol aylab ani yorutmading (82).

Qofiyadosh so'zlari "tutmading va yorutmading" bo'lgan ushbu misolda "t" tovushi raviy, "m" undosh vasl, "d" undoshi xuruj, "ng" esa maziddir. Maziddan keyingi harf esa noira deb ataladi:

Ey ko'ngul, gardun baliyat toshini yog'dirdilo,

Har taraf sabrim o'yi devorini sindirdilo (132).

Baytda "yog'dirdilo" va "sindirdilo" so'zlari o'zaro ohangdosh bo'lib, "r" harfi raviy, "d" undoshi vasl, "d" undoshi xuruj, "l" undoshi mazid, "o" unlisi noira hisoblanadi va noira bilan tugallanuvchi qofiya noirali mutlaq qofiya sanaladi. Biroq ba'zi she'rlarning qofiyasida noiradan so'ng ham harflar davom etishi mumkin, bunda har bir undosh yoki cho'ziq unli noira deb atalaveradi. Vasl, xuruj, noira eski yozuv bo'yicha yoziladigan harflardir.

Gul yuzi atrofida ul lolai asfarmudur?

Yonida zulfimudur yo kokuli anbarmudur (49)?

"Asfarmudur" va "anbarmudur" so'zlarida "r" raviy, "m" vasl, "u" xuruj, "d" mazid, "u" va "r" tovushlari noira tovushlardir. Qofiya ilmida bir qancha qofiya san'atlari ham farqlanadiki, ularni Husayniy ijodi miqyosida o'rganish bu borada ham shoir iste'dodi va she'riyatining umumiy badiiyatini aniqlashda maqsadga muvofiqdir. Qofiya san'atlari ichida murdaf qofiya san'ati Husayniy ijodida nisbatan ko'proq uchraydigan qofiya san'atidir. Murdaf qofiya raviydan oldin cho'ziq unlilardan biri kelganda hosil bo'ladi. Murdaf qofiyalarda raviydan oldin kelgan cho'ziq unli esa ridf hisoblanadi. Qofiya san'atining bunday turiga Husayniy ijodidan quyidagi baytni misol qilib keltirish mumkin:

Sarvu nozim jilva qilmas, vah netay bo'ston aro?

Ul alifdek qomati ham yo'q buzulg'on jon aro (27).

Ushbu misolda “o” cho`ziq unli tovushi ridf bo`lib murdaf qofiyani hosil qilgan. Murdaf qofiyada ba`zan cho`ziq unli bilan raviy o`rtasida yana bir undosh takror holda qo`llanilishi mumkin, bunday qofiyalar undosh tovush ridfi zoyid deb ataladi va qofiyaning to`liq nomi ridfi zoyidli murdaf qofiyadir. Husayniy ijodida bunday qofiyali g`azallar ham uchraydi:

Vaslidin marhum o`lub, hajridadurmen poybast,

Na`shin eltur noqaning yo`lida bo`ldim yerga past (38).

Husayniy ijodida yana bir keng qo`llangan qofiya san`atidan biri raddi qofiya sanaladi. Adabiy istiloh sifatida raddi qofiya biror bir qofiyani takrorlash san`atidir. Mumtoz she`riyatimizda quyidagi maqsadlarimizga ko`ra raddi qofiya qo`llanadi:

“ - biron so`zning mohiyatini nazarda tutgan holda keyingi misralarda o`z ma`nosida takrorlash;

- biron so`zni avval o`z ma`nosida, keyin esa ko`chma ma`nosida qo`llash;

- avval qo`llangan biror so`zning shakldoshini keyingi misralarda tajnis tarzida keltirish”¹⁰⁶. Husayniy she`riyatida raddi qofiya 45 ta g`azalda uchraydi. Misol uchun:

Furqatingdin yo`q erdi jismimda jon, jonimda tob,

Ko`zda xunob erdi-yu g`amgin ko`ngulda pechu tob(36).

Baytda “tob” so`zi qofiyadosh so`z sifatida qo`llangan. Birinchi misrada “tob”, salomatlik, sog`lik, ikkinchi misrada “pech tob” tarzidagi birikma iztirob, degan ma`noni bildiradi. Baytda “tob” so`zi tajnisdir. Quyidagi baytda esa bir so`zning ketma-ket tarzida o`z ma`nosi qo`llangan:

Olg`ali shaydo ko`ngulni bir qadi ra`no yigit

Ko`rmadim husn ahli ichra husni ruhafzo yigit.

¹⁰⁶ Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият луғати. -Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008 йил. 81-бет.

Yo`q haloyiqkim maloyik xaylidan chiqqay fig`on
Sekritib ot, kirsam maydon ichra ul ra`no yigit (37).

She`riyatimiz tarixini kuzatsak, g`azallarning matla`sidagi qofiya ikkinchi baytda aynan o`z ma`nosida takrorlanib bir g`oyani ta`kidlashga xizmat qilishini ko`ramiz. Yuqorida keltirilgan baytda “ra`no” so`zi birinchi va ikkinchi baytda aynan bir xil mazmunni anglatib kelgan

Husayniy she`riyatida uchraydigan qofiya san`atlaridan yana biri muassas (tasisli) qofiyadir. Muassas qofiyada cho`ziq “o” unlisi ishtirok etadi va ushbu cho`ziq “o” unlisi va raviy orasida bir undosh va yana bir unli kelishini talab etadi. Qofiya ilmida cho`ziq “o” unlisi ta`sis, undosh tovush daxil, qisqa unli esa ishbo` va raviydan tarkib topgan qofiya muassas qofiya sanaladi. Ulardan ta`sis, daxil va raviy yozuvda yoziladi. Garchand bunday qofiya Husayniy ijodida kam miqdorda uchasa-da, yozilish qonun qoidalarida to`la rioya etilganligiga guvoh bo`lamiz. Tahlili uchun quyida bir necha misollarni ko`rib o`tishimiz mumkin:

Ul pari ko`ngli meni devonag`a moyil emas,

Yo mening ovora ko`nglum ishqig`a qobil emas (64).

Baytda qo`llangan “moyil” va “qobil” ohangdosh so`zlarida „o” ta`sis, “y” esa daxil, “i” unlisi ishbo`, „r” undoshi raviydir. Husayniy ushbu g`azalning so`nggiga qadar ushbu qoidadan chiqmagan holda ohangdosh so`zlarni keltiradi. Husayniy ijodida barcha so`zlarning vazn jihatidan o`zaro teng qofiyalardan foydalanib yaratilgan g`azallari ko`pchilikni tashkil etadi. Qofiya ilmida bu san`at muvozinada deb ataladi. Muvozinada so`zining lug`aviy ma`nosi “vazn jihatdan tengdoshlik”dir, Husayniy ijodidan bir necha misollarni muvozinada san`ti qonun-qoidalarida asosida tahlil etib ko`ramiz:

Nildin har bir alifdur ul mahi ruxsor aro,

Yo niholi sarv bo`lmish jilvagar gulzor aro (31).

Ushbu matla'da „ruxsor“, „gulzor“ soʻzlari qofiyadosh boʻlib, vazn jihatdan tengdir. Keyingi baytlarda qoʻlangan “guftor”, “raftor”, “xor”, “dastor”, “yogʻor”, „xunbor“ soʻzlari ham matʼladagi kabi vazn jihatdan oʻzaro teng qofiyadosh soʻzlardir.

Qofiya turlaridan yana biri bu – mujarrad qofiyadir. Sharq sheʼriyatida, xususan, oʻzbek mumtoz adabiyotida keng miqyosda qoʻllaniladi. Mujarrad qofiyaning ikki xil koʻrinishi uchaydi:

1. Raviysi choʻziq unlidan tarkib topgan mujarrad qofiya.
2. Raviysi undosh boʻlib, raviydan oldingi tovush qisqa unli boʻlgan mujarrad qofiya. Ushbu qisqa unli tavjih deb yuritiladi. Mujarrad qofiyaning har ikkala turidan Husayniy unumli foydalangan holda ijod etadi. Buni quyidagi misollar asosida koʻrishimiz mumkin:

Boʻldi gul vaqti-yu men xor gʻamidin muftalo,

Hajr oʻtidin loladek bagʻrimda yuz dogʻi balo (29).

Baytda “o” choʻziq unlisi qofiyadosh soʻzlarning raviysi boʻlib kelgan va bunday qofiyalar choʻziq unlili mujarrad qofiyalar deb ataladi.

Ne habibekim, figʻonimdin anga boʻlgʻay asar,

Ne rafiqekim, mening holimdin ul topgay xabar.

Kabi baytlarda esa mujarrad qofiyaning undosh bilan tugallanuvchi qofiyaning ikkinchi turidan foydalanilgan. Misolda “asar” va “xabar” qofiyadosh soʻzlaridagi “r” raviysidan oldingi “a” qisqa unlisi tavjih deb yuritiladi. Mujarrad qofiya sanʼatdan koʻra qofiya turiga yaqin turadi va juda keng qoʻllaniladi.

Bayt misralarida ikkitadan soʻzni qofiyadosh qilib keltirish usuli, yaʼni zulfqofiyatayn Husayniy sheʼriyatida keng qoʻllaniladi. Zulfqofiyatayn bu qoʻsh qofiya keltirish sanʼati boʻlib, shoirdan oʻziga xos mahorati va tayyorgarlik talab

etadi. Husayniy gʻazallaridan 78 tasida zulqofiyatayn sanʼatining qoʻllanishi shoir isteʼdodidan dalolat berib turadi.

Olgʻali shaydo koʻngulni bir qadi raʼno yigit,

Koʻrmadim husn ahli ichra husni ruhafzo yigit (37).

Husayniy gʻazalida “raʼno” va “ruhafzo” soʻzlarini asosiy qofiyadosh soʻz sifatida keltiradi. Biroq baytda ohangdoshlik jihatidan “qadi” va “husni” soʻzlari ham qofiyadosh boʻlib kelgan. Bu holat ayni ushbu baytda zulqofiyatayn sanʼati qoʻllanganligidan dalolat beradi. Husayniy ijodida baytning birinchi misrasidayoq zulqofiyatayn sanʼatini qoʻllagan gʻazallarga ham guvoh boʻlishimiz mumkin:

Koʻnglim oldi bir qadi raʼno, toʻni gulgun yigit,

Husni dilkash, oʻzi zebo, chobuku mavzun yigit (39).

Ushbu baytning birinchi misrasida asosiy qofiyadan tashqari “qadi”, “toʻni” soʻzlari qofiyadosh boʻlib kelgan. Bundan tashqari zulqavofiy, yaʼni koʻp qofiya qoʻllash sanʼatidan ham namunalar uchraydi. Ushbu qofiya sanʼati misralarda uch va undan ortiq soʻzlarni qofiyadosh qilishdir. Sharq sheʼriyatida yetuk soʻz sanʼatkorlarigina bu sanʼatga murojaat etadilar. Shu bois zulqofiyataynning namunalari nisbatan kam uchraydi. Husayniy gʻazallaridan quyidagi baytni misol tariqasida keltirish mumkin:

Oʻtgʻa yondur sarvni, ul qaddi raʼno boʻlmasa,

Yelga bergil gulni, ul ruxsori zebo boʻlmasa (29).


Husayniy gʻazaliyotining mukammallik darajasini, betakror jozibasi-yu, ohangini toʻliq his etish, oʻquvchiga yetkazish va oʻrganishda qofiya ilmining oʻrni beqiyosdir. Husayniy tajribali shoir, ijodkor sifatida qofiya unsurlari, turlari va sanʼatlaridan unumli va oʻz oʻrnida foydalanadi. Oʻziga xos uslub egasi boʻlgan Husayniy qofiya va unga bogʻliq birliklardan foydalanish va qoʻllashda “ixtiro”lar ham qiladi. Qofiya ilmini sheʼriyatning boshqa ilmlari bilan hamohang etgan holda

she'riyatining badiiy malohatini kuchaytirishga amaliy tarzda harakat qiladi. Umuman olganda, vazn qo'llash, badiiy san'atlarda mohirona va o'z o'rnida foydalanish hamda ohangdosh so'zlarni mavzu va g'oyaga moslashtirish orqali Husayniy she'riyatda XV asr shoirlariga xos bo'lgan umumiy jihatlar bilan birga individual uslub, ya'ni xalqona, sodda uslub yaqqol namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida, Husayniy ijodining betakror qirralaridan, latofati-yu, ruhlantiruvchi jonbaxsh ohangidan dalolat beradi.

Xulosa

Abulgʻozi Sulton Husayn Boyqaro XV asr Xuroson ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotida nihoyatda muhim mavqeiga ega boʻlgan tarixiy shaxsdir. Uning hukmdor sifatidagi fazilatlari bobosi Amir Temur saltanatining munosib vorisi ekanligi, Xuroson obodonchiligi va ravnaqi yoʻlidagi xizmatlari oʻz davri va keyingi asrlar tarixchilari tomonidan yetarli darajada yoritilgan. Husayn Boyqaroning XV asr ikkinchi yarmidagi turkiy adabiyotga qoʻshgan hissasi, oʻziga xos ilmiy adabiy muhitni yuzaga keltirgani esa nozik tabʼ va shirin kalom shoirning isteʼdodidan dalolat beradi. Ijodkordan bizga qadar ikkita asar meros boʻlib qolgan, eʼtiborlisi har ikkala asarda, garchi biri nazariy, biri amaliy tarzda boʻlsa-da, turkiy tilni rivojlantirish, xalq oʻrtasida yoyish, turkiy tilda ham ajoyib asarlar yozish mumkinligini koʻrsatish asosiy maqsad vazifasini bajargan.

Husayniy qalamiga mansub “Risola” asari oʻsha davr adabiy muhiti, uning yirik vakillari, xususan Alisher Navoiyning shaxsiy va ijodiy faoliyatiga chizgilar, munosabat tarzida bitilgan. Ushbu asar anʼnaviy qismlardan tarkib topganligi Husayniyning adabiy bilimlaridan xabardor ekanligi, shu bilan birga anʼanalarga sodiqligidan dalolat beradi. “Risola”da Husayniyning quyidagi fazilatlari namoyon boʻladi:




Husayniy taxallusi bilan ijod qilgan Sulton Husayn Boyqaro turkiy oʻzbek tilini rivojlantirish, u adabiy til darajasiga koʻtarish hamda badiiy ijodda “turkiygoʻylik”ni keng targʻib etish yoʻlida nafaqat sharoit va imkoniyatlar yaratdi,

turkiy shoirlarni ham moddiy, ham ma'naviy qo'llab quvatladi, shu bilan birga o'zi ham barchaga namuna bo'ldi. Turkiy tillar rivoji hamda adabiyot ilmining ravnaqi yo'lida Husayniyning she'riy "Devon"i nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. "Devon"da g'azal yetakchi janr bo'lib, arab alifbosining yigirma sakkiz harfida bitilgan. An'anaviy hamd va na't g'azallarining mavjudligi, g'azallarning mazmuniy tahlili shuni ko'rsatadiki, Husayn Boyqaro shoir sifatida an'anaviylikdan chekinmaydi, balki uni rivojlantiradi. Bu ham bejiz emas, chunki saltanat hukmdori ijod maydonida ham barchaga o'rnak bo'lishi, yetakchilik qilishi tabiiydir. Undan tashqari mazmundagi chuqur islomiy ilm, din, e'tiqodning go'zal talqini Husayn Boyqaroni zohiran shoh bo'lsa-da, botinan Ollohga oshiqligidan, uning marhamati-yu, qahri oldida boshqalar bilan tengligidan dalolat berib turadi. G'azallarda yetakchi mavzu ishqdir. Husayniy ishqni yangi bosqichga ko'taradi, uni ulug'laydi. Go'zal yorning qaddi qomati, guldek orazi, shirin so'zlari, ham vafosi, ham jafosi nihoyatda nozik o'xshatishlar, o'ynoqi tasvirlar, yangicha badiiy tasvirlar orqali ifoda etilgan. Umumiy tarzda baho berilganda Husayniy o'z she'riyatida tajnis, tazod, tashbeh, tajohuli orifona, tamsil, husni ta'lil, ruju, mubolag'a kabi badiiy san'atlardan unumli foydalangan. Lirik qahramon, ya'ni shoir g'azallarda ba'zan yorning husnini madh etuvchi, ba'zan lutfini maqtovchi, ayrim o'rinlarda o'zini ishqsizlikda ayblovchi, ba'zan yordan vafo, sadoqat talab etuvchi, hijron va ayriliqdan yozg'uruvchi oshiq holida namoyon boladi. Bu holat esa Husayniy o'z she'riyatida ishq deb atalmish tunganmas va eskirmas mavzularning turfa xil qirralarini aks ettirganligidan dalolat beradi. Shoir lirik qahramon holati orqali ishqning ulug' ne'mat ekanligini uning oldida shoh-u gado bir ekanligini ko'rsata olgan. Husayniy o'z iste'dodi, teran badiiy nazari yordamida turkiy tilni ko'klarga ko'taradi. Garchi, Husayniy she'riyatida an'anaviylik, Alisher Navoiy lirikasiga tayanganlik ko'zga tashlansa-da, o'ziga xos uslub, shoirona shuur o'zga shoirlarda uchramaydigan tasvirlarning mavjudligi bilan qadrlanadi.

Husayniy she'riyati quyidagi badiiy timsollar ijodkorning badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda ahamiyatlidir:

Badiiy timsollar



Husayniy devonnavis shoir sifatida an'anaga ko'ra devonini arab alifbosidagi yigirma sakkiz harf bilan tugallanuvchi g'azallar va "Hech" radifli bir g'azalini arab alifbosida yo'q, biroq fors-tojik va turkiy xalqlar ishlatadigan "chim" (چ) harfi bilan tugallagan. Bu holat Husayniy devon tartib berishda Navoiy yo'lidan borishga uringanidan dalolat beradi. G'azallarda yakporalik, mazmuniy izchillik yetakchilik qiladi. Hajm nuqtai nazaridan Husayniy devonida yetti va besh baytli g'azallar son jihatdan salmoqli hisoblanadi. Husayniy tom ma'nodagi iste'dodli shoir bo'lib, nafaqat g'azal, balki ruboiy, tuyuq muxammas, masnaviy, fard, ayrim manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra qit'a janrlarida ham ijod etgan. Shoir ijod jarayonida nafaqat she'riyat qonun-qoidalarini, an'analariga amal qildi, shu bilan birga ularni boyitdi, yangicha ijod namunalarini ham yaratdi. Shu sababli bo'lsa kerak, o'z davridayoq uning ijodi keng omma e'tirofiga sazovor bo'ldi. Keyingi davrlardan undan ilhomlanib ijod etuvchi shoirlar yetishib chiqdi. Husayniy she'riyat ilmining uchta asosi bo'lgan qofiya, vazn va she'riy san'atlarni mukammal egallaganligi tahlil jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Husayniy she'riyati vazn nuqtai nazarida turli xil bahs – munozaralarga sabab bo'lgan. Hattoki ayrim olimlar Husayniyni faqat bir xil vaznda ijod etganligi uchun tanqid ham qilishgan. Biroq o'z davrining yetuk shoiri Alisher Navoiy "Mezon ul –

avzon” asarida Husayn Boyqaroning vazn tanlash bilan bog’liq o’ziga xos ixtirosini rad etib bo’lmas dalillar bilan isbotlab beradi. She’riy devon va “Risola”dagi she’rlar vaznan tahlil etish jarayonida Husayniy nafaqat rammali musammani maqsurda, balki mutaqorib, hazaj, mujtass kabi bahrlarda ham go’zal she’rlar yarata olishiga guvoh bo’lamiz. Demak, Husayniy o’z devonidagi g’azallarni rammali “musammani maqsur (yoki mahzuf)” yozishda til va adabiyotning o’zaro mutanosibligi belgisi sifatida “turkona qo’shiq” g’azallarni yozishni o’ziga maqsad qilib oladi. Darhaqiqat o’z davri va keyingi davrlarda turkiy tilda ijod etish ommalashadi. G’azal mulking sultoni bo’lgan Alisher Navoiy ham ko’plab turkiy tildagi g’azallarini aynan Husayniy yo’lidan borib ramalda yozadi.

Husayniy devonidagi she’rlarni vazni jihatdan tahlil etish o’z navbatida shoir ijodida yaratilgan janr namunalarining tasnifda muhim o’rin tutadi. Ayniqsa, bu holat to’rtliklarining janrini belgilashda o’rinlidir. Tahlil jarayonlari shuni ko’rsatadiki, Husayniy vazn talablaridan chiqishiga uringan holatlar ham mavjud. Bizga ma’lumki, qofiya san’ati va ilmi she’rda ohangdorlik, musiqiylik va ta’sirchanlikni oshirishda muhimdir. Bu o’z navbatida shoir iste’dodining bir belgisi sifatida ham e’tirof etiladi. Husayniy she’riyatining yana bir yutuqlaridan biri qofiyadosh so’zlarni mahorat bilan tanlangani-yu, bevosita qofiya bilan bog’liq san’atlardan unumli va joyida qo’llagani ahamiyatlidir. Qofiyaning go’zal va ohangdosh bo’lishi, turli shakl va san’atlar bilan jilolanishi, shoirdan kuchli tayyorgarlik, ilm va iste’dodni talab etadi.

Husayniy ijodini qofiya ilmi nuqtai nazardan o’rganish shuni ko’rsatadiki, u qofiya va uning turlari, radif va raviy, qofiya unsurlari va san’atlaridan har bir she’rida so’z san’atkori darajasida foydalanadi. Sharq xalqlari she’riyatida, xususan turkiy adabiyotida qo’llanilmagan kamyob so’zlardan qofiya va radif sifatida foydalanadi. Bu Navoiy tomonidan shoirning “ixtirolari”, deya baholanadi. Husayniy she’riyatining yana bir yutuqlaridan biri badiiy san’atlarni rang – barangli va bulardan mahorat bilan foydalanishda deyish mumkin. Zero, she’riyat

ilmida badiiy san'atlar she'ni ziynatlovchi, jonlantiruvchi, yurakka yaqinlashtiruvchi, go'zallashtiruvchi vosita sifatida qadrlanadi. Husayniy devonidagi har bir g'zalning har bir bayti va misrasida bir varakayiga bir necha badiiy san'atlar qo'llanilganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, tashbeh, tajohuli orifona, mubolag'a, tazod, tazmin, husni ta'lil, tanosib, ruju', tashxis kabi san'atlardan unumli foydalanadi. Husayniy badiiy san'atlardan shunchaki, she'rda bir vosita sifatida foydalanibgina qolmasdan, badiiy mantiqiylikka ham alohida e'tibor beradi. Mazmuniy izchillikning saqlanishida badiiy san'atlarning o'ni yaqqol sezilib turadi.

Sulton Husayn Boyqaro o'z davrining muhim shaxslaridan biri bo'lgan. Siyosiy, iqtisodiy, harbiy salohiyatlarga hamohang tarzda ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik, ilmparvarlik fazilatlarini bilan o'z davrining chinakam hukmdoriga aylandi. Shoir sifatidagi faoliyatida ham uning yuqorida sanab o'tilgan fazilatlariga guvoh bo'lamiz. Insonning ham ichki, ham tashqi barkamolligi shoir she'rlarida o'z aksini topgan. Iste'dodli shoir bo'lgan Sulton Husayn Boyqaro millatning tayanchi bo'lgan turkiy tilda o'ziga xos jonbaxsh uslubni rivojlantirdi, sodda, ravon, mazmundor she'rlar yozdi, hirot adabiy muhitini shakllantirdi. Rahm, shafqat, adolat, fidoiylik, oqibat, sabr-toqat kabi ezgu fazilatlarni ijodiga jo eta olgan. Shoir she'rlarida ilgari surilgan yuksak g'oyalar, chaqiriq va undovlar bugungi kunda yurtimizning yuksalish yo'lidagi dadil qadamlarida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov. I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008-yil.
2. Каримов И. Амир Тему́р ҳақида. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996 йил
3. Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1995 йил.

Ilmiy adabiyotlar:

1. Tohirov S. O`zbek she'riyatida aruz. –Samarqand, 2010-yil.
2. Vohidov R. , Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent, O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashryoti, 2006-yil.
3. Абдуғафуров А. Навоий ва Ҳусайний. / Буюк бешлик сабоқлари, 1998 йил.
4. Абдуғафуров А. Навоий ва Ҳусайний. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1998 йил, 1-сон.
5. Абдуғафуров А. “Рисолаи Ҳусайн Бойқаро”нинг яратилиши тарихи. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1972 йил, 3-сон.
6. Абдуғафуров А. Ўн биринчи мухаммас. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1990 йил, 5-сон.
7. Абдуғафуров А. Ҳусайн Бойқаронинг “Индиана Оффис”даги девони. // Ўзбек адабиёти ва санъати. 1998 йил, 12-январ.
8. Абдуғафуров А. Ҳусайний девонининг Баламкада нусхаси. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998 йил 1-сон.

9. Абдулла Аъзам. Аруз. -Тошкент: А. Навоий номидаги ўзбек Миллий кутубхонаси нашрети, 2006 йил.
10. Амир Темури ва Улуғбек замондошлари хотирасида. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996 йил.
11. Амир Темури жаҳон тарихида. -Тошкент: “Шарқ”, 1996 йил.
12. Арасли Ҳ. Ҳусайн Бойқаро рисоласи ҳақида. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1996 йил, 6-сон.
13. Асрлар нидоси. -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети, 1982 йил.
14. Атауллоҳ Ҳусайний. Бадойи у-с-санойи. -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети, 1981 йил.
15. Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1994 йил, 1-сон.
16. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 2002 йил.
17. Бобоев Т. Шеър илми таълими. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996 йил.
18. Бобур З. М. Бобурнома. -Тошкент: “Юлдузча”, 1989 йил.
19. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. I-II жилд. -Тошкент: А. Қодирий номидаги Халқ мероси нашрети, 2002 йил.
20. Валихўжаев Б. Султон Ҳусайн Бойқаро - Ҳусайний шеърляти. - Самарқанд, 2000 йил.
21. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 1993 йил.
22. Ғаниева С. Ҳусайн Бойқаро асарларининг кўлөзма ва нашрляри. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1969 йил, 1-сон.

23. Еркинов С. Алишер Навоийнинг Ҳусайн Бойқаро форсий ғазалларига татаббуълари//Ўзбек тили ва адабиёти, 1996 йил, 1-сон.
24. Жўраев Ж. Ҳусайнийнинг баъзи шеърлари хусусида. //Ўзбек тили ва адабиёти. 2005 йил, 2-сон.
25. Исҳоқов Ё. Навоий поетикаси. -Тошкент: “Фан”, 1983 йил.
26. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. -Тошкент: “Тамаддун”, 2012 йил.
27. Комилов Н. Тасаввуф. -Тошкент: “Мовароуннаҳр” нашрети ҳамда “Ўзбекистон” НМИУ, 2009 йил.
28. Комилов Н. Хизр чашмаси. -Тошкент: “Маънавият”, 2005 йил.
29. Мавлоно Лутфий шеърляти ва давр адабий муҳити муоммолари. - Самарқанд, 2010 йил.
30. Маллаев Н. Ўзбек дабиёти тарихи. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1976 йил.
31. Мирзаев С. Ўзбек адабиётида қофия. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1992 йил, 5-сон.
32. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихий Рашидий. -Тошкент: “Шарқ”, 2010 йил.
33. Муҳиддинов М. Комил инсон адабиёт идеали. -Тошкент: “Маънавият”, 2005 йил.
34. Муҳиддинов М. Нурли қалблар гулшани. -Тошкент: “Фан”, 2007 йил.
35. Навоий А. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. 3-том. -Тошкент: “Фан”, 1988 йил.
36. Навоий А. Вақфия. МАТ. 14-том. -Тошкент: “Фан”, 1998 йил.

37. Навоий А. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-том. -Тошкент: “Фан”, 1997 йил.
38. Навоий А. Мезон ул-авзон. МАТ. 16 –том. -Тошкент: “Фан”, 2000 йил.
39. Навоий А. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 16 –том. -Тошкент: “Фан”, 2000 йил.
40. Навоий А. Тарихи мулки ажам. МАТ. 16-том. -Тошкент: “Фан”, 2000 йил.
41. Навоий А. Фавоид ул-кибар. МАТ. 6-том. -Тошкент: “Фан”, 1990 йил.
42. Навоий А. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 7-том. -Тошкент: “Фан”, 1991 йил.
43. Навоий асарлари лугати. -Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети, 1972 йил.
44. Салоҳий Д. Алишер Навоий поетик услубининг тадрижий такомили. (Автореферат) –Тошкент, 2001 йил.
45. Сатимов У. А. Навоий ва Ҳ. Бойқаро муносабатларига доир. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1994 йил, 3-сон.
46. Саъдий М. Ҳусайний девони. //Ўзбек адабиёти ва санъати. 1992 йил, 28-феврал, 9-сон.
47. Тўйчиев У. Ўзбек поезиясида аруз системаси. -Тошкент: “Фан”, 1985 йил.
48. Ўзбек адабиёти тарихи христоматияси. (XIII-XVасрлар) I том. - Тошкент: “Ўқув-пед. ” нашрети, 1941 йил.
49. Ҳайитметов А. Мажолис ун-нафоис ҳақида баъзи мулоҳазалар. //Ўзбек тили ва адабиёти. 1958 -yil.
50. Ҳожиаҳмедов А. Аруз назарияси. -Хўжанд, 1993 йил.

51. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. -Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008 йил.

Badiiy adabiyotlar:

1. Ҳусайн Бойқаро. Девон. Рисола. -Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашри, 1968 йил.
2. Ҳусайн Бойқаро. Рисола. Девон. -Тошкент: “Шарқ”, 1995 йил.
3. Жамолингдин кўзим равшан. -Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети, 1991 йил.

Internet materiallari:

1. [http://www. google. co. uz/](http://www.google.co.uz/)
2. [https://uz. wikipedia.](https://uz.wikipedia)
3. [www. testing. uz. /](http://www.testing.uz/)
4. [www. turklib. ru/](http://www.turklib.ru/)
5. [www. ziyonet. uz.](http://www.ziyonet.uz)